

TOSHPULATOVA DILOROM BOBANAZAROVNA

**HOZIRGI O'ZBEK NASRI:
MUALLIF VA IJODIY TAFAKKUR
KONSEPSIYASI**



Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

Копичество предельных
выдач

--	--

О'ЗBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TALIM VAZIRLIGI

TOSHKENT VILOYATI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TOSHPULATOVA DILOROM BOBANAZAROVNA

**HOZIRGI O'ZBEK NASRI:
MUALLIF VA IJODIY TAFAKKUR
KONSEPSIYASI**

Monografiya

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA
MAXSUS TALIM VAZIRLIGI CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

«MALIK PRINT CO»
TOSHKENT – 2021

- 13787/100 -

UO'K: 581 (075.8)
K BK 28.5ya73

KIRISH

Toshpulatova Dilorom Bobanazarovna
Hozirgi o'zbek nasri: muallif va ijodiy tafakkur konsepsiyasi [Mant]: Monografiya. – Toshkent: «MALIK PRINT CO», 2021.
– 112 b.

Taqrizchilar:

M. Tojiyev – Pedagogika fanlar doktori, professor
F.O. Jumanova – Pedagogika fanlar nomzodi, dotsent

Mas'ul muharrir:

Sh.Q. Mardonov – Pedagogika fanlar doktori, professor

Jahon adabiyotshunosligida yozuvchi shaxsi, ongi va badiiy ifodalarini yaxlit ravishda o'rganish ilmiy konseptual qarashlarning yanada takomillashuviga asos bo'lmog'da. Bortiqni qabul qilish va uni ifodalashning turli usul va yo'sinlari ijodkor botiniy tuyg'ularining doliriy o'zgarishiga moyil ekanligini hamda zamon, makon, davrda kechuvchi jarayonlar sintezlashuviga bog'liq omillarni har tomonlama tadqiq qilish zarurati paydo bo'lmog'da. Ijodiy niyatning moddiylashuvi va materiya uyg'unligi yozuvchi ongining bir qismida zohir bo'lishi bilan bog'liq muammolarni nazariy jihatdan asoslash muhim ahamiyat kasb etmog'da.

Dunyo adabiyotshunosligida ongda kechadigan ijod jarayoni vopqelik va hodisa tabiatida sodir bo'layotgan uzil-kesil o'zgarishlarga uyg'un tarzda ko'rilyotgan yozuvchi poetik olami hamisha o'ziga xosligi bilan alohida ahamiyatga ega. Falsafa va estetikaning kesishgan chorrhasida paydo bo'ladigan ijod mahsullari ruhshunoslarning ham qiziqishiga zamin yaratdi. Z.Freyd, K.Yung kabi psixanalitiklar ijodkorning yozish va izlanish maylini ong ostida avval bosib o'tilgan vopqelik tarzida talqin qilishi joriy adabiyotda kuzatilyotgan idealga talpinish degan xulosaga kelimgog'da. Ma'rifat va uning bag'rida qolm bo'lgan ong va bilish manerasi g'oyadan oziqlangan yaxlit konsepsiya sifatida e'tirof etilishi aynan muallif ongini ifodalash usullarini ham birgalikda tadqiq qilish lozim degan xulosaga kelishi tayin. Aynan muallif "men"i va ong qatlamlarida paydo bo'lgan olam, odam o'rtasidagi azaliy munosabatlar yig'indisini ochib berish zaruratiga aylangani sir emas.

Joriy o'zbek nasrida postmodernizm va neorralizm orasidagi chegarani aniqlashda muallif ongini ifodalash katta urinishlarga yo'l ochishiga qaratilmog'da. Estetik tanlov ong va tuyg'u nisbati muallif talqinlarini yanada teranrog kashf qilishning muhim omillaridan biri desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Badiiy nasrning modernizm va postmodernizm kabi ifodalash oqimlarida bo'y ko'rsatgan muallif ongida ro'y berayotgan teran o'zgarishlar, mantiqiy bog'lam hosil qilishi bugungi kun talabidan kelib chiqib yondashuv muhim vazifalar sirasiga kiradi. «...adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor – bu, avvalo, xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor

ISBN 978-9943-24-329-3

ekani, buyuk shoirimiz Cho'ipon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutmishga bizning aslo haqqimiz yo'q». ¹ Binobarin, asarlarni yaxlit yozuvchi ilk izlanishlari, talqin qilish usullari, ong va tuyg'u nisbati tarzida o'rganish o'sib kelayotgan yosh avlodni global ogohlilikka chaqirish, tarbiya sifatini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalardan biri ekanligi ayonlashadi. Zero, yangi inson qismini anglash va anglatishda bevosita muallif ongida kechadigan falsafy-estetik g'oyalarning psixologiya, tarix, ma'naviyat bilan bog'liqligi g'oya, fikr, mantiq, tasavvurlar sintezi yuqoridagi mulohazalarimizning dolzarbligini namoyon etadi.

O'ZBEK NASRIDA MUALLIF "MEN" VA ROMAN TAFAKKUR BUTUNLIGI

Hozirgacha ma'lumki, badiiy asar xoh u nasriy, xoh u she'riy, dramatik turga mansub bo'lsin, muallif barcha voqelikni aks ettiruvchi, boshqaruvchi, saralovchi, birtiktiruvchi, o'zgartiruvchi, qolaversa so'zlab, bayon qilib beruvchi bosh qo'mondon vazifasini bajaradi. Xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, yozma adabiyot taraqqiy etgunga qadar, bu jarayon turli davrlarda o'ziga xos tarzda rivojlanib, sayqallanib, taraqqiy topib kelmogda. XX asr insoniyat tarixida misli ko'rilmagan taraqqiyot pallasiga qadam qo'ygan bir davrda "odamzodning iztiroblarini badiiy in'ikos toptirish, ularni tahtlilash" manerasi ham tubdan yangilandi. Mayjud hayot juft-bojlarini, chigal muammolarni hal qilishda mumtoz an'analaridan foydalanib boshqa bir janr – roman, qissa, hikoyalar inja dardlarimizni qalamga olib, tafakkurga boshqacha yondashuv hadya qildi. Bular jadal mutafakkirlarining turli asarlarida aks etishi e'tirof etilgan hodisa.

Hirinch jahon urushidan keyin yanada ommalashtgan roman shakli va tabiati odamzodning yashab qolish umidida olib borgan say-harakatlarini qalamga olishga kirishdilar. Kelajakni oldindan ko'ra bilgan yozuvchilar odamzod manzillaru makonlarda qaerga qarab ketayotganini turli xil asarlarida tasvirlab berishga harakat qildilar. Bu kabi ma'naviy-ruhiy ehtiyoj o'zbek adabiyotini ham chechlab o'tgani yo'q.

Muammoing idiziga nazar tashlaydigan bo'lsak, J.Joy's, F.Kafka, A.Kamyu, T.Vulf, M.Tven, T.Drayzer, U.Folknert, E.Xeminguey kabi jahon so'z san'ati namoyandalari badiiy izlanishlarida badiiy tafakkur va muallif ongi ifodasining monologik, dialogik, polifonik turli shakllarida aks etish jarayonini kuzatish mumkin bo'ladi.

Romanchiligimiz asoschisi A.Qodiriy eng kichik jandagi fikroyadan to romanlarigacha "muallif ongi, badiiy tafakkuri"ni ifodalash shakllarini tubdan o'zgartirishga hissa qo'shdi. A.Qodiriy va Cho'ipon boshlab bergan an'ana keyinchalik, A.Qahhor, Oybek, G.G'ulom, O.Yoqubov, P.Qodirov, T.Qayibergenov, O' Umarbekov, O'.Hoshimov, Sh.Xolmizraev, M.M.Do'st, E.A'zam, X.Davron, N.Eshonqul, L.Bo'trixon, U.Handam, Isajon Sulton

¹ Mirziyoyev Sh. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevori // Xalq so'zi. – Toshkent, 2017. – 4 avgust.

badiiy izlanishlarida turlicha shaklda namoyon bo'lgani aynan haqiqatdir. O'zbek yozuvchilari milliy kolorit, milliy adabiy-badiiy tasvir o'zidan sira uzoqlashmagan holda qaysidir ma'noda, jahon adablati eksperimentlariga ergashgan paytlari ham bo'ldi. Biroq ularning ijodi bir-birini to'ldiruvchi mohiyat kasb etmasdan, o'ziga-xos uslubiy-ijodiy maktabini yaratish bobida tinimsiz izlanishlar olib bordilar.

Zamonaviy o'zbek nasrida muallif ongi va obrazini tipiklashtirish, ularning badiiy asar poetikasidan alohida bir muammo tarzida ajratib o'rganish kam o'rganilgan. Evropa va rus adabiyotshunosligida bu borada ancha tadqiqotlar olib borilgan¹. Demak, muallif ongi badiiy tafakkur shakliga aylangunga qadar bosib o'tilgan ijodiy uslub va mahoratda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, ijodkor badiiy konsepsiyasi ongi va tuyg'u yaxlitligida yuzaga chiqadigan muhim masalalardan biri ekanligi ayonlashadi. Biz badiiy asarni o'qiganimizda muallif-roviy-hikoyachi obrazini emas, undagi voqeikka qiziqish natijasida muallifni yodimizdan ko'taramiz. Aksincha ularning hammasi, bo'lishi mumkin bo'lgan voqeik muallif ongida ilk xamirturush sifatida eitiadi. Prof. H.Umurov: "Yozuvchi har bir qahramonning ovozi, yuz ifodasini, kechinmasini, so'zlash uslubini berish uchun uning xatti-harakatini, iroda yo'nalishini asoslash uchun, albatta, o'sha qahramonlarning qiyofasiga kirishni shart qilib qo'yadi. Busiz yozuvchi, qahramonning o'sha sharoitdagi, ayni shu vaziyatdagi qalb holatining o'ziga xosligini tasvirlay olmaydi. Darvoqe, tasvirlanayotgan shaxs bilan yozuvchining shaxsi o'rtasida o'xshashlik bo'lmasa-da, unda yozuvchi avtobiografiyasining unsurlari ko'rinmasa-da, barbir, o'zining yuzlab qahramonlarining ichki tabiatiga mos o'zak nuqtalarni topib tasvirlash qudratiga ega."

¹ Виноградов В.В. Проблема авторства и теории стилей. М., 1961. С. 34-35; Козьмин В.Ф. Автор и образ повествователя в романах и циклах. Филологический науки. 1977. №4. С. 17; Тимофеев Л. И. Советский литератур. Метод. стиль, поэтика. М. 1964. с 227; Нестеренко А. А. Авторская позиция в повествовательном произведении. АКД. М.1970. с 22; Коженинко В. В. Проблема автора и путь писателя. Конспект. М.1977; Нестеренко А. А. Авторская позиция в повествовательном произведении (на материале творчества Л. Н. Толстого 1850-60-х годов). Авторф.дис. канд.филол.наук. М. 1970.

sanalmaydilar. Shaxsning tarix bilan, jamiyat bilan yuzma-yuz uchrashuvi davr talabi, zamon ruhidir¹. Haqiqatdan ham, bunday tasvir yo'sini U.Hamdanning "Yolg'izlik", I.Sultonning "Munojot" qissalarida o'ziga xos tarzda yangicha tasvir yo'sinlarida "muallif meni"ni qayta idrok etishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. U.Hamdanning "Inson" nomli hikoyasi 1996 yil chiqqan bo'lsa-da, bu hikoyada "muallif ongi" modifikatsiyasi keyinchalik "Yolg'izlik" qissasida keng shaklda qayta idrok qilindi. Bu o'lov hikoyadan – qissaga, qissadan – romanga qadar turlanib, voqelikni ifodalashda ramz, mif, afsona, tush, ong osti qatamlarida qayta talqin qilinib, janriy-kompozitsion yaxlitlik sintezlashuv hodisasiga qadar uzok va zalvorli yo'lni bosib o'tishga sharoit hozirladi.

Sharoit va muhit o'rtasida uzviylik bo'lmasa alaloqibatda insoniyat o'zi yashab turgan jamiyatdan ajralib, "begonalashuv" sari qadam tashlay boshlaydi. Muallif ongidagi o'sish-o'zgarishlar, tushish va yo'qotishlar Freyd ta'бири bilan aytganda qachonlardir sodir bo'lgan xotiradagi – tush voqelikka ro'baro' keladi. Muallif ana shu vaziyatni "tutib qolish instinkti" bilan azoblanib yashaydi. Bunday tasvir U.Hamdanning "Auditoriya" nomli zalvorli hikoyasida ham ko'zga tashlanadi:

– Inson hayotining mazmuni nimada? Biz qaydan keldigu o'limdan keyin qaerga boramiz? – degan savol bashar ahlining doimiy so'roqlaridan biri bo'lib kelgan. Har bir davr, har bir soha – mittan tortib dingacha, dindan to ilmigacha – hamma-hammasining bag'rida fikrlovchi inson ushbu savolga baholi qudrat javob izlagan. – Professor auditoriyaning eng oxiridagi o'rindiqlardan birida ma'ruzani berilib tinglab o'tirgan talabning ko'zlariga qarab gapirardi. – Zamonaviy dunyoda mazkur savolni ahyon-ahyonda bo'lsa-da, o'z-o'ziga bermaydigan, hayotini, kechmish va kechayotgan kunlarini shu savol bilan tinmay qamchilab yashamaydigan, shunga ehtiyoj tuymaydigan odam o'zini to'laqonli insonman, deb hisoblashi o'rinsizdek tuyuladi menga. Chinakam adabiyotning asos masalalaridan biri ham aslida shu. Lekin bugungi inson...².

Fikrlovchi insonga jamiyat bilan murosqa qilib yashash hamma

zamonlarda oson kechmagan. Ulug'bek Hamdam hikoyasidagi qahramon – Professor nutqida, tabiatda, mulohazalari-yu, mulohazalarida ba'zan ikkilanish ro'y bera, ba'zan materiya muhayyatini anglashda zo'rliqshga duch keladi. Inson – koinotning eng og'ir va mukammal yaratig'i. Yozuvchi ana shu yaratilgan bo'tinini kashf qilishga diqqat qaratadi. Muallif ongini bezovtalagan, uning kechmishlarida aks-sado berayotgan o'z-o'zi bilan olishuvi ma'lum ma'noda yolg'izlikka mahkum etilgan qismatni yodimizga soladi. U o'zi yashab turgan jamiyat, undan kattaroq qit'a, materiya, borligini anglashning birdan-bir yo'li o'z tabiatiga mutanosib va munosib yo'l izlashni asosiy maqsadga yo'naltiradi. Hikoyadagi muallif ongi va uning o'z-o'zi bilan olishuv yangi atrof-muhitning yaratilish ma'natig'ini bilishni unchalik xush ko'rmanligida deb, bir to'xtamga kelganligida qabarib ko'rinadi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu kabi hikoyalar o'tgan asarning 60 yillarida ko'plab yaratildi. Masalan, G.G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasida muallif va muhit o'rtasidagi kechin ziddiyatlar bir bechora oila timsolida haqqoniy o'z ifodasini topgan. Bir qarashda mazkur hikoyadagi muallif ongi – xotiraning eng chuqur puchmoqlarida aks-sado bergan "yo'qchilik"ning yuzaga chiqishidagi ijtimoiy-psixologik holat bo'lib yaxlitlashadi. Ayonun ijtimoiy tengsizlik yozuvchi ongida uyg'ongan yoki kurtak yozayotgan borligini anglash va uni modelashirish jarayonidagi psixologik taranglikni ham tadqiq markaziga yo'naltiradi. Bu haqda tadqiqotchi Sh.Botirova quyidagicha qayd etadi: "Badiiy asar real olam, voqelikka nisbatan yozuvchi munosabati hosilasi sifatida yuzaga kelar ekan, unda ob'ektiv borliq sub'ektiv anglash, tasvirlash, tahlil etish orqali namoyon bo'ladi. Yozuvchi asarda xarakter badiiy tadrifini shakllantirsa, ikkinchi tomondan jamiyat hayotining muhim qirralarini tasvirlay boradi, uchinchi inson insonni bukib turgan to'siqlarni ayovsiz taftish etadi". Bu iqtibosda uchta muhim jihat e'tiborga shoyondir: birinchidan, xarakterni shakllantirish, ikkinchidan jamiyat va shaxs ixtilofidagi jarlik, uchinchi insonning xunrezliklarini ko'rinish turgandek obrazli

¹ Jo'rayev T. Ong oqini modern. "Farg'ona" nashriyoti. 2009. –B.162.

² Namdamov U. Auditoriya. Nikoya. Manba: www.ziyouz.com. 2021 yil.

¹ Botirova Sh. Hozirgi o'zbek romanlarida badiiy psixologizm muammolari. Filol fan bo'yicha falsafa dok.(PhD).-Qarshi. 2019. –B.51

bo'rttirish manerasi idroklangan. Ayniqsa, "Yo'lg'izlik" qissasidagi muallif ongi va uning tafakkur tarziga qaratilgan bir qancha tasvirlarda "o'z-o'zingni anglab e't" tamoyili falsafiy-estetik nuqtai nazaridan murakkab tushunchalarni hosil qiladi. "Insonning o'zini qushagan dunyoni tushunib etishi muhim falsafiy muammolardan biridir. Mohiyat e'tibori bilan, dunyoni bilish mumkinmi, degan masala dunyoning inson ongida aniq va to'liq aks etish, insonning bu dunyoda ongli va erkin mo'ljall olish va faoliyat olib borish imkoniyati to'g'risidagi masaladir".¹ Xuddi shu tarzda yozuvchilar ham o'zining yashab turgan muhit va zamoni, jamiyatidan hech ham uzoqlab ketolmaydi. Shuning uchun ham ong va tafakkur yo'sinida yangi ufiqlarni zabt etishga o'zida katta kuch hamda imkon topa oladi. Binobarin, ong oqimi tasviri ichki monolokka nisbatan qat'iy chegaraga ega bo'ladi. U o'zimizni ayni paytdagi tafakkur tarzimizni o'lov mezonlari bilangina baholay oladi. Inson o'zi yashab turgan muhitdan sira uzoq ketolmagani kabi, o'zining bashariyat oldidagi umuminsoniy qarashlaridan ham ayro tushmaydi.

Ma'lumki, "Yozuvchi shaxsining shakllanishi uning o'ziga xosligi tarixiy sharoit va muhitning ta'sirida to'y beradi. Muallifning nuqtai nazari ma'lum ma'noda ijimoiy-tarixiy, siyosiy-dogmatik, diniy-ma'rifiy sohalar bilan bevosita chambarchas bog'liq holda rivojlanadi. Bunday tavsiflash yozuvchi dunyoqarashini germeneytik xarakterda tadqiq qilishni taqozolaydi. Mutanosiblik va mansublik yozuvchini o'zi yashab turgan davrga ixtiyoriy ravishda qaram qilib qo'yishi ong va tuyg'u puchmoqlarida katta yarakanglikni keltirib chiqaradi. G'oya va mantiq chegarasi aynan muallif ongi shuuri, zehniyatida yanada boshqacha bo'yloqlarda yuzaga qalqib chiqib boshlaydi".² Darhaqiqat, mazkur tavsiflash Ulug'bek Hamdam ijodida shaxs-jamiyat-olan uchligida qabarib ko'rinadi. "Yo'lg'izlik"dagi muallifning kundaligini o'qib beruvchi do'st obrazi, "Isyon va itoat"dagi Akbar va Tabib munosabatlari, "Muvozanat"dagi Yusuf, "Sabo va Samandar"dagi Samandar va Sherdil xarakterida muallif ongi va tafakkurining g'ayrisihuriy ravishda o'zgarib borishi, murakkab segmentlarni

yuzaga chiqishida asos bo'ladi.

Poetik ifodada muallif dunyoqarashini rivojlantiruvchi omillarni sharoit, muhit, davr, zamon, makon, bilish, materiya singari qator komponentlar uzviylikda aniqlashirish o'zini oqlaydi. Milliy xarakter o'z-o'zgarishlarida qadriyat sifatida ulug'langan azaliy ogulalar insoniyatni bir-biriga o'tib turuvchi istaklarida yanada ifodaladi. Mohiyatga intilish va mavjudlik jumbug'ini his qilishga qaratilgan muallif dunyosining hilma-xil dialektik qonuniyatlarga ega bo'lishi "men"ning butunligini anglashga yo'l ochadi. Zero, talqin va tasvirdagi yangicha shamoyil ong osti hislarini qayta uyg'onishga asoslan yaratadi. Natijada, muallif va dunyo qorishuvi yagona bir universal tizimda poetik matristani yangilashga keng imkon yaratadi. Bu ong va tafakkur angamlarida shaxsning o'zini-o'zi taftish qila olish imkoniyati ham jiddiy sinovdan o'tkazishga tayyorlaydi.

XX asr o'zbek nasrida kommunistik mafkura odamzodning "ongini yovush" bilan shug'ullandi. Ongimizda azal-azaldan yashab kelayotgan milliy o'zlik "men", qadriyat va e'tiqod tashqariga quvib chiqarilishga urinishi hamda ma'lum ma'noda maqsadga erishdi. Psichommatiklarning aniqlashicha, "kumir", ya'ni ideal deya bilish va intilish, garchi u inson ongli faoliyatining dastlabki bosqichiga asos bo'lsa-da, insonni faollashtiradi, ma'lum maqsadga yo'naltiradi. Shartlarda esa o'z lohiy qudrati, bilimi bilangina emas, yashash tarzi, e'tiqodi bilan ham saboq bo'lgan kishilarni "pir" deb ularga qo'l beriladi. O'z e'tiqodi yo'lida o'linga tik borgan pirlar haqida biz bugun uyg'onish davrida eshityapimiz, o'qiyapimiz, ular erishgan yoki erishishi mumkin bo'lgan faoliyat ko'lamlarini chamalab ko'ryapimiz. Buyuk ajdodlarni mutolaa qilyapimiz. Bo'shliqlar to'lib berilgan bo'lyapti". Ko'rinadiki, N.Eshonqul ichki izitirob bilan o'z yurayotgan masala yillar davomida "soxta metod girdobida" qolib keldi. Bu qafasdan chiqishning birdan-bir yo'li - isitqil edi. XX asr tongida Joysdan keyin maydonga chiqqan har qanday iste'dod qat'ida uning "men"i sezilib turadi ("Ta'kid bizniti - D.Toshpulatova"). F.Kafka va A.Kamyu ijodi o'zbek adabiyotining 90 yillarida katta kelgan vakillariga ta'siri bugun qanday asarlarning dunyoga kelganligini vaqtning o'zi isbotlab turibdi. J.Joysni - *darbadartlik*,

¹ Shetmukamedova N. Gnoseologiya - bilish nazariyasi. -T.: "2008". -B.199.

² Волясова Л., Жиндеева Е. Способы представления авторского сознания как коммуникативная стратегия художественного творчества. - Тамбов: Грамота, 2015. № 8 (50): в 3-х ч. Ч. III. С. 44-46.

¹ Насрид Эшонқул. Мendan "men" gacha. -T.: "Akademshir".

U.Folkneri mutassil – *ozodlik*, F.Katani – *ijtimoiy-siyosiy tuzum aldovlari*, A.Kamyuni – *mantiqsizlik, ijtimoiy tengsizlik* hamisha ta'qib qildi. Va, bu muammo sifatida ongdan – badiiy asarga, tafakkur, falsafaga, mantiqqa ko'chib o'tdi. O'zbek nasri arxetiplardan ma'lum ma'noda oziqlandi. Xalq og'zaki ijodi va mifopoetik tafakkur shaklini ustalik bilan o'zlashtirgan adiblarimiz xilma-xil ifoda uslublarida asarlar yaratdilar.

Ta'kidlash joizki, epik bayon usulida "muallif men"i ustuvor ahamiyat kasb etadi. Vogelik shartli ravishda roviy-hikoyachi boshqaruvida muallif dunyoqarashini tashuvchi asosiy figura evriladi.

MUALLIF ONGI VA DUNYOQARASHI: BADIY MAZMUNNI IFODALASH SHAKLI SIFATIDA

Muallifning har qanday vaziyatda badiiy tafakkurning rivojiga qaratilgan say-harakatlari olam va odamga munosabarda yanada kuchaytiriladi. Avvalo, ijodiy niyatning badiiy takomili vaqt o'tishi bilan o'zib boradi. Inson ongi tahliliga bag'ishlangan asarlar jahon adabiyotida alohida muhokamaga tortilganiga uch asrdan oshdi. Bu jarayon birinchi marta XIX asrdagi kabi keng ko'lamga ega bo'lganida yo'q. Bu adabiy formulani o'zbek nasrida qay darajada aks etishini Ulug'bek Hamdam va Isajon Sulton asarlari asosida aniqlashtirish savollarga javob topishdan iborat ekanligi aytiladi. Taniqli rus olimi V.V.Vinogradov ta'biricha, muallif yaratgan obraz mohiyatida uning mavzuga bo'lgan munosabatida qat'iyat ko'rinadi¹. Adabiyotshunos A.I.Esin bu atamani hiyla kengaytirib "muallif pozitsiyasi", "muallif bahosi", "muallif ideali" atamalar bilan nomlab, har bir asar tahlilida bularni chetlab o'tish ishonchini oqlanishini dalolatlaydi². Ulug'bek Hamdam va Isajonning ong va tuyg'uda aks etayotgan vogelikni qorishiq holda ifodalash munerasi yangilanayotgan badiiy tafakkurda aks etish jarayoni bir-biriga o'xshagan holda tasavvur qilish mumkin. Ulug'bek Hamdam ijodida "muallif ongi", "muallifideali", "muallif dunyoqarashi", "muallif pozitsiyasi", "muallif obrazi"ning turli shakllari hikoyadan – qissaga, qissadan – romanga – romandan essegga qat'iyat o'tib olinishini turadi. Ya'ni "Yolg'izlik" asari haqida so'z ketganda U.Normatov: "Yolg'izlik" U.Hamdanning keyingi asarlarida turli xil jamiy aks etishiga xamirturush vazifasini o'taydi³ degan fikrni mulohazalari bugun o'z isbotini topmoqda. L.S.Vygotskiy, V.Banovskiy, A.Asmolov, P.I.Ivanov, M.E.Zufarova, Umberto Eko, Yun Fatomovskiy, A.Kovalev⁴ kabi olim va faylasuflarning ilmiy-jam'iy, adabiy qarashlarida muallif shaxsi haqida izlanishlar olib borilgan. O'zaro falsafasining mohiyatida ShAXSning rivojlanishi

¹ https://ru.wikipedia.org/wiki/Путешествие_на_Запад.

² Esin A.I. Проники и прыжки анализа литературного произведения: опыт осмысления. – М., 2000. – С. 167.

³ Normatov U. Uod ishti. –T: "Sharq". 2007. –B.235.

⁴ Yun Fatomovskiy qo'yiladi

ko'pincha ijtimoiy muhit bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Sharqda esa ijtimoiy muhit suvrai ShAXS kamolotining asosi emasligi, balki unda bir vaqtning o'zida MA'NAViy komillik ham uyg'un bo'lishini qator mumtoz shoiriarimiz haqoniy ifodalab berganlar. Istiqolol yillarida adabiyotshunoslikda freydzizm ta'sirida inson ongi va shuurida kechayotgan voqelikni – yozuvchi-jodkor ongi va dunyogarashi bilan bog'liq jarayon sifatida talqin qilish amaliyoti kuchaydi¹. Jumladan, Freyd ta'limoti o'zbek nasrida talqin metodologiyasining yangilanishiga zamin yaratdi. Muallif ongi va shuurida kechayotgan "tartibsiz voqelik"ni yaxit kompozitsiyada aks ettirish jarayoni ijodiy konstepsiya bilan bog'liq tarzda "kashf" qilinnmoqda. Mashhur psixonaliz Erix Fromm: "Ong bu – biz tashqi dunyo bilan qilayotgan muomalimiz, harakatlarnimiz bilan bog'liq bo'lgan miyamiz faoliyatidir. Ongosti – tashqi dunyo bilan aloqamiz to'xtaganda "ishlaydigan", o'zimizni anglashga qaratilgan miyamiz faoliyatidir, binobarin, uning xususiyati egallab turgan holatimizga bog'liq². Haqiqatdan ham, Erix Frommning "ong osti" iborasi freydzizm ta'limotining bir shaki xolos. Shaxsining tashqi dunyo bilan ochiq yoki yopiq mulqoti, harakatlarnimiz bilan uzviy bog'liq tarzda kechishi, kunduzgi ko'rgan voqelik real olam – ong ostiga, uyqudagi faoliyatga ta'sir ko'rsatadi. Ichki holatimizning turli ko'rinishlari ong ostida yig'ila boradi. Shaxs bilib-bilmagan holda his, tuyg'u, kechinmani "vaqti kelgan paytda" qog'ozga tushiradiilar.

Ong ostida kechayotgan jarayon faollashuvda moddiy-biologik ehtiyojning o'rni yanada oshib boradi. Inson ong osti istaklari, ehtiyojlari to'yinnagunicha harakadan to'xtamaydi. *Izlanish, o'rganish, anglash, sinetizlash, tasavvur, tafakkur* yuritish natijasida mukammallashtir boradi. Bu esa, o'z navbatida, ijodkorda "yozish maylini kuchayishiga olib keladi" (N.Eshonqul). Ulug'bek

¹ Alimasov V. Falsafa yohud fikrlash san'ati. – Toshkent: Noshir, 2008. – B. 25; Jo'raev T. Ong oqimi modern. – Farg'ona: farg'ona, 2009. – B. 204; Xolbekov M. XX asr modern adabiyoti manzaralari. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2014. – B. 388; Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – B. 546; Jo'raqulov U. Hududsiz jilva. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 204; Qurinov D. Zavqimdan bir shingil. – T: "Akademnashr", 2015. – B. 56. R.Rahmat. Adabiyotdan chiqish. – T: "Akademnashr", 2015. – B. 232.

² Erix Fromm. Inson qalbi. – T: "O'zbekiston", 2016. – B. 63.

Hamdani "Yolg'izlik" qissasida ham do'st, ham qahramon, ham onana, ham mukammallikni sog'ingan komil inson sifatida hayot ibtido-chiklaridan – oliy mezonlagacha tahlil prizmasidan o'tkazadi. O'qovchi qahramonning alg'ov-dalg'ov o'y-kechinmalarini faol qatib qilishi mumkin emas. Negaki, undagi sochilib ketgan ong ostida sochib ko'lishi mumkin bo'lgan turfa voqelik zavq va shavq bermaydi. "Yozuvchiyanning allagayasi orolida yil o'n ikki oy vulqon otilib, er qimirlab turadi, deb eshitganman. Ulug'bek "Yolg'izlik" asarida inson qalbining ana shunday hamishalik bezovta, tahlilali qismini tasvirlashga uringan. U o'z maqsadiga erishish uchun hikoya yo qissa yozishning ma'lum va mashhur an'analarini qurbon qilib yuborgan. Inson qalbi haqida rostgo'ylik bilan gapirishga shu qadar uringanki, hatto yozganlari odadagi badiiy asarga o'xshamay qolgan. Til – insonning og'zidagi ortig'i, deymiz. Til odamga o'z fikrini yashirish uchun ato etilganligini ko'pchiligimiz bilamiz. Men shuni sezdimki, Ulug'bek asari davomida tilning haqiqatni yashira oladigan jihat – mantiqiy parchalashga uringan. Mantiq tamom bo'lgan joydan inson qalbiga ilk qadam tashlaymiz, deydi olmon faylasufi¹. Binobarin, Ulug'bek Hamdan mantiqni parchalab, ong ostida yig'ilgan – istiroh, ayrtiq, fojia, inson mukammalligi, Yaratgani tanishiga qadar bo'lgan turfa-tuman yo'llarni "shakliy tartibsiz" bir yo'sinda tutgan. Mantiq yozuvchi ongi ostida shakllanayotgan katta falsafa, harqotli anglash zinapoyalari, Haq va Boil yo'llarni ajratib turuvchi konstepsiya tarzida namoyon bo'ladi. U Hamdanning "Yolg'izlik" qissasida muallif ongida kurtak yozgan jamiyat tartibotlari bilan sira chiqqan olmagan qahramon o'y-kechinmalarini payqash qiyin emas. Hamonochi, adib inson fojialari qarshisida tomoshaga o'ch olomon kuyfatini ham "qistirib o'tadi". Ayniqsa, uning nazdida olomon tomoshaga o'ch, asl maqsadlarining "nima ekanligini bilishga qaratilgan" guruh vakillaridan yana qanday sinoat kutish mumkin degan falsafiy xulosaga keladi. Jumladan:

"Vujudim jimitlar, borlig'im erir... Men baxli emaman, men baxning o'ziman! Men hech kimga va hech narsaga muhtoj emaman. Chunki men men emas, balki ko'nglim mendir shu asno.

¹ Rahnigun Rahmat. Bir yorug'lik izlaymiz hamon. – T: "Akademnashr", 2017.

Moddiyat tuzoqlarini birma-bir parchalab boraman, boraveraman... Nihoyat, ro'baro'mda bahaybat kenglik paydo bo'ladi. Afsuski, men uning tilini tushunmayman. Uning bo'shliqqa, bo'm-bo'sh dunyoga aylanib qolishidan qo'rqaman. Qo'lingni bersang-chi, Xudo!.."¹

Adib Yaratganga iltijo qilishida odati holatdan boshqa bir insonga aylana boradi. Orif zotlarga dunyo molu havasiga qo'l siltyadi. Uning qahramoni o'ta kuchi va har qanday vaziyatda o'zligidan kechmaydi. Ma'naviy dunyosida ro'y berayotgan o'sish-o'zgarishlar zamirida "men"ga qarata tuzalishga yo'l ko'rsatadi. Jism – uning uchun bir vosita xolos! Asl ma'no va maqsad sari odimlayotgan qahramon ruhiyatidagi o'zgarishlar Biru Bor – Allohga iltijo yangiligi namoyon bo'lishi ayni haqiqatdir. Adibning ushbu qissasining yozilish davriga e'tibor beraylik: yigirma olti yoshlardagi inson fikrlashi, yoshi qirgandan oshgan va hayotning pastu-balandini tatigan, turmush qiyinchiliklarini boshidan o'tkazgan bir musofir, darbadar, darvesh sifatidagi personajni ko'z o'ngimizga keltiramiz. Qahramonning ichki, botiniy ehtiyoji nima? Bu savolga o'z-o'zi bilan tinimsiz kurashuvda, jamiyat "chizib bergan qoidalar"dan yurnashida, bir martalik berilgan umri baxti va saodati kechirishida, nasib qilgan rizqdan to'la-to'kis foydalanishida qabarib ko'rinadi. J.Joy², A.Kamyu, F.Kafka singari adiblar qariyb sakson yil ilgari boshidan kechirgan taqdir sinovlari Ulug'bek Hamdam dunyosida miliy zamin ruhida, rumiyona falsafa negizida qayta qad rostlaydi. Natijada adib qahramoniga haddan ziyod ko'p "yuk yuklaydi".

Yozuvchi birin-ketin e'ton qilgan asarlarini adabiy tanqidchilar, havaskor ilm sohiblari "axloqsizlikda ayblab chiqqanlar"(A.Saidov) ularning bir yoqlama adabiy qarashlari bugungi dunyo etib kelgan manzili anglab bilmaganida bo'lishi ham mumkin. Adib o'zining boy falsafiy-psixologik olamiga olib kirmoqchi bo'lgan voqelik aslida har bir shaxs taqdirida qaysidir ma'noda bo'lib o'tuvchi voqelikning o'zginasidir. Shu ma'noda, Amerika adibi E.Xeminguey haqidagi rus olimi S.Denisova fikrlari maqsadga muvofiqdir: "Agar adib yozayotgan narsalaridan juda yaxshi xabardor bo'lsa, bilganlarining ko'pini matndan tushirib qoldirishi mumkin va u agar haqoniy voqealarni tasvirlayotgan bo'lsa, o'quvchi bu tushirib qoldirilgan

infotillatni yozuvchi qalamga olganligidan ham kuchli his etadi. Asleng muht yurishining ulug'vorligi shundan iboratki, uning faqat tekisidan bir qismi suv yuzasida qad rostlab turadi"³. Binobarin, "Asheberg qoldasi" badiiy ijodning turli janrlarida kuzatiladi. Ulug'bek Hamdam ko'pincha ko'p nuqtalar bilan ish ko'radi. Adibning biron birin hayvon qilib kelayotib, boshqa bir yangi voqelikni hikoya qilishi, qahramon chiqal taqdirining har kuni har xil ravishda sodir bo'ladigan kayfiyatining "markaziy belgisi" deb baholash lozim. Ko'p nuqtalar mohiyatida sizni bizga aytmoqchi bo'lgan "muhim asar"ni anglash murakkablik tug'dirmaydi. S.Denisova ham badiiy ijod murakkabligida ro'y beradigan asl holatni shu yo'sinda baholashi ko'p o't

III. O'stida kechadigan voqelikda ahloq masalasi. San'at asosida aks etgan falsafa, mantiq, psixologiya, odob-axloq tamoyillari mavjudligi o'zi tomonidan qabul qilingan kanonlardan biri deb baholamiz. Chunki san'at asari muallifning ongli hayotidan natijalar o'zlashtirilgan bir parcha xolos. Undagi ruhiyat, obrazlilik, ko'p qatlamlilikni yuzaga keltiruvchi asosiy jihat – vaziyat va sharoit tajribasi mahvati ham deysish o'rinni. Vaziyat – yozuvchi yoki muallif dunyoda o'zgaruvchanligi bilan ajralib turadi. Sharoit – muhit muallifni qabul qilib, shu yo'sinda yashash qonuniyatlarini o'zida ifodalaydi. Vaziyatning matn pozitsiyasida namoyon bo'lishi ko'p hollarda "ongimizda uyg'onnagan borliq"ning in'ikosi o'laroq ta'riflanadi. "San'at asari yana shuning uchun ham murakkab bo'ladi, unda badiiy matning yuza va ichki qavatlaridagi ma'nolar bir-biri nat qilishi, muallif o'ylamagan, istamagan mazmunlar ifodalayotgan ravishda voqecalanishi, buni hatto muallif o'zi hech qachon sezmay-bilmay qolishi ham mumkin. San'at asarini har bir o'quvchi o'zicha qabul qilishi, o'zicha "hukm" chiqarishi, undan o'zicha ta'sirlanishi mumkin"⁴. Darhaqiqat, yozuvchi Ulug'bek Hamdam qahramonining o'y-xayollari, tafakkur tarzi uni va hayotida aks etadigan turfa kechimalarni ilgari suradi. Bir qatlamli, qahramon darvesh, orif, zohid, bir qarasangiz, shoir,

¹ Hamdamov Y. Yog'izlik. –T: "Yangi asr avlodi". 2019. –B. 18.

² Деннистон Т. Смерть "айсберга: О художественной особенности прозы Хемингуэя". Литературная учеба, 1980, № 5.
³ Деннистон Т. Невероятный случай в истории литературы.
⁴ Деннистон Т. Невероятный случай в истории литературы. (PhD). –B: 2020. –B. 17.

yozuvcchi, olim kabi fikrlaydi. Shu tarzda o'z hayotini o'nglamoqchi bo'lgan adib vogelikni qahramonning o'z oqimiga qo'yib beradi. Muhabbat va g'azab, vujud vayronakorligi, ehtiroslar tartibsizligida qahramon chigal savdolarini boshidan o'tkazadi. U o'ta kurashuvchan va jasoratli ShAXSga aylanadi.

Amerika yozuvchisi Uilyam Folknerning "Men o'layotgan vaqt" ("As I Lay Dying" 1930) romanida kuzatilgan monolog tasvir usuli U.Hamdamning "Yolg'izlik" qissasida qahramonni tahlil qilishga imkon tug'diradi. Matndagi aralash-quralash vogelik 3 ta qismda namoyon bo'ladi. Birinchi qism hikoyachi-roviy do'stining uyiga kelishi va, daftarni olishi. Ikkinchi o'sha daftardagi vogelikni o'qib berishi. Uchinchi esa nihoyat daftarni o'qib, o'zining xotimasini keltirishi bilan yakun topadi. Asosiy vogelik ikkinchi qismda ro'y beradi. Monologning har bir lavhasida vogelik ichdan ochila boradi. "Kitobxon bu dunyoni ichdan his qilishi uchun ana shu vogelikka, ong oqimiga sho'ng'ishi lozim" (A.Saidov).

"Badiiy asarni tahlil qilar ekamiz, ishtirok etuvchi personajlar bilan bir qatorda, muallif shaxsining ham ishtirok etayotganligini yo ko'rmaymiz, yoki ko'rib-ko'rmaslikka olamiz. Badiiy asarlarda muallif obrazi hikoya qilish uslubidan tortib, asarning tili va tasviri usullarida, hayotiy material va voqea-hodisalarga munosabatlarda ham aniq namoyon bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, muallif obrazi uning asarda yorqin ifodalangan estetik idroklari, tafakkuri, ma'kurasi, tasvirlanayotgan narsa va illatlaridan tashkil topadi".¹ Haqiqatdan ham, badiiy asar xoh u monologik usulda, xoh dialogik yo'sinda ifodalansin, muallif obrazi vogelikda turli shakllarda namoyon bo'ladi, biroq aynan asardagi obrazni muallifning shaxsiy, intim hayotidan "olingan parcha" deb tushunmaslik kerak. Undagi ruh, kayfiyat, ongli va ongsiz hayot nashidolari muallifning o'zidan ajralib chiqqan ikkinchi bir maydon, hudud, manzildir. Ko'pchilik hollarda muallif roviy-qahramon tushunchasi noto'g'ri qo'llaniladi. Qahramonni o'zidagi bor sifatlardan olib, jamiyatdagi shaxsiy-hayotiy kuzatib, tajribalardan kelib chiqqan holda qaytatipiktashiradi. Butipiktashirish yozuvchining maqsadga qanday yondashuv prinsipidan turib olib borilgan bilan o'lanadi. Ulug'bek Hamdam ongi shuurida aks

etgan "harbiy" hayot materialini qayta ishlashgacha bo'lgan izitirobi va muallifning, azob-uqubati masofani bosib o'tganligini e'tirof etish joiz. Yozuvchidagi keltirilgan parchada: "*Qo'lingni ber, Xudo!*" deb bola qilishi, hayot churxpalagida chirpirak qilib uchirilgan, o'z ongli va ma'naviy turmush muvozanatini saqlash bobida iktitilana-ektitilana o'sib Yaratgandan bo'lak hech kimi qolmagan bir mazlum insonni kuzatish mumkin.

Personajliklar ijodni ongsiz hisslarning ong qatlamiga qalqib chiqishi deb bahol beradilar. Ilhom aql bo'g'ib qo'ygan, aqliy faoliyat tirilishi qo'ygan ong osti hisslarning birdan yuzaga qalqib chiqishidir. Hushuk ijodkorlar ong osti his-kechimmalarining yuzaga qalqib chiqishini oddiy ko'nikmaga aylantirgan, ongli faoliyat va ong osti kechimmalari muvozanatini saqlay olgan kishilardir. Psixanalitika fan inson ichidagi "men"ni izlar ekan, u ruhiy dunyodagi shu ruhiyatga o'sib bo'lgan "mif"larga duch keladi. Bu "mif"lar o'zining inson ruhiy dunyosiga ta'siri jihatidan ilk ajdodlarning miflaridan deyari farq qilmaydi".² Hushuklar, J.Eshonqul ta'biriga shuni qo'shimcha qilish mumkin, hush va xotira, o'timish va bosib o'tilgan hayot manzaralari insonning beohiya keng imkoniyatni tufta qiladi. Bunday kayfiyat ta'sirida ijod – ruhiy sog'ayish, botiniy dardni mustahkam asosga o'rnatilish, undan go'zal bir manzara kashf qilishga etaklaydi. Shuningni A.Rahimov qayd etishicha: "Ong ostida sodir bo'ladigan asar tuyg'u, tasavvurlar inson ruhiyatining so'z bilan hech qachon tutash bo'lmaydigan qirralarini muvozanatdan chiqarib, ommaga yetish qilibga imkon yaratadi. "Ong osti deganimiz insonning inson voqidalari qamrab olgan bir-biriga o'tib turuvchi ongli holatini inson ongsiz holatini ham o'z ichiga oladi. Unda fikr oqimi qandaydir kashf bo'lib ta'sirida paydo bo'luvchi g'ira-shira ko'ngilga kelgan asarlar qiyomatidan o'z-o'zidan uzluksiz quyulib kelaveradi".³ Hamdan kelib chiqadiki, ijodkor har bir tasvirda berayotgan tafsilotni insonning, polifonik yo'sinda ham qahramonlar psixikasidan kelib chiqqan holda uyg'unlashtirishi mumkin. Negaki, ong va inson o'z ichidagi vogelikni ba'zan maromdan o'zgartirib yuborishi, inson o'z ichidagi ifodalardan boshqa bir yo'singa boshlashi mumkinligi

¹ Rahimov A. Roman san'ati. –Farg'ona. 2015. –B. 47.

² Rahimov A. Fikrlar : obraz va talqin. –Qashq. "Nasaf". 1999. –B.146.

³ Rahimov A. Muassifi yunglamayotgan janr. –T. "Turon-igbol". 2011. –B. 132.

ayonlashadi. Polifonizm bir vaqtning o'zida ham shaklga, ham mazmunga, ham ifoda tabiatiga taalluqli unsur bo'lib yuzaga chiqadi. Ulug'bek Hamdam "Yolg'izlik" qissasidagi ruhiy muvozanat sari dadil borayotgan ismsiz qahramon psixikasida ajib o'zgarishlar bilan hayotga boqimandalik kayfiyati bilan kirib kelayotgan olomondan uzoqlashish tadbiri ham alohida ajralib turadi. Uning qahramoni jamiyatga begona ko'z bilan qaramaydi. Nega, nima uchun? Savolli tinimsiz uni ta'qib qilaveradi. Asarda ko'p nuqta ong ostida yashirilib yotgan hayot haqidagi sir-bilimlari o'zi yashab turgan muhitdan ayro emas, aslo! Chunki qahramon voqealikning faol – qo'mondoni! Uning ichki "men"ida vujudga kelgan xayol va hayot falsafasi jamiyat tartibotlarini bir-biriga o'tib turishini tasvirlab boradi.

"Xotinimni quchoqlab yotarkan, bundan ikkalamiz ham huzurlanayotganimizni sezdim va shu lahzadayoq kimdir mendan ko'ksimdan o'tilib, ayrilib chiqdi-da, shugunadan lazzatlanayotgan, shugunadan ortig'iga kuchi emaydigan eru xotinga – butun insoniyatga achindi. Basharning shu ravishda rohatlanishga, umuman, muayyan tarzda yashab o'tishga mahkumligidan ijirg'andi. So'ng yana-da uzoqroq chekildi-da loqayd nazar tashladi..."¹

Qissa qahramoni har bir tasvirda olam va odam muammolarini echishga qiziqsinib yashaydi. Jism lazzatidan baland ko'tarilganda u axloqiy fazilatlarini tartiblashiradi. Hech narsadan qoniqlab tilmagan qahramonning yanada ko'proq ruhiy muvozanatga talpinishi sinalgan haqiqat. Chunki qahramon ayni shu tob'dagi jism va ruh ehtiyojining jirkanch basharasidan o'zini olib qochishga urinadi. U oddiy kayfiyatta o'zini notavon va g'arib, yolg'iz va o'zga his etadi. Faqat ruhoniylar ko'tarilish – avilyolarga xos fazilat ekanligini, Allohga qarata: "*Senni yoki men nohaq?*" deb keskin tragik savollar qo'yishida aniq mantiqni ko'ramiz.

Adabiyotshunos M.Xolbekov ta'kidlashicha: "XX asrning ziddiyati va shafqatsiz dunyosida shaxsning yolg'izligi, o'z insoniy qiyofasini yo'qotishlik mavzusi 30-yillar G'arb adabiyotida peshqadam mavzuga aylandi. Ayniqsa, G'arb adiblarning birinchi jahon urushi va uning ishrokiylari taqdirini tasvirlovchi asarlarida ushbu mavzu o'ta ta'sirchan yangradi, kitobxon yodida qolarli yorqin

ifodalarda tasvirlandi. Jahon adabiyoti tarixida "yo'qotilgan avlod" (lost generation) (G.Stayn) nomini olgan bu avlod namoyandalari – Ernest Hemingvay (William Faulkner, 1897-1962) Ernest Xemingvay (Ernest Hemingway, 1899-1961), Frensis Skott Fitstjerald (Francis Scott Fitzgerald, 1896-1940), Jon Dos Passos (John Dos Passos, 1896-1970), Richard Oldington (Richard Aldington, 1892-1962), Erix Mariya Remark (Erich Maria Remarque, 1898-1970), Anri Barbyus (Henri Barbusse, 1873-1935) va boshqalar G'arb adabiyotining kengligi mavzuga ulkan hissa qo'shilar"¹. Shu ma'noda, o'zbek adabiyotiga kabi kelgan bu kabi ogim namoyondalari asarlarining muhaddislarida san'atning beqiyos roli yoki yangicha ifodada ifodalashni ta'kidlash mumkin. G'arb adabiyotining mazkur namoyondalari asarlarida mavzu ma'noda X.Do'st Muhammad, A.A'zam, N.Eshonqul, I.Hamdam, I.Sulton, Sh.Hamro, T.Rustam, S.Vafo, A.Yo'ldoshev kabi muhaddislar poetik izlanishlarida bo'y ko'rsata boshladi. Natijada jamiyat hayotidagi mavjud tartibotlar parchalangach – istiqbol darajaga kelib, "qora bo'yog'larda zulmarni yoritib chiqayotgan bir qatlam gurek adabiy jamoatchilikda bahs-munozara uyg'onishiga olib kelgan".

Yozuvchi U.Hamdamning "Yolg'izlik" qissasida qahramoni shaxsiyat hayot qo'yida tinimsiz ta'qib qilayotgan axloqiy muammadan sillib chiqish, uning aqlsizligidan emas, aksincha o'zini yolg'izlikda haqiqatni aytib olish uchun kuch topishida ekanligi. Asardagi monologik nutq qahramon tabiatidagi uzil-kesil o'zgarishlarni ko'lagonli namoyon qilib turibdi. Biroq bu o'zgarishlar muayyan tashqi qatnashda sodir bo'ladi. U jamiyatga aralashgan kuni kuni qatnash qilibdi. Demak, asl maqsad qahramonni ikki hayot va o'zgarishlar bog'ida sinovdan o'tkazadi. Qahramon miliy mental muayyanlarni har qancha ixtilashga urimasin, baribir "qachondir shaxsni tuzatish"ga ishora qilinadi. Bu hayot qonunlari bilan tashqi qatnash bog'liq ekanligini taqozolaydi.

Ulug'bek Hamdam qissa poetikasida ong osti kechinmalarida axloq muammasiga oshkor munosabada bo'ladi. U qahramondan qachondir

¹ Hamdamov U. Yolg'izlik. –T: "Yangi asr avlodi", 2019. –B.10.

¹ Muhammadjon Xolbekov. XX asr modern adabiyoti manzaralari. XX asr jahon adabiyoti muammasiga ta'rifli ta'limi Manba www.kh-davron.uz saytidan olingan.

hamma bilishi mumkin bo'lgan haqiqatni yashirmaydi. Tavba tazarru, haqiqat va yolg'on, maddohlik va ko'zbo'yamachilikni aniqlab oladi. Qahramon hayotini tahliliga qo'yib bo'lsa ham bilish zavqidan chekinmaydi. Haq taolo hukmining o'zi yashab turgan jamiyatdagi aks-sadosidan aziyat chekadi. Ya'ni qalban boshqa, zohiran Alloh deya "bong" urayotgan tiyiqsiz va tutiqsiz elita vakillarini ayovsiz tanqid ostiga oladi. Ayni shu o'rta kida muallif pozitsiyasi o'zini yorqin ranglarda namoyon qiladi. Buni quyidagi parchada ham his qilamiz:

"Har kuni ertalab duo qilarkan, halol yashashni Sendan tilagan va pok bo'lishga ahd qilgan kishimanni men yoki kechgacha chiday olmay, o'zining qandaydir "haqiqat"lariga asoslanib, ularni orqaga qilib, haromga qo'l urgan va tuni bilan uxlay olmay o'rta ag'darilib chiqqan munofiqmi men? Men kimman o'zi? Illmiy unvon va mang'ullik da'vosida ich-etini eb tipichilayotgan ko'zbo'yamachini yoki faqat kashf etishu bilish-bildirish ishtiyogida yonayotgan odam-olimmi? Men kimman!? Ko'ksida mingta, millonta jangchi va mingta, millonta jang ketayotir, faqat men qaydaman va kim tomondaman? Men o'zinni yo'qotib qo'ydim, ey Parvardigor! Men turmushing arzimas yumushlari orasida qolib xor bo'ldim, men ulardan to'ydim. Men bandalik botqog'idan chiqib ketolmayotgan o'zimdandim. Men tinimsiz ravishda majburiyatlarni, zaruratlarni bajarishdan sigildim. Nihoyat, menga chumoli kabi bitta-ikkita izdan yura yura o'lib ketish alam qiladi. Nihoyat, men bilgan bu olam Sening butun qudrating hosilasi emas! Men Sening qudratingni ko'rmoq va ko'rmoqga kifoya salohiyat istayman, ey Parvardigor!"

Yozuvchi tasvirlarida qahramon ongi va dunyogarashida aks etayotgan voqealik asta-sekinlik bilan syujet liniyalarida uyg'unlashib boradi. Bu muttasil davom etadigan kechinma, tuyg'u yoki bittiriga monand tasavvur, tafakkur yo'sinlari qahramon BOTINIY olamida inqilob yasaydi. U Allohga muttasil ohu nola qiluvchi dardini bo'lishuvchi, ba'zan munozaralarida qoniqmasligi, OLIV NIZOMning moddiy dunyoda buzilishi, ma'naviy olamda arosada qolishida qayg'u uradi. Bot-bot qahramon Allohning jamoatni ko'rishga e'tiyoz sezsa, moddiy muvozanat sari odimlagan lahzalarida

¹ Ko'rsatilgan adabiyot -1, -B. 12.

hushyor qatort yashab o'tish ham kerakligini o'z-o'zicha ma'qullab beradi. Bu instinkti ma'lum vaqt yashaydi. Qahramon oqibatda yana o'zining tabiatida yolg'iz qolishga muvaffaq bo'ladi. Gegel o'zining "Faqatlik" asarida yozganidek: "Badiiy asardagi hissiylik bevosita tabiiy predmetlardan farq qilib, mushohada yo'li bilan sof hissiyat bo'lib qoladi, shuning uchun badiiy asar bevosita hissiylik bilan idealizatsiya iborat bo'lgan fikrning oralig'ida turadi. U sof hissiyat bo'lmaydi, o'zining hissiy holatiga zid o'laroq endi quruq moddiy harq sifatida tosh, o'simlik va jonli organizmlar singari bo'lgan bo'lmaydi. Badiiy asardagi hissiylik mohiyatan idealizatsiya bo'lgan bo'lsa-da, biroq bu idealizatsiya, ilmiy fikrdan farq qilib turuvchi narsalar shaklida ham gavdalaniishi mumkin". Shunday qilib, U Hamdanning "Yolg'izlik" qissasidagi badiiylik moddiy harq shakllarda ro'y bergan voqealik xronologiyasidan iborat. Unga va tuyg'uda zohir bo'ladigan o'sish-o'zgarishlar yozuvchining fikr-purushida azal-azaldan yashab kelayotgan hissiy kechinmalar bo'lib turadi. Qahramon dunyoga bir so'z aytilish uchun kelgandek: "Adolat qoni?" deyishida qabarib ko'rinadi. U adolatni hatto intaridan ham izlaydi. Tunda oy, yulduz, osmon va qorong'ulik hamonilik qila, kunduzlari salqin shabadalar va yomg'irli sahralar bo'lib turadi. Adib tabiat va jamiyat, inson munosabatlarida barq urgan hayotning o'zgarib borayotgan asl qiyofasini o'quvchiga namoyish etib bo'ladi. Natijada, o'quvchi ayni "chigal yuk"dan hamon hamon anglay olmaydilar. Ayni shu jarayonda haqiqiy insoniyatni ko'rsatib o'z ruhini namoyish qiladi. Yozuvchi inson tabiatida kechuvi psixologik jarayonlarni, o'y-xayollarida tuyqus harq bo'lgan asosiyliklar bilan betartib almashinib turishini o'z nazoratiga oladi. Qahramon ma'naviy intellekti namoyishi qissa asaridagi o'ziga xos mavqeni kasb etadi. Demak, qissadagi harq harq olam bilan bog'lanib, sira chiqisha olmayotgan odam harq bevosita turiblashirib boradigan modustlardan iboratligi namoyish etiladi.

Unga asarda kechuvi axloq masalasi yozuvchining adabiy-estetik qarashlarining yuksalib borayotganini taqozo etadi. "Yolg'izlik" qissasidagi qahramon tuyg'ulari samimiyati asl inson

mayllarining iziroblar qurslovda ulg'ayganligini, bu jarayon "vaqincha" bo'lib o'tadigan holat ekanligini yuzaga chiqaradi. Qahramon oyog'ini jamiyatan tortib olmoqchi bo'lgan asl qiyofaga kirganida, o'z-o'zidan tabiatan shu zaminaga bog'lanib qolganligi an'an bermaydi. U tarkidunyolik qilib umr kechirmoqlikning uddasidan chiqolmaydi. Negaki, oila va farzand taqdiri, tirikchiligi moddiy dunyodan tamomila uzib qo'yolmaydi. Ayni paytda, kundalikda bitilgan kechinmalar har bir inson bosib o'tishi lozim bo'lgan hayot sahifasining bir ko'rinishi yanglig' tushunish muhim.

Mashhur psixanaliz Karl Gustav Yung shaxs botini bi-birini to'ldirib turuvchi *uch qatlamlardan* iborat ekanligini ta'kidlaydi¹.

1. *Idrok;*

2. *Shaxsiy ong osti qatlami;*

3. *Ommaviy ong osti.*

Bugungi kunda yozuvchi U.Handamning "Yolg'izlik" qissasida *Idrokdan* farqli o'laroq, "Muvozanat", "Isyon va itoat", "Sabo va Samandar" kabi romanlarida ishtirok etuvchi qahramonlar *uchinchi qatlami* – ommaviy ong osti kechinmalariga o'zini topshirganligini namoyon qiladi. "Muvozanat"da – Mirazim. Said, "Isyon va itoat"da Diana, Larisa xola, Tursunboy jontalash, "Sabo va Samandar"da Sherdil, Saidkomil, Bakir kabi obrazlar misol bo'ladi. "Inson idroki zaiflashgan, sustlashgan, charchagan yoki boshqarishga qurbi etmay qolgan paytlarda o'zini turli ko'rinishlarda namoyon qiladi" (N. Eshonqul).

Umuman, Ulug'bek Hamdam va Isajon Sulton nasrida ikki xil ifoda usulini ko'rishimiz mumkin. Buni keyingi boblarda alohida-alohida tadqiq qilamiz. Zero, ong va tuyg'u nisbati ijodkor fenomenning bir ko'rinishi. Unda jamuljam barcha tasvir yo'sinlari ham shaklda ham mazmunda, ham muallif dunyog'arashida akslanadi. Shubhasiz, talqin va tasvir qorishuvi inson ehtiyojlarining bir uzvini to'ldirishga xizmat qilishi ayondir.

HAQIQIY "MEN" BADIY ASARNING ASOSIY UNSURI SIFATIDA

Badiiy asarning o'ziga xosligini ta'minlovchi kompozitsiya asar muhommadini tashkil etish bilan bir qatorda muallif dunyog'arashini ham namoyon qiluvchi kategoriyalardan biri hisoblanadi. Muallif asarida "men" tushunchasi bir-biridan tamomila farq qiladi. Negaki, men shakllandi, to'lanmayon bo'lgunga qadar muallif voqelikni o'z bezovdasi, ongida qayta-qayta ishlaydi, idroklaydi. Bu o'z-o'zidan kechadigan jarayon emas. Benihoya murakkab va ziddiyatli voqelik asarida olamga va odamga munosabat tarzi ham boshqachalab bo'ladi. Badiiy men – tanqidiy yondashuvni taqozo etadi. Shunday qilib, F. Fodorov va F. Dostoevskiy badiiy izlanishlarida romanij shaklida asarning i'tihoyatida rang-barang va ko'p qatlamli edi. XX asr boshlarida I. Joyce, A. Kamyu, M. Prust, F. Kafka badiiy yutug'i sifatida shaxsning erkin va ozod yashash huquqidan mahrum etilganidan kechi yuzaga kelgan jamiyatning asl basharasi, qiyofasini ko'rib tashladi. "Ullas sug'uzashlari", "Begona", "Jarayon", "Evrilish", "Yahol", "Yo'qolg'igan vaqt" kabi qator asarlarda XX asrning haqiqiy muallifi yashashga ko'nikayozgan va shu oraliqda "men" bilan shaxsni o'zaro bog'laydigan manzarasining guvohi bo'ldi.

Badiiy muallifning nechog'li muhim ekanligini yuqorida nomlari berilgan yozuvchilar asarlari timsolida ko'rish mumkin. Birinchi bo'lib yozuvchilar o'zlarini yashab turgan jamiyatning tutimlaridan ajratib olib yuradilar. Bu mifologik talqin shaxsni har tomonlama izdan talqin va talqin qilish imkonini beradi. Nur va zulmat aro maqsad va maqsadlar kechayotgan olomon taqdiri o'sha yozuvchilarga sira ta'kidlanib beriladi. "Men" asta-sekinlik bilan shaxs maqomini olib o'z ifodasidagi ko'cha boshlaydi.

Kayser va hayot haqidagi tasavvurlar inson botinida ziddiyatga aylanib boradi. Mazkur jarayonda adibning badiiy konsepsiyasi shakllanadi. Inqilob Sulton asarlarida ko'zga tashlangan voqelikni yuzaga chiqaruvchi omillar Ulug'bek Hamdam talqinlaridan tamomila boshqacha tarzda ro'y beradi. Har ikkala yozuvchidagi muallif "men"ni qiyosan o'rganib ko'ramiz.

Ulug'bek Hamdam yaratgan asarlarda ishtirok etuvchi qahramonlar ko'pincha baxtsizlik va omadsizlikdan – baxt manzillari

¹ Nazar Eshonqul. Ijod falsafasi. – T.: "Akademnashr", 2018. – B. 50.

tomon harakat qiladilar. Biroq jamiyat hayotining ba'zi tutilma-
chidam berolmay, oxir-oqibatda fojega yuzlanadilar. Ayni
hikoyalarda ramz va falsafy-estetik qamrovni hisobga olmaganda,
hikoya qahramonlari ham tushkun, alanzada, baxtsiz, omadsiz,
sodda, ishonuvchan obraz sifatida namoyon bo'ladi.

Isajon Sulton hikoyalarda oddiy mehnatkash qishloq odamlarining
oddiy kundalik yumushlardan boshi chiqmagan, bir umr bola-chuqan
deb o'tib ketayotgan obrazlarga yuzma-yuz kelamiz. Adib badiiy
izlanishlarida mifologik obrazlarni qadim afsona va rivojlanish
ko'zga tashlanuvchi asarlarni qayta ishlaganligini his qilamiz.

Mashhur psixanalitik Erix Fromm XX asr insoniyat taqdiri
muhim va hal qiluvchi misli ko'rilmagan kashfiyotlarni boshidan
o'tkazayotgani haqida quyidagi fikrlarni yozadi: "Aqlli inson
hayratlanish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Agar shu gap rost
bo'lsa, hozirgi zamon odamining aqliy holatiga achinsa bo'ladi.
Yuksak darajada ma'lumoti va bilimli bo'lishimizga qaramasdan,
Xudo bergan bu ne'mati – hayratlanish qobiliyatini yo'qotib
qo'ydik. Go'yo hamma narsa ma'lum, biz bilmagan narsalarni esa
ayrim mutaxassislar bilishi shart. Haqiqatdan ham hayratlanish
noqulaylik tug'diradi. Atrofdagilar bunday odamni aql-idroki past
deb o'ylaydilar. Hatto bolalar ham kamroq hayratga tushishadi.
Hech bo'lmaganda, buni namoyish qilgisi kelmaydi, vaqt o'tgani
sari esa bunday qobiliyat yo'qola boradi". Binobarin, beqahq
katta aql egalari ham hayotdan hech qachon ko'ngli to'lgan emasa,
Sababi his va hayrat, aql birlashishida insonning ma'nan qobiliyati,
yaratuvcchanligi, barcha qusurlari bilan ijobiy xislatlari ham yuzaga
chiqadi. Ijodkorlar ana shu nuqtani tahlil va tadqiq qilishga ko'p vaqt
sarflaydilar. Bu nuqtada – odamzodning maqsad muddaosi, yashash
va ko'nikish tarzi, yovuzliklari, zo'ravonliklari, xunrezliklari bilan
birga barcha yaxshi va yomon fazilatlarini mujassam bo'ladi. Isajon
Sulton ana shu manzarani obrazli tarzda, universal ramzlar mehzabida
"qayta kashf" qilishga harakat qiladi. Xoh bu ramziy, an'anaviy
modrenistik shaklda namoyon bo'lishidan qat'iy nazar oltin o'rnatilgan
tutib qolishga ko'p vaqt ajratadi.

XX asr insoniyat etib kelgan manzilu makonlarda kechuvchi

¹ Erix Fromm. Inson qalbi. –T: "O'zbekiston". 2016. –b.38.

vaqt yashovchini doimo qalb qo'rini jumbushga keltirib, odamzod
tabiatini tutib yakkalash qolishni istagan qahramon tabiatini o'ziga
qayta qayta o'zlashtirib, ramz va falsafy-estetik qamrovni hisobga
olmaganda, hikoya qahramonlari ham tushkun, alanzada, baxtsiz,
sodda, ishonuvchan obraz sifatida namoyon bo'ladi.

Isajon Sulton hikoyalarda oddiy mehnatkash qishloq odamlarining
oddiy kundalik yumushlardan boshi chiqmagan, bir umr bola-chuqan
deb o'tib ketayotgan obrazlarga yuzma-yuz kelamiz. Adib badiiy
izlanishlarida mifologik obrazlarni qadim afsona va rivojlanish
ko'zga tashlanuvchi asarlarni qayta ishlaganligini his qilamiz.

¹ Erix Fromm. Inson qalbi. –T: "O'zbekiston". 2016. –b.38.

Isajon Sultonni ko'proq hikoyanavis sifatida qabul qiluvchilar ham adabiyotshunoslikda ko'plab uchraydi. Biroq hikoya va qissa roman yaratishdagi ijodiy mahorati ma'lum darajada bir-birlan farqlanadi. Uslubiy jihatdan o'xshashi, voqelikni ichdan turib, odobiy detal tarzida yoritishi bu har bir ijodkorda turlichadir. Munaqqid I.G'afurov shunday ta'riflashi bejiz emas: "Isajon Sulton bu — qizil ekzisistensializm!... Ekzisistensializm yo'llari va falsafalariga shaydo bo'lgan Isajon Sultonning yuragi va ong tasavvuri shunday larzali kechimmalardan dunyo va tabiatning kelib chiqishiga nazor tashlamog'chi bo'ladi. Har narsaning ibtido manshalariga qarashga urinadi".¹ Bu ta'rif-tasrif Isajon Sultonning g'arb adabiy-badiiy tafakkurini o'zlashtirishi, milliy mental xususiyatlarimizdan kelib chiqib ifodalashi, yangichayo'shinda fikrlashi, uslubi, o'quvchiliklari va mayda detalgacha qiziqitira olish qobiliyatining o'sayotgani bilan izohlaydi. J.P.Sart, F.Kafka, A.Kamyu, J.Joyz singari yozuvchilarni ekzisistensializm yo'nalishida odamzod tafakkurining benihoya katta, undan misli ko'rilmagan kashfiyotlar olib, dunyoni o'zgartirishga, be'manlik va buzg'unchilikka quril sifatlarda foydalanishga bog'lagan yashirin kuchlarni "tanishtirish"ga fidokorlik ko'rsatganini bugun hamma psixanalitiklar e'tirof etishmoqda.

Isajon Sulton badiiy asarni (hikoya) yozishda ekspozitsiya (tayyorgarlik) tarzida ish ko'rmaydi. "O'rmondagi kulba", "Yog'och kavush", "TODD", "Bog'i Eram", "Avliyo", "Qismat", "Suvdagi kosa" kabi hikoyalarda qaysidir ma'noda g'arbu shunq an'analari badiiy ifodasi sintezi o'z aksini topgan. "TODD" hikoyasi ifoda tarziga ko'ra G'.G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasiga juda o'xshab ketadi. "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasidagi voqelik bola tilidan hikoya qilinsa va u ikkinchi jahon urushi yillaridan keyin jamiyat boshiga tushgan og'ir shovhlar yo'qchilik qalamga olinsa, I.Sultonning "TODD" hikoyasida ana shu urush yillaridagi zobining beshafqatligi, Mamasiddiq pishiq qismatining ayanchli va ibratli hayoti ko'z o'ngimizda zohir bo'ladi. Hikoyadagi obraz — Mamasiddiq pishiq va hikoyachi-qahramon muallifi Hikoyadagi asosiy motiv — hayotda yashash uchun kurashish.

¹ G'afurov I. Yozuvchi, tabiat va tibbiyot/Isajon Sulton nasri badiiyoti. — T.: Turon zamin ziyoti. 2017/ -B. 19.

bu fikr qanday vaziyatda "o'ziga yo'l topishga" intilishdir. Isajon Sulton hikoyasidagi "TODD"ning taqdiri zulm va zo'ravonlikni ko'zga tashlagan va jahonga yoyimog'chi bo'lgan fashizm istilosining natijasi bo'lgan va imoratlariga yuz tutish omillari, "*kecha-bugun-ertaga*" tarzida namoyon bo'ladi. Nemis adibi Tomas Mannning quyidagi fikrlari e'tiborga loyiq: "Yozuvchi bu — timsoldir. Men o'zimni tabiiy qancha ingil bo'lsam boshli davrim, bani bashar haqida etarli va katta qancha ma'lum berolishim mumkinligini anglab etdim. Zero, bani jahonda ko'ra barcha timsollar yozuvchining o'zida yashirgan".¹ Demak, hikoyada Mamasiddiq pishiqning bolaligi va butun hayoti timsol sifatida muhaqqatli hayotining sinovlarini engib o'tishga intilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Hikoya ekspozitsiyasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, syujet vaqtini timsol "*Kecha-bugun-ertaga*", bundan ikki yil burunmida, falsafaga qiziqqan bo'lgan odam "*Kecha-bugun-ertaga*" bilan boshlaydi. Demak, "burunmida" bo'lganda makon balki ikki emas, uch yoki besh yil ilgari sodir bo'lgan ham mumkin. Ekspozitsiya yakunida vaqt naq "etti yil ilgari" bo'lgan bir voqea xayolimga urildi ("Tanlangan asarlar, I-jild, 1997 yil).² Bu jihatda yamada oydinlashadi. Darvoqe, makon vaqt bilan bog'liq voqelik muayyan tafovut bo'ladi. Yozuvchi hissiyot va zavq ifodalashda bu kabi yo'l tutishida qandaydir hikmat yashirin. Mana bu hikmat hikoyaning yamada qiziqish bilan mutolaa qilishga yo'l ko'rsatadi. Hikoyani uch yo'linda tartiblashira olgan:

1. Hikoyaning nima uchun "TODD" so'ziga qiziqishi, falsafani qandayga solib bo'ladi. So'ngra syujet voqeligi Mamasiddiq pishiq hayoti bilan bog'lanib ketadi. Har ikki voqelik — ikkinchi jahon urushi yillariga to'g'ri keladi.

2. Hikoyada qahramon va muallif "men"i ustuvorligi, o'zbek xalqining chaqqon, mehnatkashligi, ming izitirob bilan bo'lsa ham o'zining muhaqqatligi, mehnat-qilbat hamisha birinchi o'rinda ekanligiga e'tibor beriladi.

3. Isajon Sulton "*hikoya ichida hikoya*" qilish usulidan ham foydalanadi. Yo'ni hikoyachi-muallif tuzumning XX asr asarlarida ma'naviyat ko'rilmagan qiyonoqlarning qo'llanilishi qanday qanday turgan azob-uqubatlarining hanzgacha asoratidan

¹ Tomas Mannning fikrlari "men" gacha. — T.: "Akademik", 2014. -B.263.

chiqolmay kelayotganini ro'y-rost tahlil qiladi.

Badiiy asarda zamon va makonda ro'y beradigan voqelik bir so'z bilan – xronotop deb yuritiladi¹. Badiiy xronotop qat'iy jantiy muhiyatga ega. Aytish mumkinki, janr va janrga xos xususiyatlar aynan xronotop vositasida yuzaga chiqadi. Shuningdek, badiiy xronotopning etakchi xususiyati zamonada ko'rinadi. Xronotop shakli-mazmuni kategoriya sifatida adabiyotda inson obrazi mohiyatini ham belgilaydi. Chunki badiiy obraz doimo xronotop negizida ma'no kash etadi (U. Jo'raqulov). Ayniqsa, hikoyada qahramonlar tayyor holida ya'ni voqelikni bayon qilish jarayonida xarakter qirralari ochib boradi. U ishtirok etish jarayonida xatti-harakatlari bois, yo bitor his maqsadni amalga oshiradi, yoki epizodik obraz bo'lib, ma'lum vaqt asarda ko'rinish beradi. Mana shu jihatlari zamon va makonda ro'y bergani bois, ijodkor dunyoqarashida avvaldan shakllangan ifoyani bajaradilar xolos.

Hikoyada obrazlar tavsifi

Isajon Sulton har bir hikoyasida – xabar, axborot va maqsad birligida ish ko'radi. Shu bois, hikoyachi va hikoya qahramoni bir biriga yaqin, sirdosh, qarindosh yoki aka-uka bo'lgandek taassurot uyg'otadi o'quvchida:

“Bolalik chog'larimizda Mamasidiq pishiq degan bir chol bo'lardi U qotmagina, jikkak, iyagida chandig'i bor odam edi. Kechalari bekinnachiq o'ynaganimizda uning allaqanaga yumushlar bilan kuymanib yurganini ko'rar edik: yo makkapoyalarni bog' bog' qilib bog'lagan, yo zambilig' altakda uyiga un tashigan, yo ko'chadagi xazonlarni to'plab qoplayotgan bo'lib chiqar edi. Men uning dam olib o'tirganini yoki choyxonada oshxo'rlik qilganini hech ko'rimganmikan. Xayolimda-da u indamas, tinim bilmas bir kishi sifatida qolgan.

Pishiqning bolalari ham o'ziga o'xshagan pishiqqina, tinim bilishmas edi. Bug'doy o'rinsa, kechalari dalaga chiqib sonni to'plashardi-da, ertasiiga bozorga opchiqib sotar edilar. O'tin sotadilar. Undan bo'shagan qoplamni sotardilar... Odamlar “Mamasidiq pishiq juda boy, kechalari uxlamasligi ham rost gap: Yiqiqan pullarni sandig'idan olib, mog'or bosib ketmasligi uchun shabadaga yoyib

chikardib”, deb gapirib yurishardi”².

“Mamasidiq” nomli hikoyasidagi konfliktning boshlanishi Mamasidiq pishiqning qanday inson ekanligini tushuntirishga qaratiladi. Bu o'rinda ham bosh qahramon xarakteri, ham hikoyachi-roviy xarakterining maqsad muaddosi inkishof qilinadi. Hikoyachi-roviy xarakter boshlanishidan buyon tanigan Mamasidiqning mehnatkashligini, xarakterining o'zgarib ketishini, pishiqning so'zlab berish bilan bir vaqtda o'zining ham qiziqishlarini mantiqiy urg'ulab boradi. Shu vaqtda badiiy xronotop va obrazlar o'zaro muvofiqlashib, yaxlitlik kasb etadi. Bu o'rinda hech qanday ortiqcha ta'rif tavsif yo'q. Negaki, hikoyachi-roviy barcha voqelikning ishtirokchisi, yo'lboshchisi, shu bilan bir vaqtda o'zini e'lon qilaydi.

“Mamasidiq” nomli hikoyasidagi konfliktning boshlanishi Mamasidiq pishiqning qanday inson ekanligini tushuntirishga qaratiladi. Bu o'rinda ham bosh qahramon xarakteri, ham hikoyachi-roviy xarakterining maqsad muaddosi inkishof qilinadi. Hikoyachi-roviy xarakter boshlanishidan buyon tanigan Mamasidiqning mehnatkashligini, xarakterining o'zgarib ketishini, pishiqning so'zlab berish bilan bir vaqtda o'zining ham qiziqishlarini mantiqiy urg'ulab boradi. Shu vaqtda badiiy xronotop va obrazlar o'zaro muvofiqlashib, yaxlitlik kasb etadi. Bu o'rinda hech qanday ortiqcha ta'rif tavsif yo'q. Negaki, hikoyachi-roviy barcha voqelikning ishtirokchisi, yo'lboshchisi, shu bilan bir vaqtda o'zini e'lon qilaydi.

“Mamasidiq” nomli hikoyasidagi konfliktning boshlanishi Mamasidiq pishiqning qanday inson ekanligini tushuntirishga qaratiladi. Bu o'rinda ham bosh qahramon xarakteri, ham hikoyachi-roviy xarakterining maqsad muaddosi inkishof qilinadi. Hikoyachi-roviy xarakter boshlanishidan buyon tanigan Mamasidiqning mehnatkashligini, xarakterining o'zgarib ketishini, pishiqning so'zlab berish bilan bir vaqtda o'zining ham qiziqishlarini mantiqiy urg'ulab boradi. Shu vaqtda badiiy xronotop va obrazlar o'zaro muvofiqlashib, yaxlitlik kasb etadi. Bu o'rinda hech qanday ortiqcha ta'rif tavsif yo'q. Negaki, hikoyachi-roviy barcha voqelikning ishtirokchisi, yo'lboshchisi, shu bilan bir vaqtda o'zini e'lon qilaydi.

¹ Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. –T.: “Akademnasar”, 2011.

–B.43.

² Isajon Sulton. Tashvishlar, 1-jild. –T.: “G’ulom nomidagi adabiyot va san’at markazi”, 2017. –B.64-65.

³ Isajon Sulton. Tashvishlar, 1-jild. –T.: “O’zbekiston”, 2001. –B.89.

sig'adigan voqealar oqimi uzilib, **mutlaq tasodif** deb atalgan muam-mo mantiq asosida harakat qiluvchi zamonga o'rinni bo'shatib beradi. Adib hikoyalarda hikoyachi-roviy o'spirin bola bo'lib, salmatta ko'rinish bersa, ikki-uch lavhadan keyin uning qirq yoshlarga to'lgan hayot haqidagi mulohazalari tiniqlashgan ravishda paydo bo'ladi. Bu adibning o'ziga xos uslubiy xususiyatini keltirib chiqaradi:

"Qishloq chetidan uyga qaytayotgan edim. So'qmoqdan yul-pastikka tushdimu atrofini jingullarning qalin devori o'ragan, qo'ri-bujur tol barglari shitirlab turgan Oydinbulog yonidan o'tdim.

Bu bulog bolaligimdan beri bor. Suvi kumushday. Miltillab oqib-yotadi. Bolalik chog'larimda issiq nomi shu bulog suviga botib o't-olim. Bu bujur tol u mahallar juda ulkan edi. Shoxlarida dunyoning jami qushlari chug'urlab yotishar edi. Qirg'og'ida olamda yo'q may-salar o'sar, ular taratgan bo'y ham jannat bo'yi monand edi.

Bugun shu bulog yonidan hech o'tib keta olmadim. Bir nima o'sha tomonga tortaverdi. Butalar oralab o'tib, bulog yoniga keldim.

O'sha o'sha bujur tol. Shoxcharida hanuz qushlar chug'urlashyapti.

Oydinbulog hanuz miltiraydi"².

Ushbu hikoyadagi bosh qahramon o'z bolaligini tahlil qilishda boshlaydi. Qishloqdagi beg'am bolaligi, ulg'aygach uning tasavvurlari aql-zakovatining teranlashuvi, betimsol ma'shugasi Parvona uchraishi, keyinchalik xotiralarda qad rostlagan solihjamohir aksisi namoyon bo'lish holatlari mahorat bilan ifodalangan. Har ikkala hikoyada bir makonda ro'y bergan – voqelik tasviri turadi. Qishloq va shahar xronotopi ana shu zaylda hikoyaning syujet va kompozitsion pishiq chiqishida muhim kategoriya vazifasini bajaradi.

Zamon talqinida obraz modifikatsiyasi

Isajon Sulton hikoyalarda modifikatsiya hodisasi bir davrda ikkinchi bir davr oralig'ida bo'lib o'tgan yoki bo'lishi mumkin bo'lgan voqelikni muvofiqlashtirishga qaratiladi. Darvoqe, "Zamonaviy ada-biyotda badiiy komponentlarning modifikatsiyaga uchrashi bevosita qandaydir badiiy an'analar bilan bog'liq. Zamonaviy estetik talab-

lar, shuningdek, mutallif laboratoriyasi, g'oyaviy maqsadiga ko'ra kompozitsiya almashil komponentlar kesimida namoyon bo'lishi bo'lsa, jansur ko'lamdor tarzda yuzaga chiqishi, bir emas, bir necha badiiy komponentlar doirasida yuz berishi, natijada modifikatsiyasiz ko'lamdor hodisalar maydonga chiqishi shu fikrga, mutallif ijodiy jarayon vaziyatidan kelib chiqqan fikrga asoslanib Zamonada obrazlar xilma-xil tarzda namoyon bo'ladi.

Hikoyalarda **ayollar obrazi** – mehnatkash, sabr-toqatli, qat'iyatli, farzandlarga mehribon, oqila, iboli, har qanday azob-og'riqqa duch kera oladigan siymo sifatida kitobxonda qiziqish uyg'otadi. **Yigitlar obrazi** – mard, eran, jasur, qo'rqmas, kuchli, qat'iyatli, mehnatkash bir alp qonot sifatida yuzaga chiqadi. Zamonaviy zamonada sodir bo'layotgan voqelikni baholashga harakat qilib, "etti o'lchab bir kesadigan" mustaqil fikrga ega bo'lgan ko'p o'qimiyatni bajarishga kirishadilar.

Hikoyalarda voqelikni ifodalashda shunchaki gapirib, shu fikrni emas, o'quvchini noma'lum bo'lgan "nimagadir" tarzida shu orqali ma'naviy dunyosiga "nimadir" yuqtirish ham muqaddimadan beri sanaladi. Zamonada ro'y berayotgan voqelik o'z o'ziga, murakkablashib katta bir makomni vujudga keltiradi. Ayni vaqtning o'zida o'sish, o'zgarish, ulg'ayish, tushunish, o'z o'ziga, ko'nikish kabi munosabatlar tig'izilgi qahramon o'zining kengayishiga, mulohazalarining salmog'i oshishiga olib keladi. "Ob'ekt" nomi hikoyasida yozuvchi o'z-o'zi bilan qat'iyatli o'z-o'zini taltish va tahlil qiladi. Xatolar, ayrtiqlar, xatolarining hech qanday manfaat keltirmasligiga, faqatgina muvaffaqiyatli ikoniyasida siqlashiga olib kelishiga ishora qiladi. Zamonaviy zamon obrazi modifikatsiyasi muqaddimasiga olib keladi.

Ushbu fikrni tenglash edik, do'st.

Ushbu fikrni tenglash edik-da. Oyog'imiz ostida quyun o'rala-riqda chiqib o'tib ketardik. To'kilgan o'rik gullari gullayotgan paydo bo'lgan shiddatlarda erdan ko'tarilib, uchib-

¹ Baxtin M.M. Romanda zamon va xronotop shakllari. –T: "Akademik", 2015. –B.53.

² Ko'rsatilgan adabiyot, –B.58.

¹ Isajon Sulton romanlarida badiiy komponentlar modifikatsiyasi.

² Isajon Sulton romanlarida badiiy komponentlar modifikatsiyasi.

egallash, taziyoq o'lkazish zarurati yo'q. Tashqi olamni kuzatmayotgan odam holatini mutakka yoki o'limga, yoki bo'lmasa, voqetlarning qonunlariga bo'ysunmaydigan farishlarga ham qiyoslash mumkin. Keltirilgan manbada bedorlik va uyqu holatidagi – ong ostida bo'ladigan biologik jarayonlar insonni ma'nadan o'zgarishga, kelajak haqida muayyan tasavvur hosil qilishga o'rgatadi. Uyqu – yatan o'lim! Muallif botinidagi yashirin ruhning istaklari va tananing unga ba'zan bo'ysunmaslik holatlarini qahramon olamiga birlashtirish Natijada har ikkala jarayonda u do'stini yolg'iz qoldirmaydi. Hikoyada **zinama-zina yuqorilash**, anglash bosqichlari tasavvut aqidalarini yodimizga soladi. Makonda ro'y bergan voqelik zamonat o'zgarishga yuz tutadi. U, do'st va chinakam inson o'z-o'zini sevishi hurmat va qadr qilishi, e'zozlashi, besh kunlik umrida tanani ham muhofaza etib, chinakam musulmon bo'lishga ishora qilinnmoqda.

“Yana uyquni yaxshi ko'radim. Uxlamasang, ertasiga ko'zining kirtayib, so'linqirab qolarding. Men esa uxlashni yoqirmasdim. Men sabab, goho sen uxlagan mahallarning xayolan qaylarga dir sayt qilardim.

U – makonsiz, zamonsiz hududlar edi. O'sha hududlarda gah dunyodan o'tib ketgan bobomni, o'zim tanimaydigan kintlanib uchrtar ham edim. Gohida esa... uchar edim, do'st! Shunda esa ko'rmas edim, nainki seni, o'zimni ham ko'rmas edim! Cho'za eshituvchi va ko'ruvchi jisimsiz bir shaffof narsa edimu makonda va zamonlar uzra uchib ketardim. U makonlar qayda edi? Qonun zamonlar edi ular? Goho g'alati maxluqlar paydo bo'lib quvlabar Goh esa eng qo'rqadiganim holat yuz berar – otaning yot onanining o'tib qolganini ko'radim. Qattiq izitrob ichida qaylabar kimlarga dir bir nimalar deb yalinib-yolvorib yurardimu... uylar o'zimga kelgach, buning tush ekani aqlimga etib kelar edi”.

Yozuvchi hikoyada bir vaqtning o'zida ham do'st bilan muho qiladi, ham o'zining “tushida kechayotgan voqelik”ni ifodalay ham umrning bebaqoligini, foniyiligini dalolatlaydi, ham unda mayl-istaklarning chegarasini chizadi, ham dunyoni toza tush

qiladi. Hikoya arxitektonikasida egallash, taziyoq o'lkazish zarurati yo'q. Tashqi olamni kuzatmayotgan odam holatini mutakka yoki o'limga, yoki bo'lmasa, voqetlarning qonunlariga bo'ysunmaydigan farishlarga ham qiyoslash mumkin. Keltirilgan manbada bedorlik va uyqu holatidagi – ong ostida bo'ladigan biologik jarayonlar insonni ma'nadan o'zgarishga, kelajak haqida muayyan tasavvur hosil qilishga o'rgatadi. Uyqu – yatan o'lim! Muallif botinidagi yashirin ruhning istaklari va tananing unga ba'zan bo'ysunmaslik holatlarini qahramon olamiga birlashtirish Natijada har ikkala jarayonda u do'stini yolg'iz qoldirmaydi. Hikoyada **zinama-zina yuqorilash**, anglash bosqichlari tasavvut aqidalarini yodimizga soladi. Makonda ro'y bergan voqelik zamonat o'zgarishga yuz tutadi. U, do'st va chinakam inson o'z-o'zini sevishi hurmat va qadr qilishi, e'zozlashi, besh kunlik umrida tanani ham muhofaza etib, chinakam musulmon bo'lishga ishora qilinnmoqda.

“Yana uyquni yaxshi ko'radim. Uxlamasang, ertasiga ko'zining kirtayib, so'linqirab qolarding. Men esa uxlashni yoqirmasdim. Men sabab, goho sen uxlagan mahallarning xayolan qaylarga dir sayt qilardim.

U – makonsiz, zamonsiz hududlar edi. O'sha hududlarda gah dunyodan o'tib ketgan bobomni, o'zim tanimaydigan kintlanib uchrtar ham edim. Gohida esa... uchar edim, do'st! Shunda esa ko'rmas edim, nainki seni, o'zimni ham ko'rmas edim! Cho'za eshituvchi va ko'ruvchi jisimsiz bir shaffof narsa edimu makonda va zamonlar uzra uchib ketardim. U makonlar qayda edi? Qonun zamonlar edi ular? Goho g'alati maxluqlar paydo bo'lib quvlabar Goh esa eng qo'rqadiganim holat yuz berar – otaning yot onanining o'tib qolganini ko'radim. Qattiq izitrob ichida qaylabar kimlarga dir bir nimalar deb yalinib-yolvorib yurardimu... uylar o'zimga kelgach, buning tush ekani aqlimga etib kelar edi”.

Yozuvchi hikoyada bir vaqtning o'zida ham do'st bilan muho qiladi, ham o'zining “tushida kechayotgan voqelik”ni ifodalay ham umrning bebaqoligini, foniyiligini dalolatlaydi, ham unda mayl-istaklarning chegarasini chizadi, ham dunyoni toza tush

¹ Erix Fromm. Inson qalbi. –T: “O'zbekiston”, 2016. –B.61.

² Ko'rsatilgan adabiyot, 1-jild. –B.175.

¹ Erix Fromm. Inson qalbi. –T: “O'zbekiston”, 2016. –B.61.

² Ko'rsatilgan adabiyot, 1-jild. –B.175.

ketaman o'z yuksakliklarimga u erlarda sening keraging bo'lmaydi menga.

Endi sen bilmagan bir simi ochayin. Men azal edim. Sen bilan tanishmasimdan minglab yillar avval bino bo'lgan edim. Ya'ni, ikkimiz ikki yondan dunyoga kelgan edik, bir-birimizni tanidik va bir tanu bir jon bo'lib birlashdik. Sen ham meni taniding va amrimga itoatkorona bo'yin egding!

Bir vujud ichra mavjud bo'ldik, do'sti¹!

Hikoyada — eganing aniqlovchisi — do'sting-do'stga qilgan murojaat-iqorida yanada ravshanlashadi. Iqror — umrning poyoniga etishi, tanni esa ruh tark etishini anglatadi. *Makon — umr*, zamon uning amallari, qilgan yaxshiliklari, o'kinchlari, iztiroblari, nadomatlari, pushaymonliklaridir. "Kishiilik jamiyatida davrning, zamonning o'zgarib turishi fasllarning o'zgarishidek tabiiy va qonuniy jarayon. Shaxsiy sifatlari kamolotga etgan, o'zligini anglagan kishilar, ya'ni bargaror xarakterlar bu o'zgarishlar pallasida asliyatiga sodiq qolishadi"². Manbada kuzatilganidek, hikoyadagi do'st obrazi har bir inson hayoti davomida bosib o'tilgan yo'l, azob uqubatlariga giritfor bo'lgan xatolarning sarhisobi. Boshqacha aytganda, moddiyatdan qo'l tortgan, ma'naviy-ruhiy olanga daxldor sir-bilimlarni vaqtida o'zlashtira olmagan mardum hasrati hamdir.

Makoni kengliklar aro, yozuvchi hikoya muqaddimasida narsa-buyunlarning joylashuv tartibiga e'tibor berishining o'ziyoq xotimada "*natijadan - sababga*" olib boruvchi manzil insonning dunyoga kelishiga tutashadi. *Tug'ilish* — iztirobning boshlanishiga mantiqiy ishora qiladi.

"Asarning vujud-vujudiga iztirob va mung singib ketgan"ligini (U.Jo'raqulov) do'st obrazining iqtomomasida yanada teranroq anglash lozim. Umuman, hikoyaning tutib turuvchi kompozitsion unsur — yozuvchining o'z shaxsiy hayotiga daxldor bir necha sifatlari bilan bog'liqligi ayonlashadi. Nasrning esselashuv jarayoni va avtobiografik talqin xoslanganligi makon modifikatsiyasida yanada teran idrok etishga qaratiladi. Mavjud kompozitsion birliliklar

hikoyada natija-sabab o'rnatidagi mohiyatni anglashga qaratilganligi bilan alohida mavqe kasb etadi.

Muallif obrazi, "men"ga ijtimoiy-tarixiy hodisa sifatida qarash jola. XX asr boshlarida jadid mutafakkirlarining badiiy asarlarida inson muhit va shaxs ixtilofi natijasida qanchadan-qancha asarlar yuzaga keldi.

¹ Ko'rsatilgan adabiyot, 1-jild. —B.184.

² Qobulova N. Erkin A'zam nasrida davr va inson kontsepsiyasi. Filol.falsafa. diss.avtorref. —B.11.

IJODKOR KONSEPSIYASI BADIY TAKOMILIDA TASYIR INDIVIDUALLIGINI TA'MINLOVCHI OMILLAR

Yangi davr prozasida salmoqli o'rin egallagan neorealistik talqin va realistlik usul ba'zan uyg'unlashib, yaxlit bir manzarani hosil qilganligining guvohi bo'lmog'damiz. Muallif ongu shu urda rosa pishib etilgan voqealik hayotni to'laqonli ifodalash imkonini bermaydi. Chunki hayot bir maromda silliq va tekis kelmaganidek, badiiy asarda ro'y berayotgan voqealik ham *murakkab, o'zgaruvchan, ko'p qiyofali, begaror* bo'lishi tabiiy. Inson tuyg'ularidan yaratilgan ikki qator she'r ham badiiylikni ta'minlovchi eng muhim kategoriyalarni o'zida jamlashi tayin. Negaki, his va tuyg'u, ong va tafakkur olam va odamni kashf qilish ilinjida har bir shaklda turlicha ko'rinishda namoyon bo'lishi sinalgan hodisa. J.Joy's, F.Kafka, A.Kamyu, Prust kabi yozuvchilar talqinlarida badiiy asar murakkab va ko'p qiyofali obrazlar sistemasini bir maxrajda birlashtira olganligi bilan modernistik dunyog'arashni o'zida akslantirgan. Sharti ravishda mudom tarqiqiy qilyotgan mazkur oqimlar ruhiyatini va olam kayfiyatini teran istifoda qilyotgani bilan ajralib turadi. Qariyb yuz yil to'lgan bo'lsa-da, matndagi ong va tuyg'u harorati hech bir so'ngan, oddiylashtirgan emas. Zulkro o'quvchining tushunishi hiyla qiyin kechadigan jumalalarda ham ritm va pafos birligi yozuvchi dunyosini kashf etishga imkon beradi.

Yangi o'zbek nasrining ifoda tarzi qisqalikka tomon siljimoqda. Shu ma'noda, tasvirdagi romanii tafakkur kengligi bilan ifodalalayotgan turti xil adabiy-badiiy usullarni o'zida jamlagan ayni haqiqatdir. Romanii tafakkur ijodkorni imkoniyatlarining kengayishiga xizmat qiladi. "Keyingi yuz yillikning adabiy haqiqati shundaki, so'zning buyuk qudratini, so'zning yaratuvchilik xususiyatini, so'zning sehtini, so'zning ilohiyligini namoyish etgan har qanday asar hissiyot va idrokka turtki beradi va adib ko'zda tutgan, tutmaganidan qat'iy nazar, abadiylik fazosidagi badiiy tafakkur mahsuliga aylanadi. Badiiy tafakkur azaldan abadga qadar olam va odam uyg'unligini muhokama qiladi, insonni ilohiy uyg'unlik rishalari bilan bog'lab turadi. Badiiy tafakkur esa o'zining maqomiga chiga olgan asarni o'zining aql o'yiniga – idrok tegimoniga tashlaydi – aynan ana shu tasavvur va tafakkur o'yiniga erishish bugungi asl adabiyotning

ozirandir". Binobarin, yuz yillik adabiy hodisalarga aylangan asarlar o'zbek nasrida katta bir uslubiy-shakliy o'zgarishlarni boshlanishiga zamin hozirladi Dimiy-axloqiy va falsafiy-estetik qamrov anchayin murakkablashadi. Yaratganni anglash va shaxs ruhiyatida aks etayotgan voqealik badiiy asarda to'laqonli yangicha ifoda shakllarini o'zida birlashtira boshladi. Mana shu oraliqda nasrdagi ritm – ong va tuyg'u birligini, yaxlitligini taqozolaydigan muhim komponentlarning birliga aylandi.

Ulug'bek Hamdam bundan yigirma yillar ilgari Jaloliddin Rumiyning "Ichindagi ichindadir" nomli mo'jaz risolasi turkiy tilidan tarjima qilib, adabiyot ilxosmandlariga tufiq qilgandi. Ushbu nasrning juda ko'p falsafiy-estetik, g'oyaviy-poetik ta'siri yozuvchi ijodida muhim bir halqani tashkil qilishini adabiyotshunos olimlar e'tirof etib kelishmoqda. Yozuvchi har bir asarida olam va odam munosabatlari, undagi kechayotgan misli ko'rilmagan jarayonlar, o'zlash-o'zgarishlari ijtimoiy inqirozlarning yuzaga kelish omillarini goh modernistik, goh realistlik, goh postmodernistik yo'sinda talqin qilishi kuzatiladi. Shuni qayd etish joizki, Jaloliddin Rumiy olamidan ilhom tuyish va undan MA'NO izlash yozuvchiga benihoya keng imkon beradi. Rumiyning "Ichindagi ichindadir" nomli risolasi bir faslida iymon va e'tiqod borasida rivoyat keltiriladi: "Hasan va Husan bo'laik chog'larida bir odamning shariatga nomuvofiq tarzda ijtihat olganini ko'rishib, unga nazokat bilan to'g'risini o'rgatmoqchi bo'ldilar. Odamning yoniga kelishib: "Bu menga noto'g'ri taborat o'lyapsan, deyapti. Har ikkimiz taborat olaylik, sen g'aybi birimizniki to'g'ri ekanligini ayrt", deyshibdi. Ular taborat olishib bo'lgandan keyin haligi odam "Sizniki" to'g'ri, xatosiz va shariatga muvofiqdir. Ammo men zavolliniki yangilish ekan!" – debdi?

Keltirilgan lavhada Rumiy insonning niyat va amali surarda zohir bo'lishi va uning ma'no kasb etishini mantiqiy urg'ulaydi. Jumladan, Hasan va Husanning sinchkovligi bir odamning xatosini tuzatishiga sabab bo'ldi. Hikmat ma'no kasb etib, u insonning yashash tarzini ham o'zgartirishi mumkinligi oddiy bir detal bag'rida jo qilindi. Bu erda maqsad – niyat va uning to'g'ri yuzaga chiqishiga tomon

¹ Esbonqulov N. Ijod falsafasi. –T: "Akademnasir". 2018. –B. 243.

² Jaloliddin Rumiy. Ichindagi ichindadir. –T: "Yangi asr avlodi". 2019. –B. 186.

boryapti. Ya'ni har qanday ishda avval niyat qilinadi va u bora-bora hayot a'moliga ko'chib o'tadi. Ulug'bek Hamdam ning bundan o'n yil ilgari "Yoshlik" jurnalida chop qilingan "Musulmon" nomli hikoyasining epigrafi ham yuqoridagi mulohazalarimizni to'laqonli tasdiqlaydi. A.Navoiyning "Kimki bir ko'ngli buzug'ning xotirin shod aylag'ay, Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa obod aylag'ay" nomli hikmatli satrini keltiradi. Ya'ni bu hikoya Jaloliddin Rumiy asarida keltirgan rivoyat qahramonlarini yodimizga soladi. Ulug'bek Hamdam "Musulmon" nomli hikoyasi arxitektonikasini tahlil qilib ko'ramiz:

"Hasan-Husanlar shoshib borisharkan, yo'l chetidagi bozor darbozasi oldida bir to'da yosh-yalangning to'planib olib yoshi qaytganroq yolg'iz kishini do'pposlayotganini ustidan chiqib qolishdi. "Iya, Hasan, anavilarga qara", - Husan yo'lni shu yoqqa oldi. "Husan, esing joyidami? Ular bir to'da ekan, - norozi bo'lib to'ng'illadi Hasan. Lekin Husanni yakka tashlab ketmadi, ergashdi. «Ho-hoy, bu nima qilganlaring, uyalmasizlarmi?» - ham yugurar, ham xitob qilardi Husan. O'zlari tomon oshig'ich kelayotgan ikkita davangir yigitini ko'rgan bezorilar tiragaylab qochib qolishdi-yu, jabrdiyda bebliska qutuldi. "Yur - endi, - Husanning engidan tortdi Hasan, - ish oson ko'chdi". "Shoshma birpas", - Husan tuproqqa belanib yotgan mazlumning elkasidan tutib tiklamoqqa urindi.

- Qoch nari!.. - xaloskorini siltab tashladi mazlum. Keyin oyoqqa turaman dedi-yu, munkib yuzi bilan tuproqqa surinib ketdi. Undan atrofga aroq, qo'lsaga aylanib ketgan ter hidi va yana allaqanday chirkin, achqimtir bo'y anqib, ketdi.

- Tfu! - deya burnini jiyirdi Hasan. - Yur bu erdan, ko'mayapsanmi, iymonini boy bergan odam bu! - kafi bilan yuzini to'sganicha uzog'lashdi.

- Husan nima qilishini bilmay serrayib turib qolgandi, ko'k yuzida paydo bo'lgan qushchalarning vijir-vijiridan segak tortdi. Qarasa, Hasan masjid tomon odimlab, qushlar ham o'sha yoqqa uchib boryapti ekan...!

Hikoyada uchta tasvir bir-birini to'ldiruvchi mohiyat kasb etadi.

1. Egitazklarning har birining o'z hayotiy pozitsiyaga ega bo'lishi. 2.

¹ Hamdamov U. Vatan haqida qo'shiq. -T: "Akademnashr". 2021. -B.508.

Husanning botinida hali e'tiqodining, ya'ni asl maqsadga e'ritilmagani va o'zida bunga qandaydir kuch topolmagani. 3. Bu erda masjidda tomon ketayotgan qushlarning - masjid tomon Hasan bilan birga uchishi. Demak, hikoya polifonik nutq bo'laklari bir-biriga mantiqan uyg'un holda zuhur qilinadi. Husanning tabiatida tushuniksiz bir xarakterning shakllanishi "iymon"ni mustahkamlash lozimligiga uyg'un beriladi. J.Rumiy ham har bir narsa-hodisalarning ildizi - iymondan ekanligiga ishora qilinadi. Niyat va amal uyg'un kelgan haddida chinakam musulmon bo'lishga qaratiladi. Hikoyaning ilk mos (motif) Qur'oni karimdagiy o'ylarga borib taqaladi.

Adabiyotshunos S.Melning ushbu mulohazalariga e'tibor beraylik: "Badiiy adabiyot - alal-oqibat ruhoniyyat hodisasi. Shunday ekan, yaratilgan va yaratilajak asarlardagi voqea, qahramon va hissiyatlarga **ruhoniyyat** nuqtai nazaridan yondashish, ruhoniyy quvvat, ruhoniyy tuyg'u, ruhoniyy ta'sir degan atama-tushunchalarni ilmiy tariqa bilan qat'iy kiritish lozim. "Inji"da yozilganidek, "Moddiy jismlar bor bo'lganidek, ruhniy jismlar ham bor". Agar shu hikmatdan foydalanadigan bo'lsak, badiiy adabiyotning bosh belgisi va mohiyati moddiy jismlar - tashqi voqealik, unda umrguzaronlik qilayotgan odamlarni ruhniy jismlariga aylantirish, ya'ni badiiy qayta tiklash de'vishimiz mumkin? degan xulosani beradi. Biroq badiiy shartlilikni va butun muallif ideali, dunyoqarashi, ongu shuuri kechayotgan voqealikni ritm bilan tartiblanishi bu boshqa masala. Aynanlik badiiylik modusini yagona estetik markazda jipslashtirib, voqealikni mustaqil boshqaruvini tayin etadi.

Tadqiqodchi T.Masharipova qayd etishicha: "Muallif bilan asar orasidagi munosabatni sub'ektning o'limi nuqtai nazaridan emas, balki asar e'ton etilgan damdan boshlab muallifdan uzilishi jihati ko'ra talqin etish maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonni esa begonalashish deb atash to'g'ri bo'lardi, chunki endilikda muallifning yaratgan asari unga tegishli bo'lmay, jamoat mulkiga aylanadi. Aslida-ku, asar jamiyat uchun yaratiladi, bu jihatdan olganda, asarning sub'ektdan ajralib, ommaviy auditoriyaga uzatilishi muallifning asl maqsadini

¹ Aziz Havoriy Pavlusning Korintliklarga birinchi maktubi. 15:44.

² Miliyev S. Global ilmiy-badiiy talqin poetikasi. Filol.fan.dok.diss.si. -Toshkent. 2020. -B.51.

tashkil etadi¹. Bunday qarashlar R.Bartning muallif muammosiga oid tadqiqotlari negizida tahlil qilinishi fikrimizni to'liq tasdiqlaydi. Binobarin, yozuvchi shaxsiyatidan ajralib chiqqan asar – o'quvchi ongida qayta idrok etiladi. U muallif dunyog'arashida poetik talqini bilan uzviyligi, xarakterini namoyon qiluvchi qator komponentlarga uyg'unlashgan holda ro'y berishi mumkin degan xulosaga keladi. Aslida, matn o'zgaruvchan xususiyatga ega. **Muallif-qahramon-kitobxon** an'anaviy qarashlarni inkor qilishini taqozo etadi.

Tarixiy silsilalar badiiylik modusini tahlil qilganimizda "J.Zaydon o'z vaqtida G'arbiy Evropa adabiyotidan, qolaversa V.Skott, V.Gyugo singari yozuvchilar ijodidan oziqlangan. Agar tarixga e'tibor berilsa, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab G'arb bilan Sharq o'rtasida kontakt bog'langanligi ma'lum. Bu davrda Evropa mustamlakachilarining Sharqqa "yurishi" boshlangan bo'lib, shu tufayli G'arb adabiyotining ayrim namunalari ham arab mamlakatlariغا kira boshlaydi... Demak, J.Zaydon o'z romanlarini yaratishda G'arb adabiyotidan, birinchi galda V.Skott singari san'atkorlar ijodidan, ularning tarixiy roman sohasidagi traditsiyasi izidan borgan bo'lsa, A.Qodiriy G'arb tarixiy romanchiligidan J.Zaydon orqali oziqlandi². Bizningcha, Ulug'bek Hamdam va Isajon Sulton ijodiy an'analari muallif "men"i bilan ham G'arb, ham Sharq adabiy durdonalari negizida shakllanadi. Unda goh Rumiy, Navoiy asarlaridan ilhom tuyishi yozuvchilar botinida "yashiringan", "ong osti"da saqlanib kelayotgan voqelikning yuzaga chiqishida katta maktab vazifasini o'tay oldi. Birgina Ulug'bek Hamdam "Muvozanat" romani va qator hikoyalarda an'anaviylik bilan no'an'anaviy tasvir usullari qorishiq holda zuhur etildi. Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" romanida G'arb ekzistensial falsafasi yaqqol ko'rinadi.

Badiiy matnda ritmning o'rni. Biz Ulug'bek Hamdam ni ham shoir, ham yozuvchi, ham tarjimon sifatida tanimiz. Uning badiiy izlanishlarida lirik kechinma nasriy asarlarida qahramon intellektini namoyish qiladi. Nasrda lirio-romantik salmoq "muallif

¹ Masharipova T. https://ziyouz.uz/lin-va-fan/adabiyot/tamara-masharipova-garb-nazariy-manbalarida-muallifning-ulimi-kontsepsiyasi/#_fm2

² Mirvaliyev S. O'zbek romani. –T: "Fan". 1969. –B.105.

dunyog'arashi"ning bir bo'lagi. Xususan, juda ko'pchilik asarlarida lirik kechinma falsafiy-estetik mushohadaga boyiligi, g'oya hamda sonetni bir-biriga bog'lovchi kompozitsion ustqurma ekanligi ayonlashadi. Biroq ritmning o'zi nima? U nasriy asarda qanday xususiyatlarga ega? Unda "muallif dunyog'arashi", ong ostidagi hali tavayga chiqmagan voqelik qanday zuhur etilishini tadqiq qilish ehtiyojini tug'diradi. "Inson qalbi hamisha qarama-qarshiliklarga to'la bo'ladi. Bu qarama-qarshiliklar ko'pincha sof insoniy tuyg'ular olamining jamiyatning g'uborli onlari bilan to'qnashganda sodir bo'ladi va yuzaga keladi. Insonning bu holatlarini teran tahlil qilish, uning sabablarini mantiqiy hamda asosli ochib berish ta'sirli, mushohadakor kishini bir holatdan ikkinchi bir holatga soladigan badiiy obraz yaratish demakdir. Keyingi yillarda yaratilgan o'zbek prozasida xuddi mana shu narsa o'zining haqiqiy ifodasini topayapti. Mazkur asarlarni o'qir ekanmiz, adiblarning hayotni dialektik idrok qilishlarini, mumkin qadar konkretlikka intilishlarini, ya'ni asarlarga material bo'lgan voqelik aniq hayotiy zaminga ega bo'lishiga harakat qilishlarini his qilamiz. Ular asarlari orqali kitobxoniga etkazmoqchi bo'lgan g'oyasini zo'rana-zo'raki, kuchanish bilan kishi ongiga singdirishga intilmaydi¹. Haqiqat shuki, Ulug'bek Hamdam ning "Yolg'izlik" qissasidan ibtido olgan g'oyaviy-badiiy modus katta-kichik she'riy asarlarida ham muallif dunyog'arashini, lirik "men" tabiatini nasrda ham aks ettirish an'anasini boshlab berdi. Ritm badiiy asarning urib turgan yuragi ekan, unda jamiyat hayotidagi uzil-kesil, muttasil o'zgarishga moyilligi bilan tarqiqiy etuvchi roman poetikasida muhim bir etapni tashkil qiladi. (H.Karimov) Badiiylik sharti shuki, qism va bo'laklar birlashib, yagona estetik markazda uyushadi. Natijada ijodkor dunyosi yangicha bir shaklda yuzaga chiqqa boshlaydi. H.Karimov talqinida ham aynan shu jihatga diqqat qaratilgani bejiz emas.

1997 yil yaratilgan va adabiy jamoatchilikda qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'lgan "Muvozanat" romani qahramoni Yusuf – "Isyon va ifoat" romanida Akbar, "Sabo va Samandar"da – Samandar timsolida ritmik butunlikni namoyon qildi. Aynan har

¹ Karimov H.Kechagi o'zbek nasrida hayot haqiqati va inson kontsepsiyasi. Monografiya. –T: "Yangi nashr". 2018. –B.188.

uchala qahramon biri-biriga o'xshash ovozlari yig'indisini yagona g'oyaviy tayanch markaziga yozuvchi mahorat bilan birlashtiradi. "Muvozanat"da ijtimoiy-siyosiy masalalar zalvori Yusuf dunyo-qarashida g'oyat keskin ziddiyatlar, ikkilanishlarni, ayriliq va iztiroblar fonida namoyon qilsa, "Isyon va itoat"da ijtimoiy tengsizlik – diniy-ilohiy kirima epizodik lavhalarda qabarib ko'rinsa, "Sabo va Samandar" romanida kuchli depressiyani boshidan kechirgan muhabbat kishisi Samandar timsolida romanik tuyg'ularni biri-biriga pavyandlay olganligida seziladi. Bularning barchasi – badiiy ritmda o'z aksini topadi.

Rus munaqqidi V.G. Belinskiy "Narsalarning qadri – biri-biriga qiyos qilinganda bilinadi. Agar ikki yozuvchi bir turda ijod qilib, biri-biriga qandaydir o'xshashligi bor ekan, binobarin, ularni parallel joylarga qo'yib biri-biriga qiyosan baholashdan boshqa iloj yo'q: eng odil tarozi shu. Balzakkaga e'tibor bering: uning povestlarida biri ikkinchisiga pichagina o'xshab ketadigan loaqal bitta xarakter, loaqal bitta shaxs uchramasligiga qaramasdan bu zot qanchadan-qancha asarlar yozib tashladi. O, xarakterlar individualligining jami qirralarini tasvirlashdagi aql bovar qilmaydigan darajadagi mahoratni qarang!"¹ Munaqqid fikrlari bugungi o'zbek nasri uchun ham muhim ekanligi ayonlashmoqda. Ya'ni asardagi ritmi mahorat bilan tashkillashtirish ijodiy konseptsiya badiiy takomilini anglashga keng yo'l ochadi.

Nasrdagi ritm borasida salmoqli tadqiqotlar yaratgan olim H. Karimov: "Nasrdagi ritmi asar garmoniyasidan qidirish lozim, ya'ni asardagi har bir vaziyatning umumiy birligi, har bir holatni, har bir voqea-hodisaning silsilasidan, xarakterlarning xatti-harakati, gapirish manerasi, ularning asarda bajarilgan ishi, qilgan harakatning mantiqiy asosining uyg'unligidan, shuningdek, xarakter faoliyati, uning tugan ishi saviyasi, bilimi, psixologiyasiga mos yoki mos emasligidan, xullas, yozuvchi mahoratini belgilaydigan badiiy komponentlarning kompleksidan qidirish lozim"² ekanini ta'kidlasa, adabiyotshunos D. Quronov: "Badiiy mulog'otga kirishayotgan ijodkor representativ, ekspressiv va appelyativ maqsadlarni ko'zlatkan,

asarning tashkillanishi (struktura) shu uchala maqsadning ro'yobga chiqishi uchun optimal imkoniyat yaratadigan bo'lishi lozim. Anglashladiki, gap qurilishi bilan adabiy asar qurilishi orasida yozuvchiga maqsadlardan kelib chiqadigan tipologik umumiylik bo'lishi tabiiy. Demak, adabiy asar strukturasi gap qurilishi model(konstruktsiya)lariga tayangan holda tushunish va tushuntirish mumkin bo'ladi".³ Binobarin, bularning barchasi – ritmda o'z aksini topadi. Demak, ritm asar kompozitsiyasida o'lovchi, janri, g'oyani, ijodiy konseptsiyasini bir maxrajda tartiblashitiradigan muhim komponentlardan biri ekanligi namoyon bo'ladi.

Biz masalani aniqlashda "Muvozanat" romanidagi tasvir bilan "Sabo va Samandar"dagi ekspozitsiyani qiyoslab ko'ramiz. Har ikkala romanda bosh qahramon asarning tayanch markazini tashkil qiladi. Barcha voqelik shu ikki qahramon atrofida sodir bo'ladi. Liro-romanik bo'yodqorlik ijodkor konseptsiyasini hosil qilish bilan bir qatorda, adib tuyg'ularida qandaydir ichki yaqinlik, mutanosiblikni keltirib chiqaradi:

"Yusuf cho'chib hushiga keldi. "Hammasi xayol, shirin xayol – o'ylandi u divanda yotgancha, – nahotki endi o'sha chog'lar qaytib kelmaydi, nahotki endi hayotim samarasiz va zerikarli kechaveradi? Axir qirchilama qirg' yosh ostonasida nega bunchalar abgorman, bunchalar xotlanganman? Kim meni shu ko'yg'a soldi, kim?.. Nahotki hech kim? Nahotki mening o'zim sekin-asla shu holatga tushgan bo'lsam? Axir hammasi joyida edi-ku? Qaerda xato qildim?" – Yusufning savollari adoqsiz edi, lekin topgan javoblarga qanoat hosil qilmay, ichini tobora kemirib borayotgan so'roqlar unini bir dam bo'lsa-da o'chirgan derdi... Beixtiyor do'stlarini – talabalik chog'laridagi hamfikru hammaslklarini sog'indi. "Qaydasiz, ey yorlonlar? Nega yo'llarimiz ayro tushdi? Nega biz bir-birimizni bu ahvolda tashlab ketdik? Axir, qandoq ahli edik, qandoq do'st edik!.. Yana qaytarmikin o'sha damlar, o'sha bahorlar?..."⁴

Mazkur parchada asar bosh qahramoni Yusuf juda ko'p narsalarga javob topgandek his qiladi o'zini. Negaki, romanning ettinchi bo'bidagi hayotiy ziddiyatlar aynan asar syujetini, ijodkor konseptsiyasi

¹ Belinskiy V.G. Adabiy orzular. –T: "Adabiyot va san'at" nashriyoti. 1978. –B. 68-69.

² Karimov H. Ritm – asar yuragi. –T: Turon-Iqbol. 2011. –B. 270.

³ Quronov D. Cho'ipon nasri poetikasi. –T: "Sharq". 2004. –B. 73.

⁴ Hamdamov U. Varian haqida qo'shiq. –T: "Akademashir". 2019. –B. 32.

badiiy takomilini belgilab beruvchi asosiy atributga evriladi. “*Axir qirchillama qirg yosh ostonasida nega bunchalar abgorman, bunchalar xo‘rlanganman? Kim meni shu ko‘yga soldi, kim?*...” deysining o‘ziyoq asar muallifi bot-bot ta’kidlayotgan adqosiz muvozanat sog‘inchi bilan yashayotgan qahramoni imtihondan o‘tkazadi. Yozuvchi asar ritimida vogelikka teran aralashadi. Ba’zan muallifning o‘zi talqin boshqaruvini qo‘lga oladi. Yusufning ichki iztiroblari bilan birga hammaslak bo‘ladi. Xo‘sh, bu hayotiy o‘lcham, muvozanat iztirobi yozuvchida yana qanday o‘rinlarda sodir bo‘ladi? Mana shu savolga adibning “Yolg‘izlik” asaridan javob topish mumkin. Shuni qayd etish joiz, Ulug‘bek Hamdam “Muvozanat” romanida bir-biriga mantiqan bog‘langan – uchta o‘lim tasvirini ifodalaydi. Birinchi o‘lim – Muhammadjon akaning umri poyoniga etib, asl tarixni yozish mashagatlari bilan kechgan yolg‘izlikdagi hayot, va, u yozish merosini Yusufga qoldiradi. Bunday deysimimizga sabab, Muhammadjon aka Yusufga tongotar subhatlarida sobiq imperiyaning asl kirdikorlari, milliy ong va tafakkurning tushovda ushlab turilishi, soxta shiorlar bilan umrguzonlik qilish haqida bo‘lsa, Yusuf istiqloqlarga erishgach “o‘tish davri” qiyinchiliklarida olam va odam munosabatlardagi muvozanatga putir etishi oqibatida kelib chiqqan katta ma’naviy jarlikning asl sabablariga nom berishida ko‘rinadi. Har ikkala asarda ham yozuvchi qahramoni ziyoli qatlamdan tanlaydi. “Yolg‘izlik”da ritm ijodkor konsepsiyasining ilk motivi tarzida baholalanadi. Qahramonning maqsad muddaosi ham – moddiy va ma’naviy muvozanatsiz odam to‘la-to‘kis saodatga erisha olmasligini bot-bot ta’kidlaganida deb, izohlaydi. “Yolg‘izlik” qissasidagi o‘lim tasviri – “Muvozanat” romanida qayta shakllantirilib, to‘ldiruvchi komponentlarga evriladi. Bu misol “Yolg‘izlik” qissasida aks etishi:

“O‘g‘lim qiyinalib o‘ldi... O‘limi oldidan do‘xtirlar uning a‘zoyi badaniga sanchilgan anjomlarini sug‘urib, “Hozir joni chiqadi, so‘ng olib ketaverasizlar”, dedi. Ular o‘zlarini xuddi bizga bolani sog‘-salomat topshirayotgandek tutardi. Hammasini yoppasiga bir kaltaklay dedim-u, Xudodan ko‘rib, o‘zinni bosdim. Bolaning esa ha, deganda joni chiqavermadi. Uzoq kutdik, chamasi ikki soatcha. Chaqaloq birdan ko‘zlarini katta ochib menga qaradi, go‘yo men sohilidamanu u esa quturgan daryoning o‘rtasida oqib ketayotgandek

qilib qaradi, jovdirlab qaradi. Jonim halqumimga keldi. Men ilk bor o‘zinni qurbon qilishga tayyor sezdim. O‘g‘limning o‘limida o‘zinni ayblor his qildim, ichikib og‘ridim...”

Uyga keldik, marosim boshlandi. Yuvishdan oldin ayollar jonini so‘rashdi, ismsiz ketmasin deyishdi. Biz hali ism qo‘yishga ulgurmagandik. Lekin Muhammad nomi o‘g‘lim bo‘lishini juda-juda ko‘ladim. Bolam esa o‘ldi. Agar ismi unga bersam, mening hech qachon Muhammad o‘lig‘ o‘g‘lim bo‘lmasdi. Bir lahza iktilandin, ismi qizg‘andim... So‘ng ablahligimga ortiq chiday olmay “MUHAMMAD!!!” - baqirdim anchadan buyon og‘zinni poylab turgan yuvg‘ichlarga. Negadir borib ko‘pchilikka “Muhammad, o‘g‘limning nomi Muhammad!” deya birma-bir aytib chiqdim.¹

Mazkur tasvir qissada hali tug‘ilib, beadog‘ dard bilan olibhayotgan murg‘ak go‘dakning taqdiri bilan tanishganimizda bir hoshaqcha holatga tushamiz. Asardagi eng kulminastion nuqta “*Hozir joni chiqadi, so‘ng olib ketaverasizlar*” jumlasida jamiyat hayotining ASL basharasi aks etadi. Kuchli depressiya va psixologik tarang konflikt mazlum ota va shifokor orasida shu birgina jumla orasida kechadi. Jamiyatning va undagi yashovchi elita qatlamning bir uzvi shifokorlar – ziyoli qismatiga befarq. Tanomila taqdir qahramon hayotini, yashashdan maqsad qolmagani ifodalash nuqtai nazaridan yozuvchi moddiyat va ma’naviyat jamiyatni ilgari odimlatdigan ikki qanoatga qiyoslaydi. “Muhammad ismi o‘g‘lim”ning bo‘lishini ko‘lagan ota ruhiy to‘lg‘onishlari uni asrab qolishga hech qanday ehtiyo topolmaydi. Shaxs ruhiy kechinmasi o‘quvchini teran o‘yga to‘ldirishi, kulfatga hammad bo‘lishga etaklaydi. Adabiyotshunos I. Yoqubov shunday yozadi: “Muvozanat” romanida millat kishisining bugungi o‘ylari, intilishu izlanishlari, ruhiy-ma’naviy iztiroblari, jonli obrazlar orqali tinuq tasvirlangan. Ruhiy sokinlikka intilib, dildagi ishni ro‘yobga chiqarish yo‘llariyu usullarini topolmay, tasavvuf sahrasida esankirab qolib, o‘z maqsadiga etolmagan Amir tojcasi; o‘zini tolesiz sezib, xayolidagi hayotni reallikka ko‘chirishni iltagan, xiyonat iztiroblarida o‘rtangan Zahro; ijtimoiy-ma’naviy jihatdan yakkalanib, ruhiy qiynoqlar ichra o‘rtanayotgan Said; barcha havaslari ro‘yobga chiqsa-da, yuragi huviylab qolgan Mirazim

¹ Hamdamov U. Yolg‘izlik. –T: “Yangi asr avlodi”. 2018. –B. 22-23.

tanholigi; boshariyatning yorug' kelajagini ilm-ma'rifatdagina ko'radigan, moddiy, ma'naviy-ruhiiy qutblarni uyg'unlashtirish zarurligini tushunib etgan Yusuf va boshqa o'nlab qahramonlar dilidan joy oldi¹. Ko'rib o'tganimizdek, asardagi ayanchli dramatik sahnalar galereyasida shaxs ruhiy-ma'naviy jihatdan parchalanadi. Adopsiz iztiroblar qahramon ruhiyatini sinovlaydi. Natijada, Yusuf kabi millat jonkuyarlari qattiq iztiroblar bag'rida yashaydi.

Qissa va roman syujetida ritmik modifikatsiya. Qissadagi ruhiy-ma'naviy evrilishlar G'arbda an'anaga aylanib ulguragan tasvir kriteriyasini bargorlashitiradi. Amir va Gulshoda taqdirining ayanchli fojiasi Yusuf hayotida chorasizlikdan – chora izlashga etaklaydi. Qissa qahramoni voqelikni kundalik daftariy shunchaki yozib, muhtab qo'yuvchi emas, Yaratganing bunday baxtiqarolikni uning boshiga solganligiga sabab bo'lgan omillarga javob topishga doim talpinib yashashida qabarib ko'rinadi.

Avvalo, shuni qayd etish joizki, Ulug'bek Hamdam qahramonlari asar sahnasida – mudomi isyon bilan harakat qiladi. Bu isyon odatiy isyondan tamomila farq qiladi. Yozuvchi qahramonning elkasiga shu qadar KATTA mas'uliyat yuklaydiki, undan qutilib chiqishning hech bir ilojisi yo'q. Chunki Isyon qilinayotgan hodisa yoki predmetning o'zida musaffo bir intilishga ehtiyoj mavjud. Jumladan, "Imom Hasan al-Basriy: "Olim Allohdan g'oyibona qo'rqan odamdur. Alloh qiziqitgan narsaga qiziqgan, Alloh yomon ko'rgan narsadan qochgan odamdur"² hadisini keltiradi. Bu hadis mantiqan Ulug'bek Hamdamning "Yolg'izlik" qissasi qahramonida shakllangan "Isonkor odam"ning xarakteriga juda mos keladi. Ya'ni adib qahramonlari olamning yaralishini va undagi har bir ishda Alloh taoloning hikmati yashirganini teran idrok qiladi. Jamiyatda shunday tartib bo'lishni xohlaydiki, yozuvchi ijodiy konsepsiyasida turli xil shakllarda ro'yobga chiqqanligining guvohi bo'lamiz. Ulug'bek Hamdam G'arbda "Aqllar hukmdori" deb dong chiqqan Albert Kamyu traditsiyalarini o'z asarlarida milliy mentalitet chegaralaridan tasqariga chiqqan holda ifodalab, sintezlab ko'radi. Bir qarashda,

¹ Yaqubov I. O'zbek romanining ma'naviy-ruhiiy asoslari// Sharq yulduzi, 2011. №4. –B.115.

² Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Olim Allohdan g'oyibona qo'rqan odamdur www.islom.uz/ «Hadis va hayot» kitobi asosida tayyorlandi

kechmi yashirgan bilan istinasi chiqadi iborasining isboti o'laroq jamiyat hayotidagi katta-kichik siyosiy-ijtimoiy kuchlar orasidagi toqibatga teran nazar tashlaydi. Tadbirkor va siyosatdon do'stlarining e'tib ko'lgan manzillarida ham halovat yo'qligini angalay boradi. Uysiz, o'lasiz, farzandsiz so'qgabosh bo'lib yashash, OLIV NIZOMga bo'yinsunib hayot kechirish lozimligi unga hech qachon "erk" bermaydi. Zamonamiz faylasuf olimi Viktor Alimasov bu haqda: "A. Kamyu badiiy-estetik isyonni Lotremon, Rembo, A. Breton va boshqa syurrealistlarning poetik ijodida ham kuzatadi. Ular yangi axloq yaratishga qanchalik harakat qilmasinlar, tarixiy-an'anaviy axloq normalari o'zgarmadi; Iso o'g'irlari hamon yashovchandir. Ammo badiiy-estetik isyonda ijodkor ruhiy-hissiy olamini rang-burmlashtiruvchi pozitiv jihatlar borligini, ayniqsa bu syurrealist munavvirar asarlarida ko'zga tashlanishini unuttirib bo'lmaydi"¹. Darhaqiqat, yozuvchining ong va tuyg'u idrokida shakllana borgan qahramon botinidagi ISYON odamlarning fojicaga g'irfor bo'layozgan asl sabablarini ochiqlashga qaratilganligi, modifikatsion tizim muvozanatga bog'liqligi bilan real mohiyat kasb etadi. A. Kamyuning o'zi jamiyat hayoti bilan munosabat yashadi. Uning "Yabo", "Begona" singari qahramonlari hayotdan ma'ni axtarib yashadi. Bu haqda "Isonkor odam" kitobida atroflicha munosabatini asoslaydi: "San'at bir paytning o'zida ham e'tirof, ham inkor etuvchi hodisalar sirasiga kiradi. "Bironta ham san'atkor voqelikka oxirigacha dosh berolmaydi", deydi Nisise. Bu haqiqat, biroq birona ham san'atkor voqelikni chetlab o'tolmasligi ham haqiqat. Ijod – vahdatul vujudga intilish, shu bilan birga mavjud olamdan qochish, uni inkor qilish hamdir. Biroq u olamda o'zligini topolmagani, bu olam o'zligiga mos kelmagani uchunгина inkor qiladi. Bu inkor mohiyatan ibtidoaga, tarix zanjirining ilk halqalariga, olam e'zgulik va yovuzlikka bo'lmayotgan pallalarga qaratiladi. Isyon – olam bo'lmishidan boshlangan. Shu sababli san'at isyonning mohiyatini bizga to'la ochib bera olavchi vosita bo'lishi ham mumkin"². Ulug'bek Hamdamning qahramoni Yusuf, Akbar, Samandar – o'z vujudida doim yaxshiilikning mevasini

¹ <https://th-davron.uz/yangiliklar/viktor-alimasov-isyonkor-odam.html>

² Kamyu A. Isonkor odam. https://ijodkor.ckan.su/publ/khorizh/ilmij_ma-ildur/isyon_va_sanat/32-1-0-179

totib yashash, undan keluvchi izi trobni ham to'g'ri qabul qilishga intiluvchanligi bilan bir-birini to'ldiruvchi obrazlar sirasiga kiradi. "Yolg'izlik" qahramoni ismsiz. U parda orqasida ibodat qilayotgan taqvodor. Tavba tazarrusi Allohga qaratilgan mardum. O'zligini qidirayotgan oshiq. Ikki dunyo saodatini qo'masb yashaydigan olim hamdir. Aynan shunday hal qiluvchi streotip qarorlar chiqaruvchi obrazning sirliigi ham shundadir. Ijodkorning hech birida uchramaydigan bunday qahramonlar botinida KATTA umuminsoniy falsafalar tug'iligi mavjud:

"Alamzadalik asta-sekin chekilib, o'rmini nafrat tuyg'usi egallab olayotgandi. Ha, boshqa chora qolmagandi, Yusuf nima bilandir hayotini izohlashi, voqelikning ketma-ket tushayotgan zarbasidan o'zini himoya etishi zarur edi. Inchunun, nafrat alamzadalik bosqichidan bir pog'ona yuqorida turardi... U, avvalo, davrning, atrof-muhitning ta'siriga berilib alamzadalik holiga tushgani uchun o'zidan nafrat qilardi. Axir shuncha ilmu urfoniga qaramay, zamon bir aylanib kelganida uning ham boshqalardan deyarli farqi qolmadi. Ikkilanishlardan o'zini saqlay olmadi... Axir u bularning barchasidan yuqoriroqda qolmog'i shart edi, o'zining nazdida. Lekin bo'lmadi, u — mag'lub! Ayni damda, Yusuf bag'ridagi keskin nafrat odamlarga ham yo'natirilgan edi".¹ Farzand dog'ida esankirab qolgan Yusuf moddiy dunyo havaslaridan tamomila qo'l uzgan, ketma-ket tushayotgan fojearlar uni chigal sinovlarga ulotirgandi. Mana shu paytda inson irodasining badiiy talqini yuzaga keladi. Yozuvchi ana shu pog'onadan turib asar voqeligini kuzatadi. Konstepsiya ham aynan shu maqsadni ifodalashni o'z zimmasiga oladi. Qissa va roman poetikasida uzviylikni boshqarish hamda voqelikni tartiblashtirish ijodkorning dunyovqarashidagi uzil-kesil o'zgarishlarning qaysi va qanday holatda ekanligini yaqqol ko'rsatib turibdi. Yusuf va Amir ikkisi ikki qutb. Bir qorindan tushgan bo'lishiga qaramay, olamga va hayotga, odamlarga munosabatida ham bir-birini sira takrorlamaydi. Yozuvchi aynan xilma-xil obrazlar negizida jamiyat hayotiga zindan nazar tashlaydi. Natijada o'z ko'zlagan ijodiy konsepsiyasiga ham erishadi.

MunAQid Q.Yo'ldoshev e'tirof etishicha: "Qanoatsiz odamga

hukm qilish hamma zamonlarda ham mantiqsiz tuyulgan. Chunki odam o'z hayotini o'zi boshlamagani singari, uni xohlagan yo'nalishga harbiy yuborish, istaganda tugallash ham uning ixtiyorida emas. Qonmini o'zgartirish yo'lidagi urinishlar silsilasi ya'ni teskari natijani keltirib chiqaradi. Shoh Edipni eslaylik: u taqdirga chap beraman deb, tadbirkorlik qilgani sayin fojiasi chuqurlashaveradi. Taqdir talhiga aralashmoq, uni o'zgartirmoq odamning qo'lid an kelmaydi, barcha mutasavvuf adiblar shunday bo'lishini yaxshi bilishgan va taqdirga tadbir ko'radigan emas, balki unga peshvoz chiqadigan qahramonlarni tasvirlashga e'tibor qaratishgan. Shuning uchun ham Farhod o'limdan qo'rqmaydi ham, qochmaydi ham, balki unga intiladi. Chunki u qismatning Xusrav emas, qudrati zot tomonidan buyin etilishni biladi". Bu fikr-mulohazalar Ulug'bek Hamdam ning asarlaridagi barcha qahramonlar uchun birdak ta'rif bo'ladi desak, aslo mubolag'a qilmaymiz. Negaki, Yusuf ham alaloqibatda taqdirga tan berishga mahkum ekanligini tushunib etadi. Kishi moliga xiyonat qilmagan — Allohning eng suyuqli bandalaridan biri ekanligini anglay boradi. Akasi Amir dan farqli o'laroq, u moddiy dunyo muvozanatini ushlay bildi. Agar u akasi kabi yo'l tutganida roman boshdan-oyog' fojearlar silsilasidan iborat — absurd qahramonlardan turib topgan bo'lib qolardi kitobxon uchun. Deylik, Gulshoda taqdir qutboni. U o'z hayotidan to'yib, mudhish fojearga qo'l uradi. O'z joniga qasd qilish — uning sinovlarga dosh berolmaganidan, boshiga tushayotgan musibat, kasallik va yo'qsillik ojizani mayib-majruh qilib tashlaganligi ishonarli holat.

Yozuvchi ikki asarda bir-biriga o'tib turuvchi katta bir syujet liniyalarini yagona estetik markazda uyushtiradi: qissa voqeligida lirizm bilan falsafiy mushohada zalvori o'zaro uyg'unlashib, ba'zan xotirada qayta tiklanayotgan bolalikning beg'am lahzarlariga tasnailik hukm sursa, ba'zan tabiatan kuchli iroda sohibi bo'lgan obraz kechimalari namoyon bo'ladi. Ayni shu lirik tasvirga xos zalvori mushohadalar tizmasi ritmik modifikastiyani muayyanlashtiradi. Romanda esa Yusufning real hayotdagi qarashlari an'anaviy tusda tanqidiy munosabatlilik nutqida namoyon bo'lib, sodir bo'layotgan barcha hodisalarni *tahlil* qiladi, *baholaydi*, ulardan tayinli *xulosalar* chiqarishga odatlantiriladi.

¹ Ko'rsatilgan adabiyot, -B, 195.

"Yolg'izlik" yozib tugallangan vaqt bilan "Muvozanat" romani

e'lon qilingan vaqt orasida bir necha yil farqlanadi. Yozuvchi bu davr oralig'ida "Isyon va itoat" romanini ham o'quvchilar hukmiga havola qilib ulgurgan edi. "Janr taraqqiyotining progressivlik yoki regressivlik xususiyati esa har bir roman individualligi bilan bog'liq. Romannavis yozuvchining vazifasi roman badiiyatini ta'minlash bilan cheklanmaydi, u jamiyat taraqqiyot tadrijini falsafiy mushohada qilish va mantiqiy anglash orqali badiiy talqin uchun jalb etilayotgan jamiyat tafakkuriga monand roman tafakkurini yaratadi"¹. Adabiyotshunos olimi Z.Pardaeva talqinida roman uslubini yuzaga keltiruvchi maxsus komponentlar tadrijini baholamoqda. Roman tafakkuri inson ongida, ruhida kechayotgan poklanish (katarsis) jarayonini ko'rsatishga qaratilganligi bilan real mohiyat kasb etadi. Ayniqsa, "vaqt"ning beayov tilsimlarida qahramon botinida sodir bo'layotgan o'sish-o'zgarishlar ong va tuyg'udagi tahlil malakasini individuallashtirib, inkor talabiga ham muayyan darajada javob topish imkonini beradi.

Poetik talqinda pafos va yozuvchi "men"i tushunchasi. "Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati"da Pafos (gr. Pathos – hissiyot, ehtiros so'zidan) jo'shqinlik. Asar pafosi – yozuvchini maftun etadigan va butun asarga singib ketgan g'oya, his va hayajondir. Pafos bilan yozilgan asar deganda xuddi shuni anglash lozim. V.G.Belinskiy, badiiy asarni o'rganish va tahlil etishda, hammadan ham avval undagi pafosni belgilab olish ma'qul, deb hisoblaydi. Pafosli nutq jo'shqin, hayajonli nutqdur².

Pafos haqida shuni qayd etish joizki, u asarda butun boshli voqelikni o'zida aks ettirish yo'sinida namoyon bo'la boradi. O'quvchini notanish bir hayot manzarasi bilan tanishtirish bobida yozuvchi hech ikkilanishsiz qadam tashlaydi. "Yolg'izlik"ni bir maxrajda aks ettirishda pafos benihoya katta vazifa bajaradi. Adabiyotshunos D.Quronov "Gegel estetikasida pafos juda muhim o'rin tutadi, u san'atning o'zagi, "san'at saltanati"ning asosi sifatida talqin qilinadi. Gegelga ko'ra, pafos inson mohiyatini tashkil etuvchi ob'ektiv mavjudlik, qalbni harakatlantiruvchi qudratli kuch bo'lib, ijodkor

o'z asarida uni ifodalashni maqsad qiladi, ya'ni muayyan pafosni ifodalash san'at asarining muaddaosi, ijodning motividir. Shu asosda Gegel ijodga turki beruvchi motivlar, pafos ko'rinishlari sifatida "valla", vatan, davlat, cherkov, shon-sharaf, do'stlik, g'urur, nomus, muhabbat" kabirlarni ko'rsatadi. Gegel ta'rifidagi pafos ko'proq asar personajlari bilan bog'liq bo'lsa, V.Belinskiy uni ijodkor shaxsi bilan bog'laydi¹.

Demak, "Yolg'izlik" qissasini o'qib berayotgan qahramonning o'rtog'i – asar voqeligida juda katta rol o'ynaydi. Badiiy pafos teran iltizim bilan sug'orilgan bo'lib, qahramon asarda yuzlab kechinmalarni ro'y-rost ifodalash yo'lida ancha-muncha "izmlarni uyg'unlashtirib yulboradi. Buni hammadan darig' tutgan "yon dafarcha"da yozuvchi lekki bir musiqiylik bilan yorqin ranglarda ro'yobga chiqarishga erishadi:

"Hammagini tushunib, hatto mazasini bilib turibman. Men go'yo sahna asarini miriqib tomosha qilayotgan tomoshabimman. Qizig'i shundaki, aktyor ham o'zimman. Shu bilan birga tomoshabin bo'lib aktyor – A.ni kuzataman, aktyor bo'lib esa tomoshabin A. niholini shundoq borlig'ida his qilaman. Men senga achinganim kabi o'zinga ham xo'rliгим keladi, ey Do'st! Qani endi qo'lindan kelsa-yu seni ozod etganimdek o'zinni-da bu sharmandalikdan xalos qilsan! Axir, men o'zinni o'zim, ya'ni o'zligimni qanchalar sog'inganini bilsang edi. Nahotki, o'zi bilan o'zi bo'lishni istashlik Xudoga yoqmasa? Axir, Xudoning O'zi mendan ayro emas-kul! To'g'rirog'i, men Undan alohida emasman. Balki meni sog'itirgan qismin Xudodan bir parchadir... Nima bo'lgandayam, qiyinatib keldim, ko'ksimdagi yuragim go'yo qonga qo'shilib butun vujudim bo'ylab nimaningdir qasdidan kezib yurgandek..."².

Qissa poetikasida iymon va e'tiqod borasida juda katta falsafiy mazmun aks etadi. Yozuvchi xuddi Kafkaga o'xshab qahramonni bosh harf A.deb nomlaydi. Bu shtrix yozuvchiga botinning hali tushqariga aytilmagan bir qismi mavjudligini bildirib turibdi. Yozuvchi botinini to'latig'icha – ifodalamagan. Parda orgasida gizli

¹ Pardaeva Z. O'zbek romani poetikasi. –T: "Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti". 2003. –B. 30-31.


² Homidiy H., Abdullaeva Sh., Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. –T: "O'qituvchi". 1967. –B. 162.

¹ Quronov D. va boshq. Adabiyotshunoslik lug'ati. –T: "Akademnasht". 2013. II, 220.

² Hamdamov U. Yolg'izlik. –T: "Yangi asr avlodi". 2019. B. 12.

bilan olamning bir qismini yulib olib, o'quvchiga uzatgan darveshga o'xshaydi. Uning real hayotdagi tutinlari va Yaratganga tashnalik ehtiyoji tobora – mustahkamlashib, mukammallashtirib boradi. Ramziy-majoziy tasvirga yashirilgan “voqelik” tugallik emas. Unda butun bilan qismining o'zaro ziddiyatlari aks etishi tayin. Shu ma'noda, “... botinan sof ruh sifatidagi ilohiy ibtidoiy asos faqat faol fikrlovchi aql predmetini qaror toptiradi. Faoliyatda moddiy tus oluvchi ruh inson qalbi bilan uyg'unlashib, san'atning mohiyatini tashkil qiladi. Shunga qaramay, bu erda xususiy manfaat va intilishlar, muayyan xarakterlar, ularning turli ko'rinish va holatlari, umuman tashqi sharoitlar bilan qorishish yuz beradi, shuning uchun bunday muayyanlik bilan ideallik o'rtasidagi aloqadorlikni tavsiflashga ehtiyoj tug'iladi”¹. Ulug'bek Hamdam qissasidagi qahramon ana shunday mohiyat bilan ziynatlangan obrazdir. Unda ham moddiyat, ham ruhoniyyat uyg'un holda kelishi – donishmandona fikrlash tarzini bargorolashtiradi. Negaki, ilojisizlikdan ibtido olayotgan hodisalar qahramonni jiddiy sinovlarga grifor qiladi. U nafaqat oilasida, yaqinlari orasida, balki ichida yolg'iz. Shu qadar yolg'izki, borliqdan mujda kutib charchash bilmay yashaydi.

Pafos va g'oya. Inson ongida kechayotgan turli-tuman hodi-salarni bir nuqtaga jipslashirganda romanij tafakkur qay tarzda tartiblashganini bilib olamiz. “Yolg'izlik” qissasida turli-tuman “izn”larning sinkretik birlashuvi qismlararo uzviylikni ta'minlashga xizmat qiladi hamda qissadan-romanga, hikoyaga aylanish jarayonini quyidagi jadval asosida aniqlaymiz:



“Yolg'izlik” qissasidan o'sib chiqqan badiiy g'oya yozuvchining xarakterni shakllantirish bosqichlarida “Xilma-xil” temperamentni yuzaga chiqaradi. Bu ayniqsa, “Muvozanat” romanida ijtimoiy munosabatlar tig'izligida, “Isyon va iftoat”da diniy-ma'rifiy kiritmalar fonida, “Sabo va Samandar” romanida ishq timsolida namoyon bo'ladi. Ulardagi qahramonlar o'z elkalariiga nihoyatda og'ir yukni oladi. Ulug'bek Hamdam bitta qissa va uchala romandagi oshiq ham, ota ham, taqvodor ham, ziyoli ham, mazlum ham, begona ham bir-birini to'ldirib, mukammallashtirib, hayot atalmish KAITA sahnada o'z rolini ijro etayotgan tragik qahramonni yodimizga oladi. U qahramon jisman tirik va ruhan jamiyat tutumlarini tegirmonida parcha-parcha bo'lgan orif, oshiq va zohiddir. Hayotning keng qamrovi epik surati “Yolg'izlik” qissasida nihoyatda siqiq va zalvor bilan berilgan. Asarning muayyan bir nuqtasidan olib – qandaydir bir voqelikni kashf qilish mumkin. Negaki, asardagi badiiy pafos va yozuvchi uslubida jalvalangan dunyoqarashlar sintezi shunday asosdir.

¹ Gegel. Estetika. <https://sav'ya.uz/ijod/musi/estetika/?imlo=k#>

Umuman, Ulug'bek Hamdam talqinlarida ritm va pafos asosiy va yordamchi epizodik personajlar xarakterini to'laqoni chizishda muhim atribut hisoblanadi. Mazkur intizom "kecha-bugun-ertaga" tarzida vogelikni barqarorlashtirib, azal va abad orasida kechadigan insonlararo kurashning asl sabablariga kirib borishga yo'l ochadi. Rumi va Navoiy poetik olamidan bahra olgan yozuvchi zamon kishisining og'riqlarini teran idroklaydi. Millat va shaxs fojiasini bitta inson botinida yashab kelayotgan illat va xato deb biladi. Undan qutulishning yo'sinlarini xilma-xil taqdirar timsolida qaytadan yaratib, axloq va din, jamiyat va ziyoli, oshiq va ma'shuqlar birligida anglashga diqqat qaratadi. Mukammal bir olamni qo'rsab yashash Ulug'bek Hamdam badiiy izlanishlarida o'ziga xos halqani tashkil qiladi. Zero, inson qaysi davrning farzandi bo'lmasin, hamisha o'zligini, INSONligini saqlab, intilib yashashga da'vatida yanada yorqin suratlarda qabarib ko'rinadi.

PSIXOLOGIK TASVIR VA BADIY TALQIN SINTEZI

Bundan o'tiz yillar oldin adabiy hayot solnomasida boshqacha bir usulda asar bitish "urf"ga aylangan kezlarda G'arb adabiy-estetik tafakkurining endi-endi kurtak ota boshlayotgani ayni haqiqatdir. Lekin A'zam va Muvo Muhammad Do'stning g'ayritadiy hikoyalari adabiy realizmning imkoniyatlari benihoya kengligi, Xurshid Do'st Muhammad, Nazar Eshonqul, Shodiqul Hamro asarlarida modernistik talqin ustuvorligi namoyon bo'lib, olam va odamning asrorlarini badiiy matn negizida tahlil qilish ehtiyoji kuchayib borayotganidan dalolat berardi. 1990-yillari ilk hikoyalari bilan adabiy sahnada ko'zga tashlanayotgan yigirma uch yoshga endigina to'lgan Isajon Sultonning "Munjo'ot" qissasi boshqacha shakl va uslubda asar yozish mumkinligini isbotlab berdi. Neomifopoeik tafakkurning qissa poetikasida aks etish tadriji shunday deyshimizga sabab bo'ladi. Rang-baranglik shaklda emas, uni ifodalash tarzida ham bo'lishi tayin. Negaki, Isajon Sulton Farq'onaning Avazboy nomli mo'jaz qishlog'idan chiqqan tuyg'ulari sof va umiddi yosh ijodkorning ilk mashqlarida aynan turli xil adabiy priyonlarning sintezini ko'rish mumkin bo'ladi. Nazarimizda, yozuvchi ifodada G'arb, vogelikda Sharq falsafasini teran o'rganib, yangicha yozishning uddasidan chiqishni isbotlab berdi. Bir qarashda adib asarlari xuddi Ulug'bek Hamdam kabi qishloq va shahar orasida kechadigan personajlarni yodimizga solsa-da, vogelik tamomila boshqacha tusda javdalanadi. Buni ushbu faslida tadqiq qilib ko'ramiz:

"Munjo'ot"ni, umuman, Isajon Sultonning barcha asarlarini boshdan-oyog' diqqat bilan o'qishni tavsiya qilardim. Chunki yozuvchi har bir jumlagi, jumlagi aks etgan u yoki bu tabiat hodisasiga qandaydir ramz-ma'no joylab ketgan bo'ladi. Isajonning ijodiy dunyosi go'zalliklari, nafosatidan bahra olmoqchi bo'lgan o'quvchi birinchi bo'lib "Munjo'ot"ni o'qishi va chuqur his qilishi lozim. Uning qolgan asarlarida dunyoqarashi, tafakkur ko'lamini kengaytib, butun olam miqyosida tiriklik sir-sinoatini tushunmoqchi bo'layotgan G'aribning turli nom va ko'rinishdagi qiyofasi namoyon bo'ladi. Aytmoqchimaniki, Isajonning barcha asarlarining bosh qahramoni "Munjo'ot"dagi G'aribdir. Faqat nom va muhit o'ziga. Balki Isajon

kitobini G'arib deb nomlaganda ma'qul bo'larmidi deb o'yladim".¹ Shuni qayd etish lozimki, 23 yoshida "Munjo'ot" qissasini e'tlon qilib, adabiy davrlarda tilga tusha boshlagan bo'lajak yozuvchining qahramoni o'lam va odam muammosini bilishga qiziqqanligi bilan e'tirofqa loyiqdir. Yozuvchi G'arib timsolida butun bir bolalarga xos ziyiraklik va zehniyatni kashf qiladi. G'arib timsolida bolalik degan ulkan hayotni, pokiza bir dunyoni anglashni maqsad qiladi. G'arib timsolida Vatanni sevisini nozakat bilan uqitadi. Bu Isajon Sulton talpingan idealning eng asosiy fenomenidir. G'arib – kuchli zehniyat sohibi. Uning tabiat hodisalarini, odamlarning o'zaro munosabatini, mehr va muhabbat nimaligini Yaratganning chumolisi timsolida anglashning uddasidan chiqadi. Bola ruhияtida kechayotgan uzil-kesil o'zgarishlar Navoiyning Farhodi, Qodiriyning Otobeji, Xurshid Do'st Muhammadning Fozili, Ulug'bek Hamdam ning Yusufi kabi moddiy va ma'naviy muvozanatga mudom intilib yashayotgan qahramonlarning biridir.

Adabiyotshunos Ulug'bek Hamdam "Munjo'ot" qissasiga yozgan so'z boshida shunday e'tirof mavjud: "G'arib – yozuvchining o'zi. San'at mag'zida. Aslida, o'zini o'zi ifoda qilish yotadi. Nazarimda, G'arib obraziga kirgan og'riq – dard yozuvchi ko'nglida uzoq vaqt yashagan, uni qiyinagan. Xuddi G'aribni o'z holiga qo'yimagan, nihoyat, qog'ozga suvrat shaklida tushgan Mashrab yoki Munjo'ot siymosi yanglig'. Lekin ba'zi o'rinlarda yozuvchi G'aribdan ajralib chiqadi va boshqa odam bo'lib gapiradi".² Binobarin, yozuvchining G'arib obrazi narsa va hodisalariga o'z shaxsiy munosabatini bildirib yashaydi. Mulohaza va munozaralarida buni yaqqol kuzatamiz. Bir qarashda Isajon Sulton Ulug'bek Hamdam e'tirof etganidek, muallifning ongi va dunyoqarashi – G'arib timsolida bir markazda jipslashgan. Aynan G'arib obrazi yozuvchining boshqa asarlari uchun "yurish bosqichi", "anglash manerasi", "tug'u va ong yaxlitligi", "ijodiy konstepstiya badiiy takomil" kabi taassurot uyg'otadi. Negaki, G'aribning zehniyatidagi uzil-kesil o'zgarishlar modifikatsiyasi talqin bargorlashuviga keng yo'l ochadi.

¹ Rahimjon Rahmat. "Munjo'ot"dan "Boqiy darbadar" gacha. Isajon Sulton nasri badiiyati. –T: "Turon zamin ziyo". –B. 93.

² Hamdamov U. Oydinbuluq oydinligi. Isajon sulton nasri badiiyati. –T: "Turon zamin ziyo". –B. 146.

Tadqiqotchi M. Boboxonov: "Yozuvchi mavjud vogelikni, hayotdagi hodisalarini badiiy talqin etar ekan, o'z g'oyaviy maqsadini anglatish, asar markazidagi asosiy qahramonlar tiynat va siyratini namoyish etish uchun turli adabiy usullarni ishga soladi. Ba'zida bosh qahramonning o'zini so'ylatib, o'zini ko'rsatadi, ba'zan esa butun borlig'idan nafs yog'ilib turgan kimsalarga yoki qalbi toza, iymoni pok kishilarga duch qiladi. To'qnashuvlar, subbatlar, tabiat manzaralari, munozaralar yoki lirik kechimalar orgali vogelalar rivoji echimga qarab siljiydi, qahramonlarning ichki va tashqi dunyosi ochiladi".¹ Darhaqiqat, keltirilgan manbaga qo'shimcha tarzda shuni ta'kidlash o'rinni, yozuvchi-qahramon-kitobxon uchligi asardagi turti-tuman vogelik darajalarini anglashda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, ijodkor o'zi va o'zining qalbi shu urda "qaynab" toshgan vogelalar siylasida qahramon kechimalarini ulkan muhabbat bilan tasvirlay oladi. Qayta ishlaydi, takomillashtiradi, tarbiylashtiradi. Vogelik bayonida badiiy sintez masalasi o'zining maromida chiziladi. Adol opaning va Malika opa munozaralarida hali tug'ilagan bolaga ism qo'yish kerakligi haqida so'z yuritiladi. O'zbek xalqida bolaga ism qo'yish va unga shunday niyatda ilk vazifa yuklatish an'ana tusini olib, qadriyatga aylantib ulgurdi. Masalan, Alpomis, Bahodir, Jaloliddin, Temur kabi qahramon va jasur shaxslar kabi butun bo'lishligi uchun qismatiga yaxshi niyatlar muhlamlanishiga duo qilinadi. Bunday usul Isajon Sulton asarlarining asosiy fragmentlarini tashkil qiladi:

"Yoz oxirlab bormoqda edi, tevarak-atrof sezdirmasdan tanazzul fastliga tayyorgarlik ko'rar, yalpizning sarg'aya boshlagan bandi, suvning endilikda to'q, zangor tusga kirishi, jiyda barglarining birma-bir to'kilishi va nihoyat, haddan tashqari tiniq, zangori osmondan kuzning sokin nafasi ufuq turardi. Bolakay bir zunga chumolidan nigohini uzib, yalpizning ham juda qariligini ko'rdi, sho'rlikning tanasi yo'g'onlashib-semirib, ko'pdan-ko'p bachki shoxchalar chiqarib yuborgan va isi ham avvalgi singari nozik-nafs emas, quyuq hamda achqimtirroq edi. Hatto salom-alik o'tining urug'i-da o'simlikni qariganini, shuning uchun ham urug'ini erga sochib yuborganini ta'kidlab turardi. Chumoli timmay chitranaverdi

¹ Boboxonov M. O'zbek qissalarida badiiy psixologizm. –T: "Bayoz". 2014. –B. 108.

va pirovardida, tuyqusdan sip-silliq orgasi yorildi, yoriqlaridan oqish-zahrining o'tkir isi tutib ketdi. Shunda ham urug'ni tortib olmoqqa tirishar edi. Birdan bolaning ongida nimadir yargillab ochilib ketganday bo'ldi, tomirlari bo'ylab allanima oqa boshladi. Tevarak-atrof juda keksa, haddan tashqari keksa edi, olam xuddi munkillab, qarib qolgan cholg'a o'xshardi. Bahorda erdan unib chiqqan maysa ham aslida millionlab yillar avval tug'ilib bo'lgan edi. Unda... unda nima boqiy? Azal-abad yosh va navqiron nima bor bu garduni dunda? Abad yoshlik xuddi abad qarilik singari mazmunsiz emasmi? Bolaning dilini avvalgisidan ham kuchiroq bo'lgan dahshat egallab oldi va tura solib, ho'ngrab yig'lagancha onasining yoniga chopib ketdi...¹

Ushbu parchada murg'ak G'arib ko'nglida uyg'onayotgan bilim va tasavvurlar, shaxsning kamolot pillapoyalari, olam sirlarining, tiriklik nima degan savolga xos javob topishga urinishi yaqqol ko'zga tashlanib turibdi. Ayniqsa, yozuvchi buni psixologik tarang vaziyatda qolgan G'aribni katta imtihon sari tayyorlaydi. Bir qarashda dunyoning o'tkinchiligini anglash orqali jonivorlar, o'simliklarning ham abadiy abad emasligi, ularning tirikchilik vajida kechayotgan umri alaloqibada xazon bo'lishidan chuqur qayg'uiga botadi. Yozuvchi G'aribning botinida hayotni anglash borasidagi iztirobning tobora teranlashib, kattalashib borayotganini tasvirlar ketma-keligidan ifodalab boradi. "Yosh bolaning qalbini mashhur psixanalitik Karl Gustav Yung ziddiyatlar o'chog'i deb ataydi. Olim deydi, yosh bola kelgusida normal shaxs bo'lib etishishi uchun doimiy ravishda tirik tabiat bilan mulqot qilishi lozim". Demak, yozuvchi G'aribning bola tasavvuridagi bilgan narsalarini va ularga ta'sir etuvchi sabab-oqibatlarini ham bir nuqtaga jamlaydi. Bolalik G'arib uchun katta falsafiy-estetik maydon hamdir. Ona va bolaning uzundan-uzun subbatlarida hayot haqiqati asta-sekinlik bilan ochila boradi. Asarni Isajon Sulton ba'zi ramziy-majoziy talqinlarni hisobga olmaganida – avbiografik qissa deb, e'lon qilisa ham hech narsa yo'qotmaydi. Qissada voqelik qavatlari yashiringan ma'ning o'ziga xos

¹ Sultonov I. Munojot. –T: "O'zbekiston", 2010. –B. 120.

² Rahimjon Rahmat. "Munojot" dan "Boqiy darbadar" gacha. –T: "Turon zamin ziyor". 2017. –B. 95.

Ilvalarda aks etishi, tabiatning sirlí-sehrlí hodisalarini bosqichma-bosqich anglab borishi qahramonga olam-olam zavq berishi bilan birgalikda unda kuchli impulsni yuzaga chiqishiga zamin hozirlaydi.

Yozuvchi Abduqayyum Yo'ldoshev: "Po'rtana tinib, suv yuzasidagi kashshaklar oqib ketganidan so'ngina "yarq" etgan asarlar orasida ko'zga tashlana boshladi. Mening nazarimda, uzoq davom etgan shevrlardan so'ng aloha adabiyotimizda yangi, ovozi "ikki daryo oralig'ida" qolib ketmaydigan avlod paydo bo'lgandek. Ajab emas, shu yaqin yillar ichida adabiy iste'molga "Nazar Eshonqul, Ulug'bek Hamdam, Isajon Sulton, Bahrom Ro'zihammadlar davri" degan ismlar kirib kelsa. Eng muhimi esa – mening nazarimda, albatta – adabiyotimizda Erkin A'zam, Shuhrat Rizaev timsolida Shaxslar paydo bo'ldi...". Qayd etish joiz, yangi zamon nashi xilma-xil ifoda uslublari bilan boshqachalikda qabarib ko'rinadi. Chunki keltirilgan adablar o'z ustlubiy yo'nalishlarga ega. Barchasida ramz – voqelikni idrok qilish malakasini shakllantirishga xizmat qilganligidadir. Unda voqelik yozuvchi ongi va tafakkurida qayta idrok qilinishi, qahramon o'y-xayollarining bir uzvi sifatida bo'y ko'rsatishi dalolatlanadi. Isajon Sulton yaratgan qahramonlarning ko'pchiligi fikr kishisi ekanligi bu jihat Ulug'bek Hamdam da ham millat ziyolisini o'ylanitib kelayotgan og'riqli muammolarni qalamga olganligida seziladi. "Munojot" asarida voqelik G'aribning anglab etgan falsafiy idrok: "Abad yoshlik xuddi abad qarilik singari mazmunsiz emasmi?" iqtiroi boshqa asarlari yozilmasidan oldin endi nish olayotgan maysa kabi kattalashib, yiriklashib, mustakamlanib, keyinchalik romanlarida ham bu o'z ifodasini topib bormoqda.

Psixologik tasvir va muallif "men"i uyg'unligi. Isajon Sulton asarlarining ko'pchiligida psixologik tasvir xarakter individualligini ta'minlash barobarida yozuvchi dunyoqarashini teran va falsafiy uyg'unlikda inkishof qilishga qaratiladi. Badiiy psixologizm har bir asar arxitektonikasida mavjud ijodiy konseptiviyani takomillashtiradi, syujetni jadallashtiradi, xarakterni to'laonli ochib beradi. Shuningdek, unda qahramonlar o'z dunyosini qurayotgan xilma-xil voqelik negizida boriqdagi yashash tarzi qanday kechishini ham anglay boradi. Afsus, keyingi paytlarda bunday asarlar kam

¹ <https://ziyovuz.uz/subbatlar/yangi-avlod-ovozi-su-bat-3/>

yaratilmoqda. Poetik butunlik aynan ruhiy tasvir negizida qahramon xarakterini yuzaga chiqarish bilan o'zlanadi. "Psixologizm – bevosita muallif mulohazasi, qahramonning o'z-o'zini tahlil qilishi shaklida va yoki bilvosita – qahramonlar mimikasi, xatti-harakatini ko'rsatish formasida amalga oshiriladi". G'arib ana shunday "o'z-o'zini tahlil qilish shaklida" yozuvchining ijodiy yutuqlaridan biri sifatida dunyoga kelgan qahramondir. Uning onasiga bergan uzundan-uzun savollari, bilishga ehtiyoj sezgan muammolari kuchi tarang ruhiy vaziyatni yuzaga olib chiqadi. Natijada yozuvchi G'arib o'z-o'zini tahlil qilish bilan yozuvchi ijodiy g'oyasini amalga oshiruvchi obraz sifatida ham bo'y ko'rsata boradi.

G'arib – noodatiy xarakterga ega obraz. Uning tug'ilishida yozuvchi katta hayot haqiqatini chiroyli dalillar bilan bezaydi. Yozuvchining asar yozish vaqtidagi yosh nuqtai nazarini tahlil qilib ko'rganimizda buni yaqqol ko'rishimiz mumkin. 23 yoshga to'lgan yozuvchi "Alpomish" va shunga o'xshash xalq og'zaki ijodining nodir namunalari bilan yaqindan tanish. Folklorga xos noyob tasvir usullari – qissa kompozitsiyasida ijodiy niyat badiiy takomilini yurgizuvchi, shakllantiruvchi uslubiy komponentlardan biri. Adib nihoyatda iste'dodli G'aribning noodatiy fikrlari o'sha dostonlardan topgan bo'lishi mumkin. Bunday deyshimizga sabab, G'aribning biagi'ontligi va jusriligi, boshqalardan ajralib turadigan favqulodda teran mulohazakorligi shunday xulosani beradi. Aynan mana shu jihatlarning o'ziyoq psixologik tasvir imkoniyatlarining kengayishiga zamin yaratadi.

Yozuvchi Isajon Sulton o'zi va asar yaratishga oid shunday fikrlarni ilgari suradi: "Bola tasavvuri bilan o'zimiz ko'nikkan-bilgan manzaralar ortidagi ko'nikmagan-bilmagan manzaralarni izlar edik. Kutubxonalarda kitob ko'p, qay biri duch kelsa o'qiyverar, lekin tobora kuch yig'ib borayotgan tasavvurni hatto fantastik va sarguzasht asarlar ham qondirolmadi. Yozuvchilar o'z quvvai xayolotiga tayanib ming bir manzara va hodisalarni sodir qilar edi-yu, biroq ruh yana nimalarnidir izlayverardi. Bolalar adabiyoti degan dunyoning mag'zini juda qisqa vaqt ichida chaqib ulgurgan va allaqachon undan

o'zib ketgan idrokimiz yanada zalvorliroq ma'nolarni xohlar edi. Bu izlanishni tafakkurning o'sish va singdirish davri deb nomladim, o'zimecha". Aynan mana shu fikrlar ilk qissasining bosh qahramoni G'arib – Isajon Sultonning o'zi va o'z olamini anglatish uchun yuzaga kelgan qahramon ekanligi ayonlashadi. Negaki, asarda G'arib juda noyob qobiliyat bo'lishi bilan bir qatorda, katta insonlardek mulohaza yuritishi, ancha-muncha falsafalar uni hech bir to'liqlantira olmasligi, o'z bilgich xayollaridan boshqani tan olmasligi oydek ravshanlashadi. Isajon Sulton bu erda G'arib timsolidagi murakkab obrazni ich-ichidan his qilib, teran bilib va anglagan holda tasvirlaydi. Natijada uni o'qigan kitobxon hech ikkilanishsiz asar voqeligi anglay boradi. Asarda psixologik jihatdan o'sishning tabiiy o'sish, kamol topish orasida hech qanday bog'liqlik yo'q. U tug'ma qobiliyatligi bilan boshqalardan ajralib turadi.

Ta'kidlash o'rinni, inson tabiatida kechuvchi psixologik o'zgarishlar mutelikni keltirib chiqarishi tayin. Ya'ni inson ongli ravishdp o'z hayotini sintegetik tashkillashtirmasa, uni o'rab turgan muhit qaram qilib olishi tayin. Isajon Sulton asarlarining tub ildizini va ijodiy konseptual markazni – xalq og'zaki ijodidan qildigan ma'qul. Chunki yozuvchi har bir detal, shtrix semalarga folklor obrazlarni singdirib yuboradi va yangi zamon mifini yaratadi. "Tasvirlanayotgan his-tuyg'ular yordamida ko'ra-bilib turib asar yaratish – yozuvchi uchun qonundir"². Isajon Sulton eposdagi kabi rimz va metaforalar negizida o'z olamini bunyod etayotgan shaxs ruhiyatini chizishga erishgan:

"Erning sho'ri bor-ku, shuyam yuradi. U ayyor, yomon, nuqul odamlarni poylaydi.

- Balki devor ham yurar? – dedi ona achchig'i chiqib. Uning orgasidagi sho'r bor-ku, o'sha erda o'tirsam, yugurib kelib devorga chiqib oldi. O'shalar ham uning orgasidan etib kelishibdi. Hadenay Ulfat xolaning uyiga ham kirib olishsa kerak..."³

Mana shu epizoddan ham bilish mumkinki, yozuvchi xalq og'zaki

¹ Sultonov I. "Meni ham turib qo'y, erta uyg'onsang..."// Tafakkur. 2017. -II. 325.

² Qarang: Badiiy ijod asoslari. –T: "G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at instituti". 1960. –B. 100.

³ Ko'rsatilgan adabiyot, -B.124.

ijodining ba'zi tasvir yo'sinlarini o'z olamidagi G'arib timsoliga uyg'unlashtirib chiroyli bir tarzda aniqlashning uddasidan chiqadi. G'aribning g'ayridatiy fikr-mulohazalarida katta va universal falsafiy-psixologik kayfiyatni topish mumkin.

Adib talqinlarida sho'ro siyosatida ezilgan, umri bo'yi mehnatdan chiqmaydigan qahramonlarni ertakona, dostonona epik ko'lam bag'rida qayta tashkillashtiradi. Bu erda hech qanday mafkuraviy tazviy iskanjasida qolgan qahramon haqida so'z yuritmaydi. Biroq tasvirdagi qahramonlarning o'zaro munosabatlarida yozuvchi "tasvir gavritida tasvir" usulini qo'llaydiki, buni zehniyati o'tkir kiroboxon darrov payqaydi. Adib ana shu zaylda "Munjo'ot"ni sistem butunligini ta'minlay olgan.

G'arib – tabiat bilan yaqindan tilashuvchi murakkab obraz. U "tabiat tili"ni yaxshi anglaydi va uni hayotga ko'chiradi. Ijtimoiy munosabatlar tigi'izligida G'arib yanada yuksaladi. Uni atrofdagi odamlar tushumlasligi ham shunda. Ya'ni odamlar fikrlash, anglash ishlaridan ham boshqa yumushlar bilan band ekanligini yozuvchi kiroboxonga uqtirmoqchi bo'ladi. Biroq uni anglash borasida hech kim yoniga kelmaydi. Mana shu erda qahramonning keskin psixologik kayfiyati zuhur etiladi.

Nazar Eshonqul fikricha: "Freyd inson mohiyati ongli faoliyatdan ko'ra ong osti hissiyotlarda yaqqolroq ko'zga tashlanadi deydi. Ongosti tasavvurlari va kechinmalar o'zini shaxsga ruhiy-hissiy ramzlar orqali bildirib turadi. Ammo ongli faoliyat bu ramzlarga e'tibor bermaydi. Oqibarda ong osti faoliyati o'zini ko'rsatish uchun betinim tuynuqlar izlaydi. Ruhiy evrilishlar, depressiyalar, asabiyliklar asosida ana shu holat – ongosti mayllari inson ruhida o'zini namoyon qila boshlaganini bildiradi".¹ Mana shu jihatlarning o'ziyog G'aribni to'laqonli anglashga yo'l ochadi. Demak, insonning ong osti tuyg'ularining muayyan bir predmet, shakl, mazmun kash etishi yuqoridagi ruhiy zo'rliqlar negizida yanada ochiq-lana boradi. Ramziy timsol – majozga evrilgan inson faoliyatida har qanday tabiat hodisalarini "gapiruvchi", "fikrluvchi", "izlanuvchi" mohiyatga aylanadi. G'arib ana shu jihatlari bilan boshqalarning olamidagi yiroqlashadi. U anglab va anglatish ilinjida hayot kechirish

haroratini o'zida singdira boradi.

Isajon Sultonning "Munjo'ot" qissasida G'arib obrazining murakkab va ramziy timsol darajasiga aylanishi boshqa asarlarida ham yaqqol namoyon bo'ladi. "O'rmondagi kulba", "Ota qasidasi" dagi o'g'il, "Onamga nimadir bo'ldi" hikoyalari misol bo'ladi. Ayniqsa, "Onazorim" qissasida – qishloq hayotini, u erda yashovchi odamlar ruhiyatini, ichki olamini xilma-xil tasvirlarda ifodalashga erishadi. Hincobin, "Onazorim" qissasidagi ba'zi obrazlar "Munjo'ot" qissasida identifikatsiya qilinadi. Chunki mana shu jihatlarning eng muhim qirralari aynan har ikkala qissada mutanosib tasvir poetikasini yuzaga chiqishiga zamin hozirlaydi. Shu jihatdan ulardagi portret, detal va xarakteraro munosabatlarida ham bir-biriga o'xshashlik alomati ochiq oydin ko'zga tashlanadi.

Psixologik tasvir o'ziga xosligi haqida shuni qayd etish joizki, har qanday obraz o'zining ruhiy olamida takomillashadi. Insonni bilish, uni anglash manerasi yozuvchidan ayro holda ro'y bermaydi. Negaki, unda shaxs ruhiyati qahramon harakatlarga ko'chib o'tadi. Bir asardan – ikkinchi bir asarga siljish, yozuvchi dunyosini ranginlashtiradi. Shu ma'noda, har bir obraz sajiyasi mavjud aqidalarini jipslashtirish bilan bir qatorda umumiy kayfiyatni taqozolaydi. "Psixologizmining formatlari turli-tuman bo'lganidek, uning portret, dialog, monolog, tush, psixologik timsollar, hissiy harakalar, peyzaj, gallyustnatsiya kabi poetik vositalari ham rang-barangdir. Ularning har biri qahramon ichki dunyosining yashirin sirlarini oshkor qilishda yozuvchiga qo'l keladi", - deya yozadi prof. H.Umurov. Shuni qo'shimcha qilish joizki, yozuvchi Isajon Sulton va Ulug'bek Hamdam asar vogeliga olib kirgan har bir detalda, ayniqsa, peyzaj vositasiga bot-bot murojaat qilishini ko'ramiz. Jumladan, Isajon Sultonning birinchi qissasi bilan ikkinchi qissasi orasida yigirma yil vaqt o'tgan esa-da, xarakter qirralarini namoyish qilishda ilk "motiv"ning qo'l kelishi namoyon bo'lmoqda:

"Yana bir chaqalog tug'ildi.

U hech nimani bilmaydigan, goh o'zicha kulimsirab, goh chitillab yig'laydigan qiziq bir jonzo' edi.

¹ Nazar Eshonqul. Ijod falsafasi. –T: "Akademnashr". 2018. –B.43.

¹ Umurov H. O'zbek romanida psixologizm prinsiplari, shakllari va vositalari. –T: "Turon-Iqbol" 2011. –B. 245.

Onasi yumushga umab ketganida goho Ra'noqa "Ukangga qarab tur", der edi. Shunda Ra'no qiziqsimib uning qo'l-betlarini ushlab ko'radi. Chaqaloqqa bu yuqmas, g'ingshirdi.

Ona alldari ham o'chmas bo'lib yodiga muhlendi:

Tilimning uzuni-yo, alla.

Yuzimning qizil-yo, alla.

Yuragimning taftiga-yo

Tandirlar qiziydi-yo, alla...

...Olasining davlati yo'q, alla-yo alla.

Onasining rohati yo'q, alla-yo alla...

So'zlariga e'tibor berarmidi? "Yuzimning qizilligi sen tufayli", dermidi onasi? "Sen bo'lmasang somonday sarg'ayardim, Xudoyim etkazganiga ming shukar" dermidi? "Tilimning do'stu dushman orasida uzun bo'lishiyam sendan, axir... Yo'qsa, orzu-armonlarim mo'l edi, endi esa yuragimda taftiga tandirlar qiziydigan darajada lahcha cho'g'lar bor, jonim bolam", deb kaytlarmidi allasini onazor? Goho xotinlar to'planib, childirna chalib qo'shiq ham aytar edilar:

Tolein bo'lsa edi, yongan chiroq o'charmidi?

Men suyangan tog'larim osti bilan ko'charmidi?

Yig'lay-yig'lay tinqib, keyin yamachaqchaqlashib o'tiraverishardi.

Qizgina ular kiygan ko'ylaklarga, taqinchoqlarga e'tibor berar,

tezroq katta bo'lgisi, mana shunaga guldor ko'ylaklar kiygisi,

taqinchoqlar taqisi kelar edi¹.

Mazkur qissadagi tasvirlarda Ra'noning qismati, bolaligidan to'ulg'aygunga qadar kechmishlari aks ettiriladi. Ayniqsa, bolalar ruhini teran anglagan yozuvchi bu erda tasvirga juda ko'plab psixologik holat, vaziyatlarni singdirib yuboradi. Bir-biriga mantiqan bog'langan tasvirlar ketma-ketligida psixologizm yozuvchi dunyogarashini amalga oshiruvchi asosiy fragmentlardan biri bo'lib qolganligi ayonlashadi. Bot-bot "Ariqcha oqayapsanmi?" savol-javobida umrning o'tib ketayotgani, hayot bergan izitroblar bolalarni bolaligi bilan emas, mehnat evaziga katta qiliyotgani yozuvchini chuqur bir achinishga etaklaydi. Ariqchani oqishi — umrning foniyiligi, odamzod o'zi yashab turgan hayotning bir parchasini anglab

olmoqmasdan o'tib ketish instinkti bilan o'rallashib qolishi haqida ham yondir. "Yozuvchi har bir qahramonning ovozi, yuz ifodasini, kechimasini, so'zlash uslubini berish uchun, uning xatti-harakatini, huda yo'nalishini, asoslash uchun, albatta, o'sha qahramonlarning qiyofasiga kirishi shart qilib qo'yadi. Buzir, yozuvchi qahramonning o'sha sharoitidagi, ayni shu vaziyatdagi qalb holatining o'ziga mosligini tasvirlay olmaydi. Darvoqe, tasvirlanayotgan shaxs bilan yozuvchining shaxsi o'rtasida o'xshashlik bor...". Shuning uchun ham har bir personaj to'laqonli o'z "men"i bilan asar kompozitsiyasida qiyosdir vazifani bajarish uchun harakatlanadi. G'arib va Ra'no xuddi aka-singildek, ularning fikrlash tarzi, yashash tarzi, anglash tarzi bir-biriga uyg'unlik kasb etib borganligida deb, hisoblaymiz:

— Ha, ariqcha, oqayapsanmi?

— Oqayapsan.

— Bugun ukam o'lib qoldi.

— Voy, nima bo'ldi?

— Bilmadim... Qo'rqib ketyapsan, ariqcha.

— Qo'rqma...

— Yaxshi bolacha edi... Qo'lchalarini o'ynatib, chug'urlab yolar edi. Iljayib turib, chuvillatib siyib ham qo'yar edi...

— Ha, ukam yaxshi bola edi.

— Onam nima qiladi endi?

— Bechoraga qiyin bo'пти.

— Yapataman deb, "Onajon, xafa bo'lmang, yana bitta ukacha tug'ib olasiz" desam, rosa yig'ildi.

— Endi sen unga mador bo'li, xayolini chalg'it.

— Olam-chi?

— Olam nima qilyapti?

— U ham yig'layapti. Ammo onamga o'xshab emas. Tomoqlarini

aylanib yuradi-da, keyin boshini daraxtlarga, guvdlak devorlarga

urib-urib yig'laydi.²

Bexosdan Ra'noning ukasi olamdan o'tishi, u ichki izitroblarini

onasiga aytolmasa ham, ariqchaga kelib yig'lab solishi qissada ichki

¹ Umurov H. Badiiy ijod asoslari. —T: "O'zbekiston", 200. —B. 91.

² Sultonov I. Onazorim. <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/isa-jon-sulton-onazorim-qissa/>

bir iztirob bilan tasvirga olinadi. Negaki, iztirob qalinlasha boradi. Yozuvchi ikki jihatda ham mangu iztirob og'ushida qolgan ota va onaning psixologik kayfiyatini teran idroklaydi. Mana shu qirralarda xarakter yanada teran ochiladi.

Har ikki qissada ham personajlarning ichki nutqlari ikki shaklda ro'y beradi, birinchidan, muallif hikoyasida ko'zga tashlansa, ikkinchidan, qahramonning fikrlari, ruhiy kechinmalari bilan ifodalashda ko'rinadi. Qissada ichki monolog usuli muallif dunyogarashini ifodalashning eng muhim shakli sifatida namoyon bo'lgan. G'arib va Ra'no timsolida qahramon nutqi ma'lum o'rinlarda ichki bo'linishga uchraydi. Inkor va tasdiq tushunchasi har ikkala qahramonda hayot chiziqlarida adashishga yo'l bermaydigan konseptual markazni jipslashtiradi. Bir-biriga o'tib turuvchi ikki tushuncha negizida quyidagi holatlarni qiyoslash lozim:

1. *Muallif g'oyasining ustuvorligi;*
2. *Muallif g'oyasida qahramon o'sish-o'zgarishi;*
3. *Asar voqetligi va muallif konsepsiyasi uyg'unligi;*
4. *Qahramonlararo sintez, o'xshashlik, faktor, tasvir va talqin mutanosibliligi;*
5. *Psixologik vaziyatda inson iroda yo'nalishining kuchli va ojiz tomonlarida qabarib ko'rinadi.*

Har ikki qissadagi psixologik kartinalar kommunikativ holatni taqozolaydi. Unda o'quvchi va qahramon o'zaro ichki bir subhatlar asosida dialogik mulohazaga kirishadi. Mashhur psixoanalitik Erix Fromm: "Bola o'z hayotini mehr-muhabbat, ezigulik va adolat tushunchasi bilan boshlaydi. Erimizikli bola umuman hayotini to'latilgicha onasi ixtiyoriga topshiradi: och qolganda onasi uni emizadi, sovuqda bag'riga bosadi, kasal bo'lganda parvarish qiladi – xullas, bola onasiga to'la ishonadi. Bunday ishonch otasiga, buvisi va bobosiga, boshqa biror yaqinlariga, shuningdek, Xudoga nisbatan ham bo'ladi". Ko'pincha bolalardagi bunday ishonch ancha barvaqtrog' yuzaga keladi. Ba'zan muhim narsalar to'g'risida otasi yolg'on gapirayotganini eshitadi; onasi oldida otasi qaysidir masalalarda unga yon berayotganini, engilayotganini ko'rib turadi; otasi unda o'zi o'ylaganchalik darajada qudratli emasdek, degan taassurot qoldiradi – bundan bola tasavvurlari o'zgaradi. Ammo bolaning xotirjamligini ta'minlash vazifasi ekanligini unutmagan ota-ona esa unga e'tibor

bermaydi, unga bu haqda gapirishga yo'l qo'ymaydi¹. Haqiqatdan ham, Isajon Sulton asarlarida ota boshlig'i – ota ko'pincha beqahqat, be'e'tibor, rahmsiz bo'lib tasvirlanadi. Chayir va chaqon ota obrazining turli asarlarda turlicha qiyofasini uchratish mumkin. Biroq yozuvchi qanday va qay yo'sinda OTA obrazini idrok qilmasin, bolalari o'z otasini ich-ichidan yaxshi ko'rib ulg'ayishadi. Otaning uydagi o'rni va vazifasi ham tirikchilikka etadigan pul, osh-ovqat va rizq topish bilan oydinlashadi. Ona – mehribon, yupatuvchi, rahmdil, shafqatli va o'ta bilimdon, xuddi o'qituvchidek syujet voqetligida namoyon bo'ladi. G'aribning ham, Ra'noning ham ota-onalari ana shunday fazilatlar (o'zgaruvchan) bilan ifoda etiladi.

Psixologik tasvir qissa arxitektonikasida esselashib borayotgan talqinni bir-biriga payvandlashda juda qo'lkeli tabiiy holat. Shuning uchun ham ijodkorlar xarakter ruhiyatini chizishda dinamik, analitik, sintetik prinsiplari – ramziy-majoziy talqinlarni yuzaga keltirishda birdek moslashuvchandir. Sababi, har bir yozuvchi ruhiyat masalasida alohida mezonlarga tayanadi. Kimdir ichki olamni tashqi faktorlar bilan bezasa, kimdir tashqi olamni ichki faktorlar (muhit) bilan muqoyasa qilishga moyil bo'ladi. Bir xil qolip bugun uchun eskilikdir. "XX asr ochuning katta qismida falsafa, tarix, adabiyotshunoslik va badiiy ijodda boshdan-oyoq esselashish davri bo'ldi. Ammo nimani, qachon va qanday ayitish kerakligi reglamentlab qo'yilgan sho'ro jamiyatida esselashishga yo'l qo'yilmadi. Chunki esse janridagi asar uchun jamiyatning barcha a'zolari yoxud uning ko'pchiligi tomonidan qabul qilingan jamoaviy qarash emas, balki muallifning individual fikri qimmatli sanalgandek, esselashgan ijod uchun ham ijtimoiy manfaat yoiniki qabul etilgan yondashuvlarga muvofiqlik emas, muallifning o'z ko'zqarashi muhimdir². Ko'rinadiki, O.Yo'ldoshev uzoq yillar mafkuraviy stenzura bo'g'imida ushlab turilgan adabiyotning bugungimizga kelib erkin nafas olishga yo'l ochilganini isbotlaydi. To'g'ri ta'kidlagandek, esselashuv prostessi nafaqat roman, nasrning turli janrlarida ko'zga tashlandi. Muallif va dunyo birligida badiiy anglash hosilasi tufafalana boshladi. Isajon

¹ Erix Fromm. Inson qalbi. –T: "O'zbekiston". 2016-b-27.

² Yo'ldoshev O. Roman janrining yetakchi belgilari va bugungi o'zbek xos xususiyatlar. –T: "Adib". 2013. –B.358.

Sultonning ikkinchi bir usuli folklor anʼanalarini real voqealikka ramz shaklida singdirib, undan bugungi odam ruhini topishga intilishida koʻrinadi. Tadqiqotchi N. Toshveva adib asarlaridagi kodni shunday izohlaydi: “Xalqona epik tasvir uslubi yozma adabiyotining shakllanishi va yozma nasr taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etdi. Har qanday yozuvchi oʻz asarida sevgi-muhabbat, sadoqat detallarini yoritishda bevosita ota-bobolarimizning sevgi-muhabbat, sadoqati tasviri bilan bogʻliq badiiy-estetik qarashlariga tayanishini kuzatish mumkin. Qahramonning sevgi-muhabbatiga erishishi maqsadidagi sarguzashtlari asosiga epik syujetning qurilishi romanik kod vazifasini bajargan. Romanik kod – epik turda asar bosh qahramonining ishqiy sarguzashtlari va kechimmalari asoslanishidir. Qahramonning romanik kechimmalari, oʻz maqsadiga erishishi uchun xatti-harakatlari, muayyan toʻsiqlarga duch kelishi va toʻsiqlarni engib oʻtishi pirovardida oʻz maqsadiga erishishi yoki erisha olmastligi kabi romanik sarguzasht inthosini tasvirlash orqali muayyan syujet yaratishdir”¹. Darhaqiqat, Gʻarib universal fikrlovchi qahramon; Raʼno uning iztiroblari, quvonchlarini, qaygʻulari bir ayol, oʻjiza ruhini qay darajada kuchli depressiv sinovdan oʻtkazadi. Baʼzan yashashdan nima foyda degan oʻyga boradi. Isajon Sulton bu haqda soʻz yuritganda “oʻz onasi, opasi, singlisi”ning hayotini chuqur anglagan, oʻzbek ayollarining faqir va mazlumligini, yashashida faqat mehnat ichida kun kechirishini teran idroklaydi. Bu ichki iztiroblar oʻquvchini ham hazin oʻyga choʻmdiradi:

“Qaynona zorilladi.

– *Kelin degan oʻtiravermaydi bolaga qarab. Chiqib ishingizni qilsangiz boʻlmaydini? Biz ham bola tugqamiz, nechlasini katta qilqamiz, ishimiz oʻlida-joʻlida qolib ketmagan.*

Raʼno uning koʻnglini olishga chandon urindi, qaynona sira tinchmad. Oʻtirsa oʻpoq, tursa soʻpoq deya verdi.

– *Hoy, qoʻysang-chi, – dedi qaynola.*

Qaynona unyam jerki tashladi.

Shunda eri oraga kirdi.

– *Nima deysan, ona? – dedi jahli chiqib. – Qoʻli olti, oyogʻi etti*

¹ Toshveva N. Hozirgi oʻzbek nasrida folklorga oid vositalarning poetik funktsiyasi. Filol.fan.falsafa.dok. avtoref. –T: 2020. –B.14.

boʻlib xizmatini qilyapti-ku?

– *Sizga suv bermaydi, – dedi qaynona. – Shu yoshga kirib onamni tashish desang, oʻl sen ham.*

– *Oʻzim tashiyman sigirimga suvi, – dedi er.*

– *Erkak boʻlmay qol, endi sigirga qarab yursang, – dedi qaynona. Erkak degan koʻchadan rizq tashib keladi, uyda nima bor ekan?*

– *Unaqa dema, ona, – dedi oʻgʻil. – Jonimni ikki tomonida ikkalang turbsan. Bir qoʻlmini tishlatsam, boshqasi ogʻrisa? Axir, tushunginda, ona. U boshimni ustida boʻlsa, sen koʻzimni ustida. Sen norozi boʻlsang koʻzim ogʻriydi, u xafa boʻlsa boshim.*

Qaynona toʻngʻillab-toʻngʻillab nari ketdi”¹

Qissada kelin va qaynona ziddiyatlari, haligacha odamga mehnatga qarab izzat koʻrsatadigan oilalar, mudom kelinidan zoriqgan qaynonalar borligini adib keskin dramatik tasvirlarda yorqin ifodalaydi. Kishiga mehnat kuchi sifatida qarash haligacha saqlanib kelayotganidan aziyat chekadi. Bir umr mehnatdan qotgan qoʻllari Raʼnoning oilada orzu-umidlari, bir yonda gʻoʻzapoya parvarishi, bir tomonda bola parvarishi uni kuchli stressga solib qoʻyadi. Adib bu asari bilan oʻzbekona lutf, milliy oʻzlik, qadriyat kabi azaliy tushunchalarni folklorga oid tasvir va real hayot turmushi uygʻunligida koʻrsatishni maqsad qilganligi koʻrinadi. Shuningdek, asarda har doimgidek ota oʻrni, ona roli birinchi navbada milliy oʻzlikdan kelib chiqqan holda talqin qilinadi. Ayonki, oʻzbek oilalarida qiz parvarish va tarbiyasidan ortiq muammo yoʻq. Yozuvchi buni oʻz qismatida shu sifatlarni singdirgan. Raʼnodagi metin irodani jittimiy munosabatlarda muhokamasida imtihon qiliadi. Aslida, adib asarlari ruhiy patosi keskin tragik vaziyatlarni “voqealik ichida birlashtirish” yoʻsinida seziladi. Yaʼni Raʼnoning ukasi vafotidan koʻra, oiladagi muhitning shunday nomutanosib tartiblari hissiini bezovta qiliadi. Oʻquvchi murgʻakning vafotiga unchalik achinish hissiini tuymaydi. U erda shu darajaga olib kelgan vaziyat, holatga koʻproq qiziqish, ana shundan dalolat beradi. Buni quyidagi tasvirlarda yanada boshqacha psixologik taranglikda qiyos boʻlamiz:

“*Roʻzgʻor yurpan, eb yotaversangiz togʻ ham chidamaydi, – dedi*

¹ Sultonov I. Onaizorim. <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/isajon-sultonov/isa-jon-sulton-onaizorim-qissa/>

qaynona. – Hammaning keliniyu qizi dalaga o'toqqa chiqadi, er chopadi, mehnat qiladi. Biz ham shunaga edik, mehnat o'ldirmagan odami".

"Egan nonimni minnat qilyaptimi? – dedi og'rinib Ra'no. – Yarinla non eymani-yo'qmi? Eshigida bitla xizmatkori bo'lsayam mendan ko'ra ko'proq non eydi".

"Jon bolam, sabr qil, – dedi onazori. – O'rang bilimasin, ko'naqol. Ular ham tuppa-tuzuk odam, hali oldinda qancha tashvishi bor, shunga kuyinadi-da, seni yomon ko'rmidi? Joningni jinday kuyisang, bir nima bo'lib qolmayсан, ko'naqol, bolam".

"Xo'p", dedi.

Ketmonini ko'tarib dalaga chiqadi. Qarasa, o'zi singarilar ko'p ekan. Hamma boshigayru og'ziga og'ro'lar o'rab olgan. Oyoq'iga etik kiydi, og'iz-burnini ro'mol bilan boyiladi. Pahlavonini ikki tol orasidagi belanchakka yotqizdi, yaxshilab emizdi. Shu erdagi barvasa semiz xolimga "bolamga yaxshilab qarang, opajon, oyiligin chigga, sizga yangi ro'mol olib beraman", deya yalindi. O'rtiga qaray-qaray, chopiqqa yo'l oldi.¹

Mana shu o'rinda qaynona va kelin Ra'no munozarasi yuqoridagi fikrlarimizni tasdiqlaydi. Rahm-shafqatni unutayotgan qaynona ruhiyatida faqat va faqat kelindan ishchi kuchi sifatida foydalanish, og'ir mehnatlarga yuborish, dala-dashtda ishlash niyati qabarib ko'rinadi. Ra'noning emizikli bolasi bo'lishiga qaramasdan og'ir mehnat, paxta chopig'iga safarbar etishining o'ziyoq sobiq sho'ro zamonida ayollar mehnatining ayanchli holga tushib qolganini taqozo etadi. Tarix va bugun uchrashgan nuqtada yozuvchi ayol zotining dodu faryodini xilma-xil psixologik kartinalarda yoritib beradi. Shu jihatlari bilan asar adabiyotimizda o'ziga xos voqea bo'lgan Sh.Boshbekovning "Temir xotin" va Tog'ay Murodning "O'zandam qolgan dalalar" romani bilan ma'lum darajada g'oyaviy hamoxanglik va badiiy mustaraklik kasb etadi.

Inson mohiyatini o'rganish XX asrga kelib yanada chuqurlashdi, olam va odam mazmuni haqidagi aqidalar an'anaviy qoliplarga sira sig'may qoldi. Shu ma'noda, insonni o'rab turgan muhit va uning tutilari badiiy tafakkurda ham muayyan "stereotip"larni yuzaga

kelitirdi. Bular adabiyotda o'quvchilar ommasini ham farqlab ajratib qo'yishga yo'l soldi. "O'zlarini xoh simvolist, xoh syurrealist, xoh dadaist, xoh ul'turist deb atamasin, bariy, bu adabiy oqimlar yaratgan asarlar inson va uning qalbi haqidadir. XX asrdagi jahon adabiyotidagi barcha yangi oqimlar, uslubiy izlanishlar, eng avvalo, fransuz adabiyotida yuz berdi, bu adabiyot tom ma'nodagi yangi badiiy tafakkurning markazi bo'lib qoldi". Binobarin, Isajon Sulton izlanishlari X.Do'stmuhammad, A.A'zam, Sh.Hamro kabi yozuvchilar an'alarini to'ldiruvchi mohiyat kasb etib borayotgani ham fikrimizning yorqin dalilidir.

Psixologizmining hikoya kompozitsiyasida aks etish tamoyili. Hikoya aslida ixcham va hojiravob janrlarning bir turi sifatida yangilanyotgan badiiy tafakkurda salmoqli o'rin egallaydi. Modernistik va postmodernistik hikoyalarda yozuvchi dunyovarashini ifodalovchi psixologizm usul va yo'sinlari turlicha namoyon bo'layotgani barchamizga ma'lum. Tasvir ko'p qatlamli va uning mohiyatiga e'vritishi hozirgi adabiy asarlarda, xususan, Ulug'bek Hamdam va Isajon Sulton poetikasida muhim o'rin tutadi. Argentinaalik yozuvchi Viktoriya Kaseres adib ijodiga shunday baho beradi: "Isajon Sulton "Qismat" ("The Fish") hikoyasiga bir roman zalvorini joylaydi. Mohir me'mor kabi, hayotni ko'p qavatli arxitektionik yo'sinda ko'rsatadi, xuddi bir binoga turli rakurslardan nazar solganingizday, manzaralarning turli qirralarini namoyon qiladi. Shu tariqa siz ro'y berishi mumkin bo'lgan hodisalarning boshqa versiyalarini ham ko'ra olishingiz ko'proq bosqichlarga va xulosalarga duch kelishingiz mumkin. Menimcha timsoliylik ham shu tarzda ishlanadi"². Bunday e'tirof izlanishdagi yozuvchiga juda katta kuch berishi tayin. Haqiqat shuki, "Qismat" hikoyasidagi baliq tufayli sodir bo'lgan metamorfoza har bir o'quvchi dunyosida o'ziga xos tarzda qabul qilinadi va anglanadi. Natijada uchta o'g'il qismatiga kitobxonlar ham qismatdosh bo'ladi. Ramzlar hikoyada doira hosil qiladi va bir markazda jipslashadi. Adib mana shu hikoyada uch xil psixologik kayfiyatni yagona estetik mezonida birlashtirishni hal qiladi.

¹ Nazar Eshonqul. Ijod falsafasi. –T: "Akademnashr". 2018. –B. 89.

² Kaseres V. Isajon Sulton bilan O'zbekistonga sayohat. –T: "Turon zamin" 2017. –B.356-357.

Negaki, ota – o'z dunyosida rahm-shafqat neligini bilmaydi. Onaga ozor berishi uch murg'ak qalbida boshqacha iz qoldiradi. Faqatgina kenja o'g'il taassurotida baliq bir mifologik ramzni hosil qilsa, boshqa o'g'illar undan tezroq qutulishni xohlashganida seziladi. Uchta ruhiy tahlil hikoyada yozuvchi dunyogarashining tashuvchisidir. G'arbi kabi kenja o'g'il qiziqishlari uyg'unligini dalolatlaydi.

Xususan, hikoya qilish yo'sinidagi adib badiiy izlanishlari bir-biridan jiddiy tafovutlanadi. Ya'ni yozuvchi hikoyada asar qahramonlari nomi bilan syujetni qismlarga ajratib tashlaydi. Birinchi sharti ota xarakteri, ikkinchi ona, uchinchi farzandlarining favqulodda o'zgarishi. Bunday usul yangi mifni oson tushuntirish imkonini bersa-da, ramziy talqini teranlashtiradi. Adabiyotshunos Sh.Botirova qayd etishicha: "Ayrim hollarda esa, psixologik tasvir matning salmoqli qismini band etish barobarida boshqa unsurlarga nisbatan mustaqillik kasb etadi va asar mazmunini tushunishning favqulodda muhim jihati aylanadi. Bizningcha, bunday asarda alohida badiiy uslub – psixologizm yuzaga keladi. Psixologizm bu badiiy tasvir vositalari ko'magida qahramon ichki olami: uning fikrlari, kechimmalari, xohishlari, hissiy holatlarini batafsil tasvir orqali kashf qilishdir"¹. Darhaqiqat, (Sh.Botirova qayd etgan fikrlar o'rindi.) Asar psixologizmi – badiiy uslubda namoyon bo'lish omillari namoyon bo'ladi. Ta'kidlash lozimki, Isajon Sulton va Ulug'bek Hamdam badiiy izlanishlarida mifopoetik talqin va modernizm hodisasi uyg'unlashuvi kuzatiladi. Aynan shunday ifoda qilish san'ati – eposdan ibtido olganligini Adabiyotshunos J.Eshonqul alohida ta'kidlaydi: "Freyd va Fromm miflarni tushlar kabi insondagi ong osti yoki boshqacha aytiganda anglamagan tuyg'ular qatoriga qo'shgan edi. Miflar inson ongiga qalqib chiqmagan, biroq ruhiy dunyosida mavjud bo'lgan va tashqi dunyoni tinimsiz o'zida singdirib turgan hissiy jarayondir. Ularning fikricha, miflarni odamdan tashqarida izlamaslik kerak. Mif odamning o'zi, ruhiy holatining ifodasidir". Jumladan, Freyd va Fromm o'tmish va kelajak xususida bosh qotirganda inson taqdiri hech qachon o'zidan boshqa bir inson dunyosini takrorlamasligini alohida qayd etadi. Chunonchi, mif yangi

¹ Botirova Sh. Hozirgi o'zbek romanlarida badiiy psixologizm. Filol.fan.falsafa dok.diss.-si. Avtorferati. –Qarshi. 2019. –B.19.

yoki eski bo'lsin, u yoki bu darajada vogelkni bargarorlashtirib, ramziy ifodani kuchaytirish vositasi ham ekanligini unutmastlik lozim:

"Ko'zim ko'ymay qolgan kundan beri rahmatlik olasi tushimga kiradi.

"Ko'ymayapsammi, men keldim. Baliq e, baliq!" – deydi o'shqi'irib.

Tushimda uni binoyidek ko'rgan.

Rahmatli berahm odam edi. Hech kimni, hech narsani ayab o'tirmasdi. Yo'ldan birov chiqsa yaksan qilib-yanchib o'tib ketadigan shidatiyu haybati bor edi.

Ekin-tikin ekaman, dehqonchilik qilaman deb ko'p urindi, birov, ekan ko'chalari ummasdi, ko'karib chiqardiyo joyida qurib qolaverardi.

Sababi, olasiga qo'l ko'targan edi-da. Endi, bir paytlar... kattalarning otalari namoz o'qimsin degan buyruq bo'lganida, ota undan bekitigicha machitga chiqqan ekan. Aksiga olib, o'sha kuni qanaqadir bayram edi, ichib olgan edi, kelib olasiga "men qamali kelaymi" deb o'shqi'gan, sillab-itarib tashlagan, ota yiqilganida qamish bo'yraning cho'pi ko'ziga kirib kelgan, shunda "qamishday qurigin iloyo" deb qarg'agandi...

Ekin-tikin bo'lmagach, qaydandir bitta miltiq topib, uzzukun qamishzorga jo'nab qolardi, kechgacha yurib-yurib, goho birona qashqaldaqni, ko'karg'ami otib kelardi.

Qalriga yarasha mehriyam boriydi rahmatlikning, ammo nimaki qilsa tersi bo'pchiqaverardi-da, tavba! Yo'qsa, ko'zim ko'ymay qolganini qaydan bilardi-yu qaydan mehribonlik qilib "baliq esang tuzalasan" deb aytlardi?

Mana, bolam pishirib bergan baliqning eti xil-xil, biram mazali. Ko'zim ravshanlashayotganday. Balki bugun-erta basitlik barham topar? ... Joyi jannatda bo'lsin rahmatlikning, men undan ming-ming roziman.

Shoyadki, u ham mendan rozi bo'lsa...

"Qismat" hikoyasidagi er-xotin orasidagi tugamas janjaldan bezigan bolalar qalbida ichki bir qayg'u qizil ip bo'lib muhrlangan.

¹ Sultonov I. Qismat. <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/isajon-sultonov/isajon-sulton-qismat-hikoya/>

Bu jarohat oxir-oqibat ota vafotidan keyin uning baliqqa aylanib qolish metamorfozasi psixologik tasvirni quyuvqlashtradi. Natijada odam vafotidan keyingi taqdiri "baliqqa aylanib qolish" tasviri Freydzim an'analariga ergashishdan boshqa narsa emas. Chunki "G'arb ma'naviyatini, xususan, adabiyotini emirib, bugungi ruhiy inqiroz chohiga tashlagan ikki madaniy-falsafiy faktor bor. Ularning biri, hind va xitoyning buddaviy e'tiqodi asosida turuvchi reinkarnatsiya – ruhning bir jonzodan ikkinchisiga ko'chish haqidagi ta'limot bo'lib, qachonlardir unga ergashish beqaror G'arb sinovi uchun yaralmish insonning tozarish imkoniyatlari cheksizligiga soddalarcha ishonib qoldi va xatolarni xato bilmay qo'ydi. Bu ishonch F.Nisture singari satanalogiya (shaytanat ilmi) vakillari tomonidan yanada rag'batlantirildi".¹ Haqiqatdan ham, biz hikoyani U.Jo'raqulov fikrlari tayangan holda inkor etmoqchi emasmiz, bu erda poetik pafosning yozuvchi uslubini rivojlantirishga, okean orti davlatlari o'quvchilarining badiiy-estetik tafakkuri (yozuvchilari) ning ehtiyoji sifatida qabul qilinishini nazarda tutmoqdamiz. Kuchli ruhiy depressiya, yozuvchini o'ylantirgan falsafiy masalalar, albatta, dunyogarashda ong va tuyg'uni shakllanishiga zamin yaratishini tahlil qilmoqchimiz, xolos. Yozuvchi bu hikoyasi bilan o'zbek adabiyotida yangi bir mistik yo'sinda ifodalash tajribasini, xalq og'zaki ijodida uchraydigan ertak-syujeplar negizida yangilashga harakat qilganligida ko'rinadi. Ayniqsa, otadagi ego (xudbinlik, dilozorlik)ning shakllanish bosqichlariga diqqat qaratish zarur. O'z-o'zidan inson bunday evrilishga muhtalo bo'lmaydi. Undagi rahmshafqat tushunchasini zulm va dilozorlik egallashi muhit va jamiyat hayotidan qidirgan ma'qul degan xulosaga kelish lozim.

MUALLIF ONGINI IFODALASHDA SYUJET VA KOMPOZISIYA UNSURLARI

XX asr o'zbek nasri badiiy takomilida shaxs ruhiyatini tadqiq qilish xilma-xilligi yangi bosqichga ko'tarildi. Tadiriy taraqqiyot va islohotchilik an'anasi yangi mezonlar bilan boyishi olam va odamni anglab o'z dunyosini qurishga shoshilayotgan zamondosh inson taqdiri hamishagidan ham ko'proq talqin va tahlil markaziga olib e'lbirlangan e'tiborga molikdir. Hayot kabi murakkab va undan ma'no izlayotgan zamondosh inson xarakteri nasrning turli janrlarida goh modernistik, goh realistik, goh postmodernistik yo'sinda takomilga yuz tutishi quvonarli hol, albatta! Jamiyat a'zolarining ruhiyatida kechayotgan azim an'analar endilikda avvalgi qoliplarga sig'may qoldi. "Roman hamma narsa haqida va har qanday hajmda bo'lishi mumkin. Roman janrini vazni yoxud bosma tobog'iga qarab belgilab bo'lmaydi. Sh.Xolmirzaev aytganidek, "romandan katta hikoyalar" bo'lgani singari novelladan kichik romanlar ham yozilaveradi. Islomdagi niyat amaldan ustun degan aqidaga tayanib, romanning janrini belgilashda muallif niyati hal qiluvchi ko'rsatgich qilib olinsa, to'g'ri bo'ladi. Shundan kelib chiqib, muallifning personajlar shaxsiyatiga xos qirralarni roman janri miqyosida ochishni badiiy niyat qilganligining o'zi roman janrini belgilaydigan asosiy omil deyish mumkin. Shu bois, keyingi vaqtda ayrim romanlarning hajmi kichirayib borayotgani, ifoda yo'sinida o'zgachaliklar bo'layotganidan ajablanmaslik kerak. Hajmining katta-kichikligi badiiy asar mohiyati va saviyasini belgilamaydi".¹ Darhaqiqat, mazkur iqtibosga qo'shimcha shuni qayd etish joizki, janrni belgilovchi asosiy xususiyat "muallif va obraz", "muallif va uslub" tushunchalari badiiy asarning bugungi kun nuqtai nazaridan olib qaraganda, esselashuv prestessida ro'y berayotgan sifat o'zgarishlarining chuqurlashib borayotganini taqozo etmoqda. Mavjud andozalar sinkretik yo'sinda ifodalanib, hayotning butun-murakkabligini ko'rsatuvchi asosiy kriteriyalarni joriylanishiga zamin hozirlamoqda.

Shuni qayd etish lozim, mutolaa vaqti va unga ketadigan kunlik

¹ Jo'raqulov U. Nazariy poetika masalalari. –T.: "Adabiyot va san'at nashriyoti", 2015. –B.269-270.

¹ Yo'ldoshev Q. Roman janrining yetakchi belgilari va bugungi o'zbek romanlariga xos xususiyatlar. –T.: "Adib", 2013. –B. 353.

yil to'ldi, lekin ishga hech qo'lim bormayapti. Maktabga esa olishmas ekan, olgandayam kim borardi endi? O'zi ko'p zerikdim u erda...

- Ha-a, mana gap qaerda? Qo'lingni o'sha betamizga ko'tartirgan iblis ham, asli, shu... zerikish bo'lgan. Senga necha marta aytdim, har qushning o'zi parvoz maydoni bo'ladi, sen o'zingnikini topgin deb. Unaning, tug'ilgan joyim deding, ota-onam deding, endi esa bola-chaqam deysan. Hech qaerga kelmayman deysan, - tabib zo'r berib necha bor takrorlagan mudaaosini yana Akbarga tushuntira ketdi.

- Nima foydasi bor buning, joyni almashitirish bilan biron narsa o'zgarib qolarmidi? Hamma narsa jonininga tegdi, hamma narsadan, hatto odamlardan ham ko'nglim qolgan. Yashashdan zerikdim. Go'yo hayotning maza-matrasini qolmagandek...

- Akbar, o'zingdan eshitay. Bolani qanday holatda urding, nega urding, o'shanda nima bo'lgan edi?..

- Qo'yasangiz-chi, ustoz, endi bundan nima naq?..

- Sen aylaver. Dunyoda shunday narsalar borki, ularning foyda zarari ko'zga ko'rinmaydi. Sen aylaver...¹

Mazkur parchada romanining butun konsepsiyasi ayonlashadi. Tabib va Akbarning o'zaro suhbatida keyingi voqealar "Yo'lga chiqish kerak, o'g'lim!.." degan oq fothasi orqali sodir bo'ladi, ya'ni ochib beriladi. Isyonidan - itoatga kelish orasidagi mangu kurash - nafsni engish, hayotni teranroq anglash, inson o'zini qatrlaydigan davralarda ishlash, yashash masalasiga diqqat qaratiladi. Har bir fasllar zanjirida diniy-ilohiy kiritma hikoyalar syujet qismlarini bir-biriga payvandlashda muhim omil bo'lib hisoblanadi. Ustoz va shogirdning mazkur suhbatidan yana shuni bilish mumkinki, jamiyatda yozilmagan qonunlar oyoq osti bo'lishi, yozilgan qonunlarning manfaatga xizmat qilishi haqida so'z boradi. Bir shapaloq - uch yil qamoq! Bu nihoyatda jirkanch holat ekanligi oydinlashadi. Romaning nomidan ham bilish lozimki, har bir qahramon o'z taqdiriga qarshi chiqishda davom etadi va oxir-oqibat fojeli o'z domiga tortib ketadi. Adabiyotshunos D.To'raev talqin etishicha: "Haq taolo, taqdir (sho'rolar davrida "tabiat" deyilar - edi D.T) o'zbek yigiti Akbarga ham kuch-quvvat, jasurlik, kelishgan gomat,

¹ Hamdamov U. Isyon va itoat. -T: "Akademnashtir". 2019. -B.286.

aqi-farosat, g'ayrat-shijoat bergan. Ammo Akbar ham Xudo bergan bunday mukammallikka shukrona aytmaydi, kamaroni yashash o'rniga Tangriga isyon bilan sertashvish, serg'alva umr kechiradi. Oliy o'quv yurtini bitirgan yosh muallim Akbar maktabda o'zi kabi isyonkor bir bolani urgani uchun uch yilga qamalib ketadi. Yozuvchi bu erda bizga pand-nasihat qilmaydi - maktab o'quvchisi har qancha o'zini yomon tutganida ham pedagog o'zini vazmin tutishi kerak edi, shunda u qamoqxonada azob chekmas edi, degan didaktik fikrlarni aytmaydi. Balki, Akbar taqdiridagi mazkur voqea orqali davr va jamiyat hayotining bundan-da jiddiroq ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy muammolarini ko'rsatadi. Aslida, Akbar o'quvchini haqorat qilgan o'quvchini urib to'g'ri qilgan edi. Ammo kalak egan bola oddiy mehnatkashning farzandi emas, boyning bolasi edi. Ma'naviyatsiz boy esa pul yordamida halol va oriyati o'quvchini bemaol qamatib yuborishi mumkinligi to'g'ri va haqoniy ko'rsatilgan". Olim D.To'raev to'g'ri ta'kidlaganidek, Akbar nihoyatda chuqur bilimga ega, kuchli va uncha-muncha odamni tan olmaydigan obrazlardan biri bo'lib, u hamma vaqt johiliyatga qarshi qatitqilib yashaydi. Aslida uning ISYO'NI shunday ulkan muammolarga qaratilganligi bilan tahsinga sazovoridir. Ya'ni adib Tabib va Akbarning fikr va mulohazalaridagi o'xshashlikni yagona esteetik mezoniga aylantiradi. Muallif ongida zuhur etilgan ma'rifat va ma'naviyat masalasi millat kishisining har birida kamol topishi, jahonga yuzlanishda mana shu jihat har qanday iqtisodiy-ijtimoiy masalalardan yuqori turishini bot-bot ta'kidlaganida ko'rinadi.

Ulug'bek Hamdam ijodiy niyatni badiiy voqelikka aylantirish borasida anchayin ter to'kkanligi bilimb turibdi. Chunki Rumiy chashmasidan ilhomlanish va undan ifodalash yo'sinida murojaat qilish yaqqol seziladi. Adib Rumiy asarlari tarjimoni hamdir. Shu maqsad miyo'ri ifodalash prinsiplariga ko'ra - roman voqelikni ifodalash takomilida taqlid va ta'sir bo'lishi mumkin, albatta! Bunday hikmatga murojaat Akbarning asar voqeligidagi konseptual harkatlarida ko'rinadi. Jaloliddin Rumiyning "Ichindagi ichindadir" nomli mo'jazkitobidagi quyidagi fikrlar so'zimizni to'la quvvatlaydi: "Azaliy hukm to'g'risida bilmogchi bo'lgan narsangni o'rgatdik,


¹ To'rayev D. Davr va ijod mas'uliyati. -T: "Akademnashtir". 2004. -B.35.

atroficha tushuntirdik. Bu aslo o'zgarmaydi. To'g'ri, ba'zan qilgan yaxshiliging yoki yomonliging miqdoricha muqobilini ololmayсан. Biroq yaxshilik va yomonlikning javobi mutlaqo bo'ljakdir, ya'ni hukm mutlaqo o'zgarmasdir. Bir mahmadona kimsa "Biz Tangri saodatidan mahrum bo'lgan gumrohning oxirat saodatiga muassar bo'lgan said (qutli – tarj.), saidning esa gumroh bo'lganini ko'ryapmiz" dedi. Mavloni buyurdiki, "Bo'lishi mumkin. Chunki gumroh yaxshilik qilgani uchun said, said esa yomonlikka yaqin yurgani uchun gumroh bo'lgandir. Masalan, Iblis "Meni olovdan, uni (odamni) esa tuproqdan yaratding", deb Odamning yaratilishiga e'tiroz qilgani uchun Tangriining abadiy la'natiga uchradi va malaklarga rahbarlikdan, bizning huzurimizdan quvildi. Shuning uchun biz ham, "Yaxshilikning javobi yaxshilik, yomonlikning jazosi yomonlik" deymiz". Xuddi ana shu manba roman leytmotivini tashkil qiladi. Adib keltirilgan misolga bot-bot murojat qiladi. Demak, muallif Akbar ko'targan isyon jamiyat a'zolarida kuzatilgani bilan "qorin g'ami"dan boshqasiga, ya'ni tirikchilikdan ortmasligiga amin bo'ladi. Azal va abad orasida kechadigan mangu kurash ham aslida Shayton vasvasidan yiroq bo'lishdir. Akbar ham o'z qilinishlari oqibatida – tozarish istagida isyon qiladi. Buning tagida nomukammallikdan mukammallik sari tashlangan qadam, deb tushunadi.

Romanda yozuvchi isyonning yuzaga kelish omillariga muqoyasa tarzda yana bir qahramonni ko'zgu qilib qo'yadi. Undan tayinli xulosa chiqarishga etaklaydi. Buni quyidagi chizmada hamko'rashimiz mumkin:

Bu kabi parallel qo'yib tasvirlash usuli Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" romanida Muhammadjon aka va Yusuf, "Sabo va Samandar"da Nodir va Nilufar timsolida idrok etiladi. Ya'ni muallif – xilma-xil personajlarning tabiatida kechayotgan o'sish-o'zgarishlarni qayta dalolatlaydi. Birinchisi – oliy muvozanat, ikkinchisi – itoatga bo'yinish; uchinchisi – ishq fojeligini tan olish. Mana shu uchlik adib asarlarida bir-birini to'ldirib, falsafy-estetik gamrov darajasini kengaytirishga xizmat qiladi:

¹ Jaloliddin Rumiy. Ichindagi ichindadir. –T: "Akademnashr". 2019. –B.93.



„Men ham bir vaqtlar xuddi sendek edim. Erkaklarning og'zidan suvini qochiradigan darajada suluv edim. Hatto o'zim o'z husnimga mahliyo bo'lib vigo bilan yashardim. Xaridorlarim boshindagi sochimdanda ko'p edi, chamamda. Hatto turmushga chiqib, yoshim bir oz qaytgandan keyin ham necha-necha xushrotlarim ortimdan bir ko'tarib yurishgani-yurishgan edi. Eh-he, nimasini aytay?.. Bir umr o'lgunimcha shunday sevimli bo'lib yuraman deganimni yoki seningnikidek xipcha belimni buzib qo'yaman deb xomilador bo'lishdan qochganlarimni?.. Erim rahmatli qancha istagandi bola ko'rishni, qancha yolg'iz bo'lgan men nodonga... U-ku vaqtida ketdi, yolg'iz qolib timoqqa zor bo'lgan, farzand qadrimi bitgan, kuygan men bo'ldim... Voy, nega noliyapman? Bunga haqqim bormi o'zi? Qilinishingga yarashta jazosini olmayapmanmi, aslida?..“¹

Bunday ochiq iqtidoran bilish lozimki, Larisa xola va Dinaning o'zaro mulogoti bir-biriga sabab-oqibat bo'lib namoyon bo'lmogda. Larisa xolaning farzand ko'rish istagi, yolg'izlik, alamzadalik qarilik

¹ Hamdamov U. Isyon va itoat. –T: "Akademnashr". 2013. –B. 293.

paytidagi tavra tazarrusining chek-chegarasi yo'qligini isbotlab turibdi. Adib har ikki qahramon tuyg'ularini jiddiy ifodalaydi. Har bir inson umri davomida Yaratganning Oliy Nizomiga qarshi chiqib yashashi misilsiz fojialar girdobida qolib ketishiga olib keladi.

Mana shu jihatdan qaralganda, "Isyon va itoat" romanida qahramonni tipiklashtirishning lirik tamoyili ustunlik qiladi. Akbarning psixologik o'zini tutishi realistlik jihatdan to'la shartlangan. Yozuvchining personajlar ichki dunyosini ziddiyatlar, tangliklar, azob-og'riqlardan iborat psixologik holatlar, og'ir kechimmalar orqali chizishi ham shundandir. Biroq, bu qahramonlarning o'zlarini uchun emas, balki ularning g'oyaviy-ma'naviy izlanishlarining intensivligi va inson tabiati bitmas-tugannas sinovatlar makoni ekanligi urg'u berish maqsadida qilingan. Bilamizki, Ulug'bek Hamdam qahramonlarining ichki dunyosi hamisha ikki qutb, bir-biriga zid ikki hol ko'lamida harakatlanadi. Ruhiyat murakkabliklariga bunday – iloji boricha ko'lamdor yondashish, chuqurroq kirib borishga intilish uni mutlaq anglab bo'lmastikni tushunish orqali yuzaga chiqadi.¹ Yozuvchi ko'tarib chiqqan muammo zalvori ziddiyatlar negizida qolib ketgan qahramonlarning etib kelgan manzil makonlarida yanada ravshanlashadi. Tabib ham xatolaridan xulosa chiqqan va bir umr isyondan forig' bo'lishlikning o'zi kamlik qilishi, inson jamiyat tuzumlariga hamohang tarzda kun kechirishda deb, bilishi haqqoniy ifodasini topgan.

"Isyon va itoat" romanida yozuvchining syujet yaratishdagi faol pozitsiyasi avvalgi romanlaridan tubdan farq qiladi. Uchta bo'limda aks etgan vogelik haqqoniy ifodasi syujet qismlarini bir-biriga mahorat bilan ulaydi. Romanda psixologik konflikt bilan o'zi bilan olishayotgan qahramonning botinini juda azoblaydi. Bular ko'proq Tabib va Larisa xola tabiatida kechadi. Adabiyotshunoslik lug'atida "Badiiy asar vogeligini aks ettirgani, uning markazida inson obrazi turgani uchun ham, insonning real hayotida mavjud konfliktlarning bari unda badiiy ini'kos topadi. Konfliktning barcha turlari badiiy asarda aralash holda zuhur qiladi va o'zaro uzviy aloqada bo'ladi: biri ikkinchisini keltirib chiqaradi, biri ikkinchisi

orqali ifodalanadi". "Isyon va itoat" romanida badiiy konfliktning psixologik turi ko'proq uchraydi. Romaning 43 bobida buning o'ziga xos shaklini ko'ramiz:

"Ha, tabib tasavvuridagi "Xudo"ning uyiga o't tushgandi. Bu esa dunyoni tutib turgan o'q chiziqning darz ketganini bildirardi, uningcha. Tabib borgan sari dahshatli o'ylarga, avvalo, adog'i ko'rinnaydigan mulhazalarga giriftor bo'layotgan va bundan beqahqiyat qattiq iztirib chekayotgan edi. "Axir endi nima bo'ladi, kimga sig'inamiz va kundan madad so'ramiz?" – deya tinimsiz so'vardi o'zidan o'zi. Olamshumul kashfiyotlarning tabiati: "Sen o'zingdan o'zgaga, ya'ni insonlik o'zigidan boshqa kuchga suyanma!" – deya o'g'ir berayotgandek tuyular, bu esa tabibni qamovlantirmas, vaqti kelsa, ivogday bir chumoli zahridan jon tashim qiladigan zaif va muvaggat odam zur'yodiga sig'inolmas, uning yaramliq mohiyatidan o'z ko'nglining bu dunyoda javobi nomumkin savollariga javob mahammuni topolmas, ularni hatto talab etolmasdi. Faqat O'sha... Yaratgan... Alloh... Uning yodigina insonning taskinsiz so'roqlarini javoblantirar va ozurda ko'ngliga tassalli farog'atini berardi... Endi-chi, endi? Nima bo'ladi endi?..."²

Mazkur lavhada Tabibning kuchli psixologik tarang vaziyatdagi holati aks etgan bo'lib, u butun asarda yozuvchining o'z oldiga qo'ygan falsafiy-estetik konsepsiyasini ilgari suradi. Odamzod halokatli cho'ch oldida juda yaqin masofada qolganini tabib juda teran anglaydi. Uni olamshumul kashfiyotlar emas, ilm-fanning qo'lga kiritgan balandligi ham emas, tamomila boshqa narsa – Allohning Oliy Nizomiga qarshi chiqish muammosi juda qattiq tashvishlantirayotgandi. Jannatdan quviltigan Odam va Momo havoning qilinish-qidirmishlari nima bilan kechiriladi? Tavra va tazarru qilish, qiblagga yuz tutish bilanгина amalga oshishi lozimligi tabib taqdirini o'zgartirishga qaratgandi. Tabib din va fan masalalari bilimdoni. U yaqin o'tmishidagi xatolari – orqaga qaytishlik bilan nihoyalansa ne ajab. Biroq unda tavbaning qabul bo'lishi yoki bo'lmastligi faqat Yaratganning izmida ekanligini anglatishi, ana shu taskindan malham olishi "yashab kelayotgani"ni

¹ Botirova Sh. Hozirgi o'zbek nasrida badiiy psixologizm. Filolo.fanlari bo'yicha falsafa doktori. Diss.yasi. – Qarshi. 2019. – B. 90.

¹ Qur'onov D. va boshq. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: "Akademnasht". 2013. – B. 144.

² Hamdamov U. Isyon va itoat. – T.: "Akademnasht". 2019. – B. 347.

anglatardi. Romanda turli xil kasb egalari: o'qituvchi, shifokor, traktorchi, raqqosa, tadbirkor, mansabdorlar qismati turli psixologik vaziyatlarda ochib boriladi. Romanda ikki asosiy figura Tabib va Larisa xola yolg'izlik chohidan qutulish ilinjida turli tuman tuslar, alg'ov-dalg'ov mulohazalar, anglab bo'lmas sinoatlar qarshisida esankirab, Aqldan ozish darajasiga boradi. Akbar hamma voqealarning tirik ishtirokchisi, ularni bosib o'tuvchi "yo'l va yo'lovchi" qahramoni. Mana shu tamoyil adibning "Sabo va Samandar" romanida ham kuzatiladi. Samandar ham xuddi Akbar kabi adabiyot fani o'qituvchisi. Biroq "Isyon va itoat"da Akbar Samandarga qaraganda jiddiy qahramon. Samandar – ko'ngil kishisi, ya'ni shoir. Mana shu qirralari bilan Akbar falsafiy mulohazalari bilan hayotga pragmatik qarasa, Samandar ko'ngil va tuyg'u orqali hayotga kirib borishga intilib, shu yo'lda qurbon bo'ladi. "Muvozanat" romanida Yusuf aql kishisi. U tarixni yozish bilan band. Bu romanlarda Ulug'bek Hamdam yaratgan poetik, falsafiy konseptsiyaning ajralmas halqalaridir desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

"Isyon va itoat" romanida uchta bir-birini to'ldirishga xizmat qiluvchi voqelikning tarqoqlik mavjud:

1. Akbar oilasining e'tibordan chekkada qolib, faqat o'zini dalolatlash

prinsipining ustuvorligi;

2. Larisa xola timsolida Diananing taqdiri ochiqqlanishida o'rinsiz takrorlar mavjudligi;

3. Tabibning o'z qismatini o'zgartirishga qurbi etmasligi va Akbarga bu borada "safar" qilishga yo'naltirishi.

Aslida, xilma-xil taqdirlar bir-biriga ta'sir qilishda davom etaverishi, biri-ikkinchisi uchun – saboq bo'lib, o'z hayotini o'nglashga intiladi. Masalaning bu tomoniga e'tibor qaratganimizda, Tabib va Larisa xola ham umr poyoniga etganini anglashda tavba, tazarru qilib, hayotni boshidan boshlash istagi bilan yashayveradi. Biroq, hammasi juda kech ekanligiga imon keltiradi. Adib ana shu maqsadda Odam ato va Momo havoning jannatdan quviltishidan boshlab gunohlar, fojialar, yo'qotishlar girdobida yashashini teran anglagani, bularni vaqtida o'quvchiga etkazish lozim ekanini niyat qilganidadir. Akbarning botinidagi isyon esa itoat istashligi mana shu lavhada ham yorqin ranglarda ifodasini topgan:

"Nihoyat, men to'qman, lekin hech nima o'zgarmadi-ku! Ko'ksimdagi olov hamon gurillab yommoqda – meni jizg'anak qilib kuydirmoqda-ku!", - deya o'zini o'zi taskinsiz so'roqlarga giriftor etardi Akbar o'shanday damlarda. U butun iztiroblarini tug'ib berayotgan kuch – ilk sababni ham go'yo bilardi, faqat tan olgisi kelmas, uni eslamaslikka urnar, "Na qashshoqlik va na badavlatlik ta'sir etoladigan Isyon olovidan qanday qilib qutulish mumkin?..." – deya o'ylardi. Akbarning tushunib qolgan shu ediki, inson bolasi katta ma'noda o'z ixtiyorida emas ekan. U dunyoga kelishda qanday ixtiyorsiz bo'lgan esa, ketishda ham shunday chorasizdir. Hech kim undan biron nima so'rab o'tirmaydi. Inson qandaydir bir ulkan qudratning qo'lida xomashyo. Bu qudrat odamzodni xohlagan ko'yiga soladi: istasa sog'liq, chiroy beradi, istasa so'qir yo' badbashara aylaydi. Inson ulkan ma'noda o'z qismatini zarracha bo'lsin o'zgartirmaydi. U haqiqatan – kamondan chiqib uchayotgan o'q. Insonni o'q misol o'tgan – bu dunyoga keltirgan kuch boshqadir".

Akbar hayotini o'nglab olgan bo'lsa ham, uni talpingani idealari nega bir zum bo'lsin xotirjam qilolmaydi. Sababki, Akbar zabt etgan cho'qqilarning ham orqasida qancha-qancha taqdirlar borligi hayratlantiradi. Azal va abad o'trasida kechuvchi inson umri poyoni yo'q iztirob bilan siylangan. U o'z dunyosida qanchalar yolg'iz bo'lsa, shunchalar mutedir. Bu muellikka xos ism topish Akbar kabi obrazlarni bezovta qilaverishi, ta'qib etishi tayin. Chunki Akbar avval imonda zaif edi. Uning xatti-harakatlari, olib borar manzillari nima ekanligini bilmasdi. Bugun shuncha ko'rguliklar qarshisida u toblandi. U endi haqiqiy kurash boshlanganini his etdi. Bu kurash shu yo'lda yurishni xohlamagan murtadlar uchunligi uni bezovtalaydi: "Isyon olovidan qanday qilib qutulish mumkin?..." Bunday o'tkir haqiqat qarshisida Akbar chin isyonni ko'radi. Shariat nuqtai nazaridan bergan bir shapaloqni jamiyatning qonuniy tutumlari uni ko'tara olmadi. Bir shapaloq – uch yil qamoq uni hayotining eng kerakli qismini o'g'irladi. Va, u o'z bilganidek yashash, o'zi xohlaganidek umr kechirishni – gunohi azimga almashdi. Bu erda Diana, uzoq Rossiya o'lkalarida yashab kechirgan umri, oila, bola-chaqasiga vaqtida berolmagan tarbiya, uni bu isyondan forig' qilolmadi. Romanda eng

¹ Ko'rsatilgan adabiyot, -B.343-384.

xarakterli jihat "Yolg'izlik" dagi A. ismli qahramon qismati "Ison va itoat" romanidagi Akbarning hayqirig'ini to'laqonli dalolatlaydi:

"...Kechagina og'zidan olov purkab, yoz kerilib turgandi. Bugun mana, havoda kuzning iliq nafasi kezib yuribdi..."

"...Kechagina yuragimda tiyigsiz orzular qanday qilib uzog-uzoqlarga chiqib ketishni bilmay, sabrsizlikdan tipirchilayotgandi. Bu kun ularning ikki qo'li bo'm-bo'sh, yurak – ona yuriga qayta olmay dog'dalar..."

"...Kechagina sevganim qizning qarog'lariga kunduzlari termilib o'tirar, kechalari tongga qadar suratini chizar, so'ng uxlab qolib tushlarimda yana u bilan sayr etar edim. Bugun uni emas, umuman go'zal ayollar haqida o'ylayman..."

"...Kechagina katta bo'lsam, onanining mehmandan yoritgan qo'l-oyoqlariga darmon bo'lsam, deb ishonardim. Bugun u qo'l-oyoqlar ba'zan o'g'lining xizmatini qilib baltar yoritadi..."

"...Kechagina dunyoni zabt etaman, deb xezlanardim. Bugun o'zim uning poylarida ezilib bitdim..."

"...Kechagina bu hayot kun sayin, oy sayin, yil sayin meni Yaratganning huzuriga eltaveradi, deb bilardim. Bugun yashaganim sari u huzurdan uzog tushayotganimni sezaman: yil sayin, oy sayin, kun sayin..."

"...Kechagina do'st uchun jonimni tikishga tayyor yashagan – meni! Bugun na do'st qoldi va tikilishga tayyor jon..."¹

Mana shu iqtibosda qissa va roman qahramonlari yozuvchining ijodiy dunyosida bir-birini to'ldiruvchi personajlar real mohiyatni asoslaydi. Ayniqsa, Akbar va A. ni qiyoslab ko'rganimizda birinchi asardagi qahramon xohish-istaklari "Kecha"ning bag'rida qoim. U bugunni tuzatmoqchi. "Edim" yaqin o'tgan zamon fe'li "bugun" hozirgi zamon fe'lining ifrosini ta'minlay olmay – AROSATDA! Ison olovi – faqat Yaratganni anglash va unga qaytishlik ekanini, Undan najot bo'lishini ich-ichidan anglab tursa-da, "kecha"ning alamli azoblari uni doim ta'qib qilishda ekanligidan o'kintiradi, qiynaydi. Bunday kontrast usuli Ulug'bek Hamdam ijodida muhim va zalvorli diskurslarni takomillashtirib, yangi tafakkurga boshlaydi. Adibning "Ison va itoat" asaridagi kayfiyat, tasavvur, sema,

metaformozalar yig'indisi xuddi "o'simta" yanglig', "Na matak", "Yo'l" nomli romanlarida ham kelajak tomon harakatlantirishda davom etadi. Yozuvchi bu qizil ip kabi bu voqelikni ong va tuyg'uda tahlil qiladi. Jamiyat va hayot bo'sag'asida turgan sira tugamaydigan Ison olovi uni ruhlantiradi. Mavjud hayotiy aqidalarning ko'p hollarda inson taqdirini chigalliklardan xalos etuvchi kuch emasligini bilgan qahramonlari "chiqmagan jondan umid" deya safar qilishda davom etaveradi.

Umuman, Ulug'bek Hamdam "Yolg'izlik"dan ibtido olgan barcha katta-kichik asarlarida bir narsaga juda katta e'tibor qaratadi: insonning inson bo'lib yashashligi, jaholatdan faqat qattiq imyon va ma'firatgina qutqarib qolishi, moddiy va ma'naviy dunyo muvozanati birligi, olam va odam tuyg'ularida Yaratganning irodasiga qarshi chiqib yashash mumkinmasligi, azal va abad orasidagi mangu kurash, jamiyat qonun-qoidalarining ko'p ham inson tirikligini belgilovchi mezon emasligi, taqdiri azal hukmining vojibligi kabilarni tahlil makaziga yo'naltiradi. Zalvorli hissiy-aqliy faoliyat Ulug'bek Hamdam qahramonlarini hama vaqt bezovtalaydi. Ayni shu jihatlari adibning o'z ijodiy kredosi muvaffaqiyat bilan tilga ifodalashiga xizmat qiladi. Shaloladek kuchli lirizm va romantik ruh ustuvorligi adib romanlarida muhim atribut hisoblanadi. Zero, kuzatuv va simtezlar birligi shuni taqozo etmoqda.

¹ Hamdamov U. Yolg'izlik. –T: "Yangi asr avlod", 2019. –B. 78.

ROMANDA QAHRAMON VA YOZUVCHI SHAXSIYATI YAXLITLASHUVI

XX asr nasri arxitektonikasida badiiylik modusi ikki o'lamli tasvir dramasi yuzaga keltirishi bilan ajralib turadi. Insoniyat boshiga takror va takror tushayotgan kulfatlar azob-uqubatlar shaxs muligini, qaramligini tobora avjga olib chiqmoqda. Er kurrasining qaysidir bir burchagida avomga noma'lum ilm-fanning mistisiz taraqqiy etishi—klonlashtirish va yana qandaydir virusolog olimlarning odamzodga kulfat yog'diradigan Xudoning Oliy nizomiga qarshi chiqadigan allanimalarni o'ylab topishini ham keltirish mumkin. Negaki, insoniyatning adashishlari-yu, manzil makonlari odamzodni katta iqtisodiy gegemon davlatlarga och va nochor, g'arib va yo'qsil davlatlarni jamiyatlarini tobe qilib bormoqda. Hayot biz anglab etolmaydigan fojia qarshisida yashash uchun o'zi etarli emas go'yo. Tabiiy ofatlarni qirg'inbarot texnikalarning barchasi inson omili bilan sodir bo'layotgani hech kimga sir emas. Intelktual kapitalning jahon bozorida oshig'i olchi bo'lishi va undan ba'zi manfaatparastlarning noto'g'ri foydalanishi natijasida shaxsning ruhiy-ma'naviy olamiga aks ta'sir ko'rsatmoqda. Yagona Alloh hidoyatidan bebahra yashab o'layotgan qavmu qabilalar — dunyoning bunday evrilishlaridan hayrondir. Manqurt va mutasiyaga uchragan ong va tuyg'u endilikda arziyas bir matohga aylanib ulgurani eng achinarli va dahshatli muammodir. Buning echimini zamon o'quvchisiga tanishtirishga diqqat qatishga uringan yozuvchining qahramonlaridan biri "*Men kimman?*", "*O'tim nima?*" degan ajabovur savolni berishdan ham toymaydi.

Taniqli yozuvchi Isajon Sulton "Munjo'ot" qissasidan boshlangan mifologik qatlam sintezi G'aribdan ibtido olib, "Boqiy darbadar"da Professor Ziyo, "Ozod"da Ozod timsolida real mohiyat kasb etib borishini alohida e'tirof etish joiz. Uslubdan — uslubga, personajdan — personajga, poetik voqelikdan — falsafiy talqiniga chuqurlashib borayotgan yozuvchi xilma-xil ifoda uslublarining dialektik aloqasini bir nuqtada zohir qilishini adabiyotshunoslar tomonidan tan olinmoqda. Prof. U.Normatov o'tkir mafkuraviy jazavalarni talqini

moslashtirgan¹; munaqqid I.G'afurov ekzistenstializm yo'llari va falsafasiga shaydo bo'lgan Isajon Sultonning yuragi va ong taqdirini shunday larzali kechimmalardan dunyo va tabiatning kelib chiqishiga nazar tashlaydi²; prof. A.Rasulov "Boqiy darbadar"da katarli kelajak qarshisida ikkilanib turgan, aqlli tafakkur hamda shayoni xohish-istaklar ziddiyatlararo adashishlar yo'lidan ko't-ko'rona ketib borayotgan tomoshatalab olomon orasida jovdirlab turgan ma'naviyat kishisining qiyofasi ham sezilar edi³. Prof. Y.Solijonov inson va tabiat birligini o'zaro qorishiq tarzda tasvirlash orqali Isajon Sulton badiiy adabiyotimizga o'zining shaxsiy tashvishlaridan ko'ra ko'proq umumbashariy masalalar bilan band bo'lgan yangicha tafakkurdagi shaxs obrazini olib kiradi⁴. Adabiyotshunos D.To'raev "Boqiy darbadar" romanidagi ijodiy ma'nodagi detektiv, o'tkir syujet poetikasini, falsafiy teranlikni e'tirof etganimiz holda, unda jahon tarixi va falsafasi hamda mantiq ilmidagi ba'zi ma'lumotlarning bahstalar tasviriga duch kelamiz⁵. Adabiyotshunos D.Quronov postmodernistik asar deb qo'ya qolay desa. Muallif olamu odam haqidagi o'y-tashvishlarini ifoda etmoq uchun badiiy detal — postmodernistlar inkor qilgan metarivoyat yaratib qo'yibdi... Holatdan chiqishga urinish demang-u, nazarimda, Isajon o'zi bilgan bizdagi xorijdagi ijodiy tajribalarining barini ichdan o'tkazibdi — bugun o'zini qiyinab turgan muammolarning badiiy idrokiyu ifodasi uchun maqbul shakl izlapti, izlanishlari sintezga olib kelibdi⁶, — degan munaqqid va olimlarimiz juda asosli mulohazalarni keltirib o'tgan.

Shuni qayd etish joizki, Isajon Sulton "Boqiy darbadar" romanida an'ana va norealistik talqini uyg'unlashtirib, hayotning ma'nosi va olam insoniyat taqdiri xususida teran o'ylashga jalb qiluvchi poetik talqin metamorfosasi ilgari suradi. Adabiyotshunos D.To'raev alohida qayd etishicha: "Romanda yaxlit olganda falsafiy ruh kuchli ekanini ravshan sezilib turadi. "Boqiy darbadar" romanida milliy

¹ Normatov U. Yetuklik jozibas. —T: "Turon zamin ziyo". 2017. —B.13.

² G'afurov I. Yozuvchi, tabiat va tibbiyot. —T: "Turon zamin ziyo". 2017. —B.19.

³ Rasulov A. Akslar falsafasi. —T: "Turon zamin ziyo". 2017. —B.29.

⁴ Solijonov Y. Niyati ulug' adib. —T: "Turon zamin ziyo". 2017. —B.55.

⁵ To'raev D. Falsafiy-sarguzasht roman. —T: "Turon zamin ziyo". 2017. —B.76.

⁶ Quronov D. O'ylashga undovchi asar. —T: "Turon zamin ziyo". 2017. —B.77.

ruh ham, modern adabiyotga xos tarqoqlik ham, voqealarning bog'lanishida tartib ham, lirizm ham, realizm va romantizm unsurlari ham bor. Fikrlarning ayqash-uyqashligi Jeyms Joyssga ergashuvining salbiy ta'siri bo'lsa kerak¹. Haqiqatdan ham, romandagi zamon va makonda kechuvi voqelik bir-biriga mutanosib tartiblanmaydi. Zamon kishining xatosini uzok mifologik rivojatlardan axtaradi. Bani bashariyatning darbadarlik yuki, vazifasi, etib kelgan manzilmakonalardagi adashishlari haqida kuyunchaklik bilan so'z yuritadi adib. Shu ma'noda, roman janridagi uslubiy jihatlarni sintezga evrilgan tasvir estetikasi deb aytilish o'rinni.

Xo'sh, bu romanda yozuvchi nima demogchi? Mutelik qarshisida esankirab qolgan odamzodning tabiiy yashash instinkti tobora zaiflashib borayotganini ko'rsatmoqchimi, yoki global inqiroz – klon odamning yaratilishi Biru Bor hukmiga qarshi chiqayotgan mutdallarning asl qiyofasini dalolatlamogchimi? Javoblar ham turlicha jaranglaydi. Bir umr ilm-fan, genetik sohada mehnat qilgan Professor Ziy o'qimish va kelajak orasidagi halokati ko'priklari hamdir. Uning qarashlaridagi g'ayrisluviy qiyofaga ega Klon odam aqlan noqis, jismonan kuchli bo'lsa, aqlan kuchli bo'lsa, jismonan noqis bo'lib yaratiladi. Bu erda Alloh taoloning azaliy va abadiy qonuniyatiga qarshi chiqan shaytoniy qiyofadagi personajlar tizimini uchramiz.

Adabiyotshunos A.Rasulov "Dunyo adabiyotida anchayin kech – o'n uchinchi asrga kelib paydo bo'lgan Boqiy darbadar obrazi ilk bora 1228 yilda, angliyalik Rodjer Uendoverskiyning parijlik Meyu tomonidan tuzilgan "Katta xronika"sida uchraydi. Mazkur ma'lumotlar Brokgauz va Efron ensiklopediyasida, "Vikipediya" erkin qomusida, "Akademik adabiyot" qomusida va "Katta ingliz qomusi"da deyarli bir xil talqin qilinadi. Rodjerieng talqiniga ko'ra, u prokurator Pontiy Pliat bo'lib, mangu darbadar emas, mangu yashovchan kishidir. U iymoni, avliyolarga xos hayot kechiradi. Voqeaning mazkur talqinida Boqiy darbadar Iso alyahissalom risolatining mangu trikl guvohi o'laroq tavsiflanadi. Shuningdek, italiyalik astrolog Gvido Bomati 1267 yilda muqaddas Yoxub monastirida o'zini Ioann Buttadeo deb tanishtirgan

kishini ko'rganidan darak beradi. Keyinroq o'rta chiqqan boshqa talqinlarda uning ismi Buttadeus, Malx yoki Yan Roduin (Kafkaning qulining ismi) sifatida keladi. Endi u tosh eto'lalar aro adashib yurishga mahkum bechora qiyofasida namoyon bo'ladi. Bu talqinlarda rivojlaning o'n olinchi-o'n ettinchi asrlarda urf bo'lgan roman-avantiyura talqlariga mosligini ko'ramiz². Haqiqatdan ham, A.Rasulov boqiy darbadar obrazining kelib chiqishi va uning o'zbek adabiyoti, sharq musulmon kishisining bunga mutanosibligi xususida anchayin farqlanishlarni tilga oladi. Bu obrazning 700 yillik tarixi Evropa xalqlari adabiy sohnalari negizida tahlil qilinib, adabiyotda mangu darbadarlik tushunchasi Iso alyahissalomning qat qilinishi bilan bog'liq voqelanishini birma-bir sanab o'tadi. Bizning adabiyotimizda boqiylik deydi munagqid, "sira salbiy emas, balki uni aziz va mukarrab zotlar taqdirida ko'rish mumkin". Bu qarashlar haqiqatdan ham tasavvuf namoyondlari fano va baqo masalasini boshqacha talqin qilganlar. Darbadarlik – darveshlik sira ayb emas, uning boshqichlarida odam ma'nan poklanib, Haq taolaga etishishi mumkinligi fikrimizning yorqin dalilidir.

Isajon Sulton mana shu romani bilan o'zining shakllangan g'oyalari, anglagan sirlari, muallif sifatidagi hayotiy ko'z qarashlari individual mohiyat kasb etgan. Chunki u darbadarlikni boshqacha yo'sinda anglatishni maqsad qiladi. Isajon Sulton uchun boqiylik va darbadarlikning o'lichovlari ma'naviy qashshoqlik va johiliyatga qarshi chiqib, qarg'ish olgan fan-texnika sohasida inqilob yasagan klon odam mualliflarini ayovsiz balchiqqa giriftor qilayotgan sabab va oqibatlarini ko'rsatishdan iborat ekanligi ayonlashadi.

Adabiy sinchi R.Qo'chqor: "Boqiy darbadar" romanida teskari manzaraga duch kelamiz. Ya'ni muallif (yana ham aniqrog'i – muallif ijodiy tafakkuri) hozirga qadar ko'rgan umri davomida yig'ib-tergani o'ziga og'irlik qilgan shunchalik ko'p savol, ziddiyat, hikmat, ibrat, fikr, o'y-mulohaza, ishtiroq, gumon, taxmin, qo'rguv, vahm va yana boshqa insoniyat aqli, ongi, tuyg'usi, hissiyotiga doir kechimmalar qatlamlari yaratadiki, ularning har biri to'g'risida alohida kitob bitmoq, kunlab munozara olib bormoq mumkin³. Shu ma'noda, adib ko'plab

¹ To'rayev D. –T: "Turon zamin ziyo", 2017. –B.76.

¹ Rasulov A. Mangulik suvi. –T: "Turon zamin ziyo", 2017. –B.59.

² Rahmon Qo'chqor. Darbadarlikning badar talqini. –T: "Turon zamin ziyo", 2017. –B.85.

mitologik hikoyalar, rivoyatlar, aziz va mukarram avliyolar hayotining manig'ini chizib berishga initilb yashagan ideallarni ham talqiniga jalb qiladiki, unda qamrov yanada zalvorli bo'lib poetiklashadi. Asarda vogelik sinretik yo'sinda aks etishi, biron tutib turuvchi obrazning o'zi yo'qligi ham o'quvchining tasavvuri va taassurotini ikkiga bo'lib tashlaydi. Tushunuvchilar va tushunmaydiganlar. Bir-birini to'ldiruvchi, ramzlar, kodlar, ishoralarining ijodkor falsafiy konsepsiyasini ochiqdianishiga xizmat qilishini e'tibordan chekkada qoldirmaslik lozim. Chunki yozuvchining asl maqsadi — o'timish va kelajak o'rtasidagi ishoralar, taxminlar, xatolar, yo'qotishlar, xom xayollar, orzular, ideallarni — **bugunning** bag'ridan izlashga jalb qilishida qabarib ko'rinadi:

“U yoz bu yozdan gaplashib, muddaosini ayon qilgach, chol jilmaydi:

— Sirayam unday emas-da, - deb e'tiroz bildirdi u. — Dunyoda iz qoldirmaydigan hech narsa yo'q. Huv anavi qoya yoniga borsangiz, u erda ayvonga o'xshagan bir joyini ko'rasiz. Nazarida, siz aylayotgan kishi o'sha erda o'tirgan edi. Yaxshilab qarasangiz, tushib qolgan bir tola sochini ham topishingiz mumkin.

— Bularni qaerdan bilasiz? — deb so'radi Professor. savodsiz baliqchining o'sha voqeadan xabardor ekaniga hayron qolib.

— Qarang, tevarakda biron soya ko'rinmaydi, — dedi chol. — Birovni kutsangiz, undan qulayroq joy yo'q-ku? U qoyatosh esa ming yillardan beri bir xilda turibdi.

Professor rahmat aytib, o'sha tonon yo'nalganida chol:

— Shoshmang... Bugun qaysi kuni? — deb so'radi.

— Juma, — deb javob qildi Professor.

— Hm-m... Juma, oyning o'n uchinchi kuni, — dedi u nimalarnidir o'zicha hisoblab. — Qulog soling. Oyning o'n uchinchi kunida uchib keladigan qora chumchuqlar aslida qatol bir qarg'ishning yukini olib kelishadi, deytilar. Shuni esingizdan chiqarmang.

— Chumchuqlar-a? — jilmaydi Professor. — Menincha tabiatda ularning qiladigan ishi butunlay boshqa. Har xil zararli hasharotlarni cho'qib kun kechiradigan beozor qushlar-ku?

— Yo'q, bu erdan baliq chiqmas ekan, — dedi chol to'saldan, norozi bo'lib. — Yaxshisi boshqa joyga ketaman.

— Tavba qila qoling, - dedi keyin, Professorga. — Ko'p narsalar

tavba bilan o'z o'rniga tushadi. Shoyad qabul bo'lsa.

— Yaxshi boring, - dedi professor.

— Baliqchi chol to'rini yig'ishtirib, xayrlashib o'z yo'lga ketdi¹.

Romandagi bir hikoyadan keyin ikkinchi vogelik talqini beriladi. Professorga “Tavba qila qoling” o'gitida ham baliqchining ko'p narsalarni oydinlashi bilinadi. Nega juma kuni — oyning o'n uchinchi kuni haqida fikr bildiriyapti chol? Bu o'rinda 13 raqamini qora chumchuqlarga nima aloqasi bor? Yozuvchi bu sanaga oid “rim”larni o'sha Evropa xalqlarida haligacha saqlanib kelayotganiga ishora qiladi. Baliqchi cholning “qora chumchuqlar”i ham muayyan ramzni tashimogda. Boshqacha aytganda, adib chol va professorning o'zaro suhbatida aks etgan dialogik munosabatga mistik qarashlarni singdirib yuborgan. Bir tola sochini topib olinishi va undan maxsus klon odam genini yaratishi, Ziyo obrazining tavba tazarruga yiqilishiga ishora ham qilinadi. Rivoyatlarning shahodat berishicha, mangu darbadarga taalluqli ekanligini ilm-fan bilan isbotlab ko'rmogchi bo'lishganida odamlar unga ishonch hosil qilishi dargumon degan xulosaga keladi. Roman vogeligida mana shu epizodik obraz, ya'ni baliqchining uqtirishi Professor Ziyo ni esankiratib qo'yadi. Aynan shu vogelikdan keyin asarda “Vahshiy”, “Fir'avn” bilan bog'liq tafsilotlar o'z ifodasini topadi.

Isajon Sulton asarda metarivoyatlar sistemasini yarardi. Bu ijodiy konsepsiya muallif dunyoqarashining tashuvchisi va isbotiga parallel ravishda bugunning qiyofasini aniqlashga xizmat qiladi. O'timish rivoyatlari — qarg'ish olgan zot, tavba-tazarru qilsa ham, gunohi manguga muhrlangani, uning dunyo bo'ylab kezib yurishi odamzodni o'ylantirib qo'yadi. Fan-texnika inqilobi Klon odamning fikr va quvvatining butunmasligidan taajjubga tushishadi. Professor Ziyo shu narsalar xususida uzoz bosh qotirib, qalbing amriga bo'yinsunib yashash lozimligini juda kech anglaydi. Romanda har biri bir vogelikni tashuvchi xilma-xil tasvirler keltiriladi. “Timsoillar charxpalagi”, “Bo'ron”, “O'g'il maktubi”, “Bobotoshboqa maqbarasi”

¹ Sulton I. Qoraqush yulduzining sir'i. —T: “G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti”. 2019. 183-184.

shular jumlasiga kiradi. Ularning har biri asar kompozitsiyasida syujetni yaxlitlashediradi.

Roman poetikasida janriy-kompozitsiya sintezi. Badiiy asar kompozitsiyasi puxta qatlamlardan iborat bo'lishi tayin. Biroq, Isajon Sulton asarlarida kompozitsiya vogelikni yuzaga chiqaruvchi qator detallardan iborat bo'lib, fikr va mantiq chegarasini buzib o'tadi. Bir tomonga, adib "hikoya ichida hikoya" qilishni mahorat bilan inkisof qilsa, ikkinchi tomondan g'oyaviy-badiiy xususiyatlarni lirik chekinishlar tizimida berishni ma'qul ko'radi. Navoiyning "Mezonul-avzon"ga murojaati, "Mangu darbadarning qaytishi" kabi kiritma hikoyalar syujetni murakkablashtiradi. Adib asarda bugungi dunyoda bo'layotgan turli-tuman hodisotlarga "fan tili" bilan yondoshadi. Bir qarashda tarix va adabiyot talqinidan so'z yuritsa, boshqa tomonga darbadarlikning ikki qiyofasini idrok etadi. Bir qiyofasi - tavba-tazarru posboni. Ikkinchi qiyofa - shayton ququsiga uchrab, azaliy la'natga duchor bo'lgan kimsa holatini tasvirlaydi. "Mangu darbadarning qaytishi" pesasi muallifi astrolog Gvido Bonatti qiyofasining o'zgaruvchanligini keltirish mumkin. Unda mayxo'rlikka mukkasidan ketgan Bonatti hech narsani anglay olmaydi. Bu pesadan xabar bergan sayyoh "Mening shahri Haybarim" kitobi muallifining hikoyasida tilga olinadi. Romanda ana shu ikki hikoya Professor Ziyoning xarakterini to'laqonli anglash imkonini beradi. Chunki Ziyo "O'g'il maktubi"dan keyin juda ham g'alati bir kechimalarga mubtalo bo'ladi. O'zidagi bu o'zgarishlardan qo'rquvga tushadi:

"Professor Ziyo kompyuterni o'chirib, uzog o'ygatoladi.

Yuragi unga o'g'ilning haq ekanini, butun olam ilgariylab borayotgan turli-tuman yo'llar orasida o'g'ilning tugan yo'li aniqroq va haqiqatga yaqinroq ekanini sezdirib turardi.

Biroq, ne ajabki, muqaddas tushunchalar ham turli-tuman bo'ldiklarga bo'lib tashlangan edi! Butun olam muvozanat ichida bo'lgandagina hamma narsa qadr-qimmat kasb etar, muvozanat buzilganida qadr-qimmatlar ham o'zgarib ketmoqda edi.

Darhaqiqat, odam bolasi dunyoga kelib o'sib-umadi, eydi-ichadi, ayuhannos soladi, kitru havoga, g'ururuga ketadi, lekin bir kuni qarabsizki, butun dunyoni alg'ov-dalg'ov qilaman degan odam hayot sahmasidan sekingina, mule'gina bo'lib chetga chiqadi, supuriladi.

Bir kuni qarasangiz, to'plagan butun sarvallariyu mulklari uning vijudida o'sa boshlagan bittagina begona hujayra qarshisida o'zi, o'zi ham o'sha xastalik changalida mo'ltirab yotgan bo'ladi!"

Professor Ziyo barcha yumushlari zoya ketayotganini "O'g'il maktubi"dan keyin tushuna boshlaydi. Uning barcha urinishlari namasiz va muvaffaqiyatsizligini angelaydi. Adib o'z falsafiy-estetik qarashlarini romanda juda ko'p o'rnlarda ifodalaydi. Vogelik markazida Isajon Sulton dunyoqarashi va ongida pishib etilgan G'O'YA turadi. Mangu darbadarlikning azob-uqubatlarga giriftor bo'lgan kechmishtan zamon o'quvchisini o'goh qiladi. Professor Ziyo iymonida sobit o'g'ilning ohu noilasini xotirlaydi:

"Otajon!"

... Bugun onanning xokisor va aziz qadamlarining izi qolgan hovlimizda ekaman, Parvardigori olamga imon keltirgan barcha kishilarning, avvalo sizning va onazorimning haqqiga ko'zlarimda yosh bilan duo qilgach, ushbu maktubni bitmoqdaman...

... Ota, abadiy darbadarlikka mahkum bir odam haqida aytilgan rivoyatingizni eslaymizmi? Men hozir dunyoning har bir manlatakatida, har bir go'shasida, halol va imonli kishilar bilan bir qatorda, ana shunday darbadar insonlarni ko'rmogdaman... Shunday darbadarlikka mubtalo bo'lmalikning yo'llarini izlamogdaman. Kun kelib, ruhim samolarga qarab yo'l olganida, mukammallikka erishgan ajdodlarim bilan bir qatorda bo'lishni orzu qilaman".

Professor Ziyo o'g'ilning bu maktubidan o'zi erishgan hamma hodisalar qarshisida lolu hayron bo'lib, ichida g'alayon boshlanadi. Ya'ni o'g'il bunday maktubni bitganiga, uning qalbiga Tangri taolo shu qadar ulkan his, sezgi, muhabbat solib qo'yganiga iymon keltiradi. Biroq, u erda hammasi kech ekanligini tushunib etadi. Adib bu dunyodagi barcha hodisalar sirlar orasiga yashirilgan degan xulosaga keladi. Bir muborak zotni turtib yuborib "Azaliy darbadarlik"ni bo'yninga ilgan Etikdo'zning avlodi bugun ham kezib yurgandek go'yo. Chunonchi, Haq taolo farmoniga quloq tutmaslik oqibatida va uning hodisiga qarshi chiqish minglab falokatlarini keltirib berayotgani Ziyo botinida aks-sado beradi. Yozuvchi Markesning vido maktubini

¹ Ko'rsatilgan adabiyot, -B.200.

² Ko'rsatilgan adabiyot, -B.193-198

ham asarga atayin keltirgan. Chunki bugungi insoniyat tomosha talab bo'lib, asl hol va maqsad haqida unchalik qayg'u sezmayganini ko'rsatishning bir usuliga javob tarzida syujetni birlashtiradi. Asl hodisa qolib, shakliga mahiyo bo'lish, er yuzasida Bobildek haybatli bir imorat tiklash va kimo'zarga umr kechirish "Boqiy darbadar"ning kompozitsion butunligini yuzaga chiqarishga dalildir.

Yozuvchi ko'pchilik asarlarida insonning fitratiga urg'u beradi. "Boqiy darbadar" romanida ham din va axloq, shariat ko'rsatmalariga rioya etib yashamaslik oqibatida haqiqiy musulmonlik libosi bo'lmastigi, inson qalbi shuuri kurtak o'tgan shaytoniy nayranglar oqibatida er yuzida qirg'in urushlar, nizolar, falokatlar sodir bo'layotganiga teran nazar tashlaydi. Bugunning ehtiyojlari – mansabu boyligining orqasidan quvish nihoyada fojeli ekanligi Professor Ziyoy qismatida muhtalagan voqelik bilan uyg'unlashadi.

Adabiyotshunos D.To'raev qayd etishicha: "Hozirgi roman-navislarimiz oldida psixologik va memuar, ilmiy-fantastik va falsafiy, tarixiy va hujjatli romanga xos bo'lgan xususiyatlarni bir janr chegarasiga singdirish, ularni birga qo'shish masalasi turadi. Bularning barchasi yozuvchidan davrimizning murakkab muammolarini ifoda etishda badiiy talqinning yangi tasvir vositalarini va badiiy usullarini izlashni talab qiladi. Bu esa tanqili adabiyotshunos M.Baxtin to'g'ri xulosa qilganidek, oldindan hozirgi roman janrining "sekt"idagi silliq va ravon imkoniyatlari xususida bashorat etish qiyin. Munavqid asosli fikr-mulohazalarni ilgari suradi. Negaki, Isajon Sulton romanida ham ayrim tahrir talab o'rinlar mavjud. Professor Ziyoy o'kinchilari tasviri, yurakni o'rtovchi g'am-g'ussalar, iztiroblarning psixologik manzarasini tasvirlashda ikkilanishlar yuz bergan. U voqelikning jonli ishtirokchisi bo'lib, hayot haqida teran mushohadalarni ilgari surish bilan bir qatorda tavba-tazarruni o'z pushi kamari – o'g'lining maktubidan xulosa chiqarishda idrok etadi. Aslida, Professor Ziyoy singari foydasidan zarari ko'p shaxslarning ko'pchiligi oxir-oqibat zalolatga cho'kadi, fojievay bir tarzda nobud bo'ladi. Bularni yozuvchi yanada chuqurroq va aniqroq qilib ko'rsatishi lozim edi. Shunday bo'lsa-da, asarda tirik

qahramonning o'zi bir o'lj bnda, bechorasifat. Darbadarlikning mangu azobini to'lib yashashga mahkumligini anglashi voqelik buyonida to'ldiruvchi mohiyatga evrilgan.

Ta'kidlash joizki, "Boqiy darbadar" Isajon Sulton romanlari orasida alohida janriy-kompozitsion yaxlitlik sinteziga ega. Bir qarashda, qo'l bilan tutib ko'rsatadigan qahramonning o'zi yo'q. Ikkinchidan, qahramon hech bir makonda muqim harakatlanmaydi. Voqelik yozuvchi quvvai hofizasi bilan qabul qilinib, uning tavsiyalari, xarakterni to'ldiruvchi mulohazalari, rivoyatni turli xil taxmin, shubha bilan boyitish evaziga shakllaniradi. Ba'zan pey'zaj, ba'zan ruh-y-psixologik ong va tuyg'u munosabati, tig'izlashuv, ijtimoiy-siyosiy muammolar oydinligi negizida real mazmun va mohiyat kasb etadi. Romandagi uch asosiy poetik qatlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. *Ekspozitsiyada Eitkdo'z bilan bog'liq voqelarning keyingi qismlarga sochilib ketgan tarqoq, ammo asosiy maqsad motiviga aylanshi;*

2. *Hazratning bashorati, gora chumchuqlar va o'lim laskhri orasidagi uzviylik (baliqchi chol va Professor Ziyoy munozarasi);*

3. *Maktub va pesa qoliplovchi hikoya tarzida syujet voqeligini echimga tomon etaklaydi.*


Yozuvchi mana shu tarzda "Boqiy darbadar" romani voqeligini turli xil rakursda poetik markazda uyushtiradi. Natija shuki, yozuvchi "Badaviylar", "Sahrodagi karvon" to'g'risida fikr yuritib, ularni yozuvchi qisqacha tavsiflaydi. Keyin asosiy voqelik izchil o'z aksini topa boradi. Adib uslubiy izlanishlarida – Shamol obrazi "Munjo't" qissasi va "Ozod" va ko'plab hikoyalarda voqelikni "yurgizuvchi richag" vazifasini bajaradi.

Isajon Sultonning "Hazrati majoz" nomli adabiy subhatida shunday e'tirof mavjud: Jamiyadagi o'zgarishlar, inqirozlar va chayqalishlarning bari kishilarning hayotida aks etadi va zalvoriga, ko'lamiga qarab turli-tuman iztiroblarni, g'am va qayg'ularni, shodlik va quvonchlarni hosil qiladi. U iztirob va quvonchlar g'oyatda umumiydir. Elib-yugurib bo'ylik ortirishga umrini sarflagotgan odamning maqsadlari bor-yo'g'i vujudida bittagina hujayraning o'zgarib qolishi bilan badar ketishi mumkin. Gap inson qalbining tirikchilik tashvishlaridan bir muddat uzoqlashishi va yuksalishi

¹ To'raev D. O'zbek romanlarida badiiy tafakkur va mahorat muammosi. – T: "Universitet". 2001. – B. 87.

haqida kelyapti. Qaydadir o'sha o'zgarish sezilar-sezilmas sodir bo'lmogda¹.

3-rasm



Demak, yozuvchi ushbu fikr-mulohazalarini "Bogiy darbadar" romanidagi Professor Ziyo qismatida qayta idrok etib ko'radi. Unda Professor Ziyoning alami azobga griffor bo'lishiga olib borayotgan xatti-harakati yuqoridagi jadvalda aks ettiriladi.

Adib ana shu zaylda dunyo falsafasiga yangicha niyoh tashlaydi. Roman vogeligini aks ettirishda Etikdo'z – Muborak zot – qora chumchuqlar haqida xabar beruvchi baliqchi choli; Professor Ziyo va Klion odam murojaati; O'g'il va Markes makubida syujet va

¹ Sultonov Isajon. Hazrat majoz. T: "Turon zamin ziyo". 2017. –B.313.

kompozitsiya o'zining yakuniy maromini topadi. Ayniqsa, adib qora chumchuqlar – Iblis yo'sinida yurgan va abadiy la'natga duchor bo'lgan qavmlar, siyosiy o'yinlar girdobidagi insoniyatga mislsiz taloto'plar yog'dirayotgan kuchlarga ogohlik signali ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Bu jihatdan adib juda aniq bir umuminsoniy konstepstiyani ilgari surgani ayonlashadi.

Xulosa shuki, roman poetikasida muallif **romanda qahramon va yozuvchi shaxsiyati yaxlitlashuvi** adibning boshqa asarlarida ham kuzatiladi. Negaki, yozuvchining har bir talqinida asosiy maqsad – olanning universal modelini badiiy shartlilikda chizish, tavsiflash, unda yashovchi elar va millatlarning azaliy haqiqati Yaratgani tanish va o'zligini anglashga qaratilganligini va bu yo'lda adashganlarning qismati fojicalar girdobida nom-nishonsiz yo'q bo'lib ketishi, abadiy darbadarlik hukmi – OLIV JAZOga musharraf bo'lishiga mantiqiy urg'u berishadi. Demak, adib bir nechta diniy va dunyoviy qarashlarni falsafiy-estetik yo'sinda adabiyot nuqtai nazaridan his va aql uyg'unligida anglashga diqqat qaratganligida yaqqol kuzatiladi. Zotan, taqdir har bir bandaga niyat va amallariga yarasha marhamat ko'rsatishi turli xil metarivoyatlar, afsonalar, miflar negizida inkishof qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. SIYOSIY ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom hamda shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017. – B. 78.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. 360 b.
3. Aliev A. Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat. – Toshkent: Akademiy, 2000. – 630 b.
4. Alimasov V. Falsafa yohud fikrlash chanqog'i. – Toshkent: Falsafa va huquq, 2007. – 278 b.
5. Alimasov V. Falsafa yohud fikrlash san'ati. – Toshkent: Noshir, 2008. – 255 b.
6. Anastasev N. Obnovlenie traditsii. – M.: Sov. pisatel, 1984. – 349 s.
7. Andreev L.G. Sovremennaya literatura Frantsii. 60-e godi. – M.: Izd-vo MGU, 1977. – 366 s.
8. Aristotel. Poetika. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1980. – 149 b.
9. Baranov V.I, Bacharov A.G, Surovstev Yu.I. Literaturno-xudozhestvennaya kritika. – M.: Vysshaya shkola, 1982. – 206 s.
10. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. – 560 b.
11. Borev Yu. Estetika. Izd. 3. – M.: Politizdat. 1980. – 399 s.
12. Dneprov V.D. Cherty romana XX veka. – M.: L.: Sov. pisatel, 1965. – 247 s.
13. Jo'raqulov U. Hududsiz jilva. – Toshkent: Fan, 2006. – 203 b.
14. Jo'raev T. Ong oqimi modern. – Farg'ona, 2009. – 203 b.
15. Zatonitskiy D.V. Nashe vremya. – M.: Sov. pisatel, 1979. – 430 s.
16. Zatonitskiy D.V. Modernizm i postmodernizm. – Folio-Ast, 2000. – 255 s.
17. Zarubejnaya estetika i teoriya literatury XIX-XX vv. Traktaty, stati, esse. – M.: Izd-vo Moskovskogo universiteta, 1987. – 510 s.
18. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. Birinchi kitob. – Toshkent: O'zbekiston, 2008. – 533 b.
19. Karimov H. Istiqbol davri nashi. – Toshkent: Zargalam, 2007. – 96 b.
20. Karimov B. Ruhniyat alifbosi. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 2016. – 423 b.
21. Karimov H. O'zbek romanlarining taraqqiyot tamoyillari. – Toshkent: Milliy kutubxona, 2008. – 122 b.
22. Kerimov D.A. Filosofskoe osnovanie politiki pravovyx issledovaniy. – M.: Mysl, 1988.
23. Kulakova I. S. Filosofiya i iskusstvo modernizma. – M.: Izd-vo Politizdat, 1980. – 271 s.
24. Mustaqillik davri adabiyoti. – Toshkent: Nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – 287 b.
25. Mirqosimova M., Rustamova M. Janr va mahorat. – Toshkent: Milliy kutubxona, 2007. – 69 b.
26. Mirzaev S. XX asr o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. – 418 b.
27. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – 109 b.
28. Normatov U. Tafakkur yog'dusi. – Toshkent: 2005. – 119 b.
29. Normatov U. Ustoz ibraiti. – Toshkent: Milliy kutubxona, 2007. – 126 b.
30. Normatov U. Ijod sehiri. – Toshkent: Sharq, 2007. – 351 b.
31. Normatov U. Nafosat gurunqlari. – Toshkent: Muhatir, 2010. – 385 b.
32. Nurnatov M. Tanqid va estetika. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1976. – 169 b.
33. Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. – Toshkent: Fan, 2006. – 231 b.
34. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – Toshkent: Sharq, 2007. – 334 b.
35. Rasulov A. Betakror o'zlik. – Toshkent: Mumtoz soz, 2009. – 286 b.
36. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent: 2004. – 127 b.
37. Solijonov Y. Nutq va uslub. – Toshkent: Cho'lpon nashriyoti, 2002.
38. Solijonov Y. Haqiqatning sinchkov ko'zlari. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 228 b.

39. Solijonov Y. Ko'zgudagi hayot. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2013. – 148 b.
40. Solijonov Y. Lirik latofati, nasrning nazokati. – Toshkent: "Adabiyot uchqunlari", 2018. – 108 b.
41. To'raev D. O'zbek romanlarida badiiy tafakkur va mahorat muammosi. – Toshkent: Universitet, 2001. – 166 b.
42. Umurov H. Tahlil san'ati. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1978. – 143 b.
43. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Sharq, 2002. – 252 b.
44. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004. 250 b.
45. Umurov H. Saylanma. – Toshkent: Fan, 2007. 1–jild. – 205 b.
46. Umurov H. Saylanma. // Adabiy-tanqidiy tadqiqotlar. 2 – jild. – Toshkent: Fan, 2007. – 206 b.
47. Umurov H. Saylanma. // Xotiralar, qatralar, saboqlar, haylar. 3 – jild. – Toshkent: Fan, 2007. – 204 b.
48. Umurov H. Saylanma. // Ehtiyoj tafti. 5 – jild. – Samarqand: 2011. – 214 b.
49. Sharafiddin O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: Sharq, 2004. – 237 b.
50. Sheralieva M. Hozirgi o'zbek nasrida kinoya. – Toshkent: "Akademnashr", 2016. 224 b.
51. Epshteyn M. Paradoksi novizmi. – M.: Sovetskiy pisatel, 1988. – 413 s.
52. Quronov D. Cho'lpon (hayoti va ijodiy merosi). – Toshkent: O'qituvchi, 1997. – 80 b.
53. Quronov D. Cho'lpon nasri poetikasi. – Toshkent: Sharq, 2004. – 287 b.
54. Quronov D. Adabiy jarayonda "Mom sindromi". – Toshkent: "Akademnashr", 2010. – 56 b.
55. Quronov D. Zavqimdan bir shingil. – Toshkent: "Akademnashr", 2012. – 56 b.
56. Quronov D. Mutolaa va idrok mashqlari. – Toshkent: "Akademnashr", 2014. – 232 b.
57. Quronov D. Adabiy o'yalar. – Toshkent: "Turon zamin ziyo", 2016. – 112 b.
58. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Xalq merosi, 2004. – 222 b.
59. O'zbek adabiy tanqidi. Antologiya. – Toshkent. "Turon iqbol". 2011. – 544 b.
60. Hamdamov U. Badiiy tafakkur tadriji. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002. – 198 b.
61. Hamdamov U. Yangilanish ehtiyoji. – Toshkent: Fan, 2007. – 196 b.
62. Yoqubov I. Badiiy estetik – so'z sehiri. – Toshkent TDPU. 2011 y. 560 b.
63. Isajon Sulton. Tanlangan asarlar, 1-jild. – T: "G.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti". 2017. – 340 bet.
64. Isajon Sultonov. Munofot. – T: "O'zbekiston". 2010. – 120b.
65. Isajon Sulton I. Qoraqush yulduzning siri. – T: "G.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti". 2019. 264 bet.
66. Sultonov Isajon. Hazrati majoz. T: "Turon zamin ziyo". 2017. – 389 bet.
67. Hamdamov U. "Yolg'izlik". Qissa va hikoyalar. Toshkent: Qatorol-Kamolot, 1998. 112 bet;
68. Hamdamov U. "Isyon va itoat". Roman. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003, 140 bet;
69. Hamdamov U. "Muvozanat". Roman. Toshkent: Minhoj, 2004, 200 bet;
70. Hamdamov U. "Sabo va Samandar". Roman. Toshkent: Muharrir, 2009, 310 bet;
71. Hamdamov U. "Uzoqdagi Dilmura". Qissa va hikoyalar va she'rlar. Toshkent: Akademnashr, 2010, 232 bet.
72. Jaloliddin Rumiy «Ichindagi ichindadur» Turk tilidan Ulug'bek Hamdam tarjimai. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003, 200 bet.

V. INTERNET MANZILLARI

- <http://www.sharqyulduzi.uz>
- <http://www.ulugbekhamdam.uz>
- <http://www.guronov.narod.ru>
- <http://www.ziyounet.uz>
- <http://www.ziyouz.com>
- <http://www.ijod.uz>
- <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/isajon-sultonov/isajon-sulton-qismat-hikoyal/>

MUNDARIJA

KIRISH	3
O'ZBEK NASRIDA MUALLIF "MENI" VA ROMANIN	
TAFAKKUR BUTUNLIGI	5
MUALLIF ONGI VA DUNYOQARASHI: BADIY MAZMUNNI	
IFODALASH SHAKLI SIFATIDA	13
MUALLIF "MENI" BADIY ASARINING ASOSIY UNSURI	
SIFATIDA	25
UODKOR KONSEPSIYASI BADIY TAKOMILIDA TASVIR	
INDIVIDUALIGINI TA'MINLOVCHI OMILLAR	40
PSIXOLOGIK TASVIR VA BADIY TALQIN SINTEZI	59
MUALLIF ONGINI IFODALASHDA SYUJET VA	
KOMPOZISIYA UNSURLARI	79
ROMANDA QAHRAMON VA YOZUVCHI SHAXSIYATI	
YAXLITLASHUVI	92
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	104

TOSHPULATOVA DILOROM BOBANAZAROVNA

HOZIRGI O'ZBEK NASRI: MUALLIF VA IJODIY TAFAKKUR KONSEPSIYASI

Muharrir: X. Tahirov

Texnik muharrir: T. Raxmatullayev

Musahhir: N. Ismatova

Sahifalovchi: A. Muhammad

-13787/100-

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TALIM VAZIRLIGI CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

QAYDLAR UCHUN

Nashr. lits № 2. 244. 25.08.2020 y.

Bosishga ruxsat etildi 15.12.2021 y.

Bichimi 60x84 1/16. Offset qog'oz. "Times New Roman"
garniturasi. Hisob-nashr tabog'i. 5,5.

Adadi 100 dona. Buyurtma № 95.

«MALIK PRINT CO» MChJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzili: Toshkent vuloyati., Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi.